Пул, қимматли қоғозлар, пул билан баҳоланадиган бошқа мол-мулк ёки мулкий ҳуқуқлар ёхуд бошқа шахсга бериладиган ўзга ҳуқуқлар хусусий корхонанинг устав фондига қўшиладиган ҳисса бўлиши мумкин. Мулкдор хусусий корхонанинг устав фондига ўзи киритадиган мол-мулкни мустақил баҳолайди.

Агар хусусий корхонанинг устав фонди шакллантирилаётганда мулкдор ўз оила аъзоларининг умумий (улушли ёки биргаликдаги) мулки ҳисобланган мол-мулкни корхонага бераётган бўлса, ушбу мол-мулкнинг барча мулкдорларидан нотариал тасдиқланган розилик олиш талаб этилади.

Хусусий корхонанинг устав фондини кўпайтириш ва камайтириш мулкдорнинг қарорига кўра хусусий корхонанинг уставига ўзгартишлар киритиш йўли билан амалга оширилади.

Агар иккинчи молия йилининг ва шундан кейинги ҳар бир молия йилининг якунида хусусий корхона соф активларининг қиймати унинг устав фондидан кам эканлиги маълум бўлиб қолса, хусусий корхона ўз устав фондини ўзининг соф активлари қийматидан ошмайдиган миқдорда камайтириши шарт.

Шу ўринда бир савол туғилиши табиий, албатта. Хўш, молия йили нима? У қачондан бошланади ва қачон тугайди?

Молия йили — давлат бюджети амал қиладиган ёки молия ҳисоботлари муддати ҳисобланадиган 12 ойдан иборат давр.

Календарь йил билан мувофиқ келмаслиги мумкин. Масалан, Буюк Британияда молия йили 1-апрелдан бошланиб, кейинги йилнинг 31-мартида, АҚШда 1-октябрьдан бошланиб 31-сентябрьда тугайди. Буюк Британия ҳукуматининг молия йили эса 6-апрелдан бошланиб, кейинги йилнинг 5-апрелида тугайди. АҚШда эса бу муддатлар 1-июл — кейинги йилнинг 30-июни. Ўзбекистонда календар йилга мувофиқ келади (1-январьдан бошлаб, 31-декабрьда тугайди)[13].

Хусусий корхона соф активларининг қиймати қонунчиликда белгиланган тартибда аниқланади.

Хусусий корхонани бошқариш

Хусусий корхона мулкдори корхонани раҳбар сифатида якка бошқаради, корхона номидан ишончномасиз иш кўради, унинг манфаатларини ифодалайди, хусусий корхонанинг пул маблағларини ҳамда бошқа мол-мулкини тасарруф этади, шартномалар, шу жумладан меҳнат шартномалари тузади, ишончномалар беради, банкларда ҳисобварақлар очади, штатларни тасдиқлайди, корхонанинг барча ходимлари учун мажбурий бўлган буйруқлар чиқаради ва кўрсатмалар беради.

Хусусий корхона мулкдори қуйидаги ҳуқуқларга эга:

- ✓ хусусий корхона уставига қонунчиликда белгиланган тартибда ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритиш;
- ✓ хусусий корхонани қайта ташкил этиш ва тугатиш тўғрисида қарор қабул қилиш;
- ✓ хусусий корхонанинг солиқлар ва бошқа мажбурий тўловлар тўланганидан кейин қолган фойдасидан ўз ихтиёрига кўра фойдаланиш;
- ✓ хусусий корхонага тегишли мол-мулкни бошқа шахсга бериш, ижарага бериш, гаровга қўйиш, бошқа юридик шахсларнинг устав фондига ҳисса сифатида киритиш ёки ушбу мол-мулкни бошқача усулда тасарруф этиш.

Хусусий корхона мулкдори қонунчиликка мувофиқ бошқа ҳуқуқларга ҳам эга бўлиши мумкин.

[13] https://uz.wikipedia.org/wiki/Moliya_yili

Хусусий корхона мулкдори:

- ✓ устав фондини шакллантириши;
- ✓ ўзига қарашли корхонани якка бошқариши шарт.

Хусусий корхона мулкдори зиммасида қонунчиликка мувофиқ бошқа мажбуриятлар ҳам бўлиши мумкин.

Хусусий корхона мулкдори ўзи вақтинчалик бўлмаган тақдирда шу муддатда раҳбарлик вазифасини бажариб туришни бошқа жисмоний шахс зиммасига юклаш тўғрисида ёзма қарор қабул қилади.

Хусусий корхона мулкдори муваққат раҳбарнинг хусусий корхона мол-мулкини тасарруф этишга оид ҳуқуқини чеклаб қўйиши мумкин.

Вафот этганлиги, муомалага лаёқатсизлиги, муомала лаёқати чекланганлиги ёки бедарак йўқолган деб топилганлиги оқибатида мулкдорнинг хусусий корхона раҳбари вазифасини бажариши мумкин бўлмай қолган тақдирда хусусий корхонани бошқариш фуқаролик қонунчиликка ва хусусий корхонанинг уставига мувофиқ амалга оширилади.

Фермер хўжалигининг ишлаб чиқариш фаолияти нимадан иборат?

Фермер хўжалиги ўз уставида ва ер участкасини ижарага олиш шартномасида назарда тутилган ихтисослашувга мувофиқ фаолияти йўналишларини, ишлаб чиқариш тузилмаси ва ҳажмларини мустақил равишда белгилайди. Фермер хўжалиги қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришининг ҳар қандай тури билан, шунингдек қишлоқ хўжалиги маҳсулотини қайта ишлаш, сақлаш ва реализация қилиш, саноат ишлаб чиқариши, ишлар бажариш, хизматлар кўрсатиш ҳамда қонунчиликда тақиқланмаган бошқа фаолият турлари билан шуғулланишга ҳақли.

Хусусий корхонанинг иш берувчиси ва ходими ўртасидаги ўзаро муносабатлар

Хусусий корхона (иш берувчи) ва хусусий корхонанинг ходими ўртасидаги ўзаро муносабатлар меҳнат тўғрисидаги қонунчиликка мувофиқ меҳнат шартномаси (контракт) билан тартибга солинади.

Хусусий корхона ўз ходимларига меҳнат ҳақи, мукофотлар ва компенсациялар тўлашнинг шакллари, тизими ҳамда миқдорини қонунчиликка мувофиқ мустақил белгилайди.

Хусусий корхонада меҳнат шартномаси (контракт) бўйича ишлаётган шахсларнинг меҳнатига ҳақ тўлаш тарафларнинг келишувига кўра, бироқ қонунчиликда Меҳнатга ҳақ тўлаш ягона тариф сеткасининг[14] биринчи разряди бўйича белгиланганидан кам бўлмаган миқдорда белгиланади.

Хусусий корхона ўз ходимларига хавфсиз меҳнат шароитларини, ижтимоий ҳимоя чораларини таъминлаши шарт ва уларнинг ҳаёти ёки соғлиғига етказилган зарар учун қонунчиликда белгиланган тартибда жавобгар бўлади.

[14] https://lex.uz/docs/4514781#4515891

Хусусий корхона ўз ходимлари учун қонунчиликда белгиланганига нисбатан имтиёзлироқ меҳнат ва ижтимоий-иқтисодий шароитларни мустақил белгилашга ҳақли.

Хусусий корхонанинг мол-мулки национализация қилинмайди, қонунда назарда тутилган ҳоллар бундан мустасно.

НАЦИОНАЛИЗАЦИЯ НИМА ДЕГАНИ?

Национализация (миллийлаштириш) - саноат корхоналарига, банкларга, транспортга ёки хусусий шахсларга тегишли бўлган мол-мулкнинг давлат мулкига ўтиши. Миллийлаштириш бепул експроприация — мусодара қилиш, шунингдек тўлиқ ёки қисман сотиб олиш — реквизиция орқали амалга оширилиши мумкин[15].

Хусусий корхонанинг мол-мулки реквизиция қилинмайди, хусусий корхонанинг мулкдорига реквизиция қилинаётган мол-мулкнинг бозор қийматига муқобил компенсацияси тўланадиган табиий офатлар, авариялар, эпидемиялар, эпизоотиялар ва фавқулодда тусдаги бошқа ҳолатлар бундан мустасно.

РЕКВИЗИЦИЯ НИМА ДЕГАНИ?

Реквизиция (лот. reguisitio — талаб қилиб олиш, олиб қўйиш) — мулкни ҳақ тўлаб мажбурий равишда давлат эгалигига тўла ёки вақтинча фойдаланиш учун олиш[16].

Хусусий корхона қонунчиликка мувофиқ ҳар қандай фаолият турларини амалга оширади.

Хусусий корхона битимлар тузишда эркиндир.

Хусусий корхоналарга тадбиркорлик субъектлари учун қонунчиликда назарда тутилган имтиёзлар, преференциялар ва кафолатлар татбиқ этилади.

ХУСУСИЙ КОРХОНАЛАРНИНГ БИРЛАШИШИ

Хусусий корхоналар ўз ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш мақсадида қонунга мувофиқ ассоциацияларга (уюшмаларга) ва бошқа бирлашмаларга бирлашишлари мумкин.

ХУСУСИЙ КОРХОНАНИ БОШҚА ШАХСГА ЎТКАЗИШ

Хусусий корхона мулкдори хусусий корхонани мол-мулк мажмуаси сифатида сотишга, ҳадя қилишга, васият қилиб қолдиришга ёки уни ўзгача усулда бошқа шахсга ўтказишга ҳақли.

Хусусий корхона бошқа шахсга берилган тақдирда ўзининг фирма номидан, товар белгиларидан, хизмат кўрсатиш белгиларидан ҳамда мазкур хусусий корхона ва унинг маҳсулотини, у бажараётган ишларни ёки кўрсатаётган хизматларни индивидуаллаштирувчи ўзга воситалардан фойдаланиш ҳуқуқлари, агар қонунчиликда ёхуд шартномада бошқача қоида назарда тутилган бўлмаса, янги мулкдорга ўтади.

[15] https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9D%D0%B0%D1%86%D0%B8%D0%BE%D0%BD%D0%B0%D0%BB%D0%B8%D0%B7%D0%B0%D1%86%D0%B8%D1%8F

[16] https://qomus.info/encyclopedia/cat-r/rekvizitsiya-uz/

ХУСУСИЙ КОРХОНАНИ ҚАЙТА ТАШКИЛ ЭТИШ ВА ТУГАТИШ

Хусусий корхона унинг мулкдорининг ёки қонунчиликда белгиланган тартибда суднинг қарорига кўра қайта ташкил этилиши мумкин.

Хусусий корхона унинг мулкдорининг ёки суднинг ёхуд рўйхатдан ўтказувчи органнинг қарорига кўра тугатилиши мумкин.

НИЗОЛАРНИ ҲАЛ ЭТИШ

Хусусий корхоналарнинг тузилиши, фаолияти, қайта ташкил этилиши ва тугатилиши соҳасидаги низолар қонунчиликда белгиланган тартибда ҳал этилади.

Хусусий корхона тўғрисидаги қонунчиликни бузганлик учун жавобгарлик

Хусусий корхона тўғрисидаги қонунчиликни бузганликда айбдор шахслар белгиланган тартибда жавобгар бўладилар.

Хусусий корхонани очиш тартиби қандай?

Хусусий корхона − мулкдор ягона жисмоний шахс томонидан тузилган ва бошқариладиган тижоратчи ташкилот. Хусусий корхона мулкдори корхонанинг мол-мулки етарли бўлмаган тақдирда хусусий корхонанинг мажбуриятлари бўйича ўзига қарашли мол-мулк билан қонун ҳужжатларига мувофиқ субсидиар жавобгар бўлади. Яъни, кредиторларга қарзни узиш учун корхона балансида етарли маблағ бўлмаганда, ундирув корхона муассиси (эгаси)нинг мол-мулкига қаратилади. Шу жиҳати билан ҳусусий корхона масъулияти чекланган жамиятдан фарқ қилади. (Масъулияти чекланган жамиятда ундирув фақат жамият мол-мулкига қаратилади, яъни жамият муассиси мол-мулкига ундирув қаратилмайди).

Рўйхатдан ўтказиш тартиби

Рўйхатдан ўтиш усуллари:

- мустақил равишда махсус сайт орқали;
- Давлат хизматлари марказларига ташриф буюриш орқали.

Керакли ҳужжатлар:

- ариза;
- устав;
- электрон рақамли имзо.

Рўйхатдан ўтиш вақти:

30 дақиқа.

Тўланадиган давлат божи:

- БҲМнинг 90 % - мустақил равишда сайт орқали рўйхатдан ўтиш;
- БҲМнинг 100% - Давлат хизматлари марказларига бевосита ташриф буюриш орқали рўйхатдан ўтилганда.

Талаблар:

хусусий корхонанинг устав фонди шакллантирилаётганда мулкдор ўз оила аъзоларининг умумий (улушли ёки биргаликдаги) мулки ҳисобланган мол-мулкни

корхонага бераётган бўлса, ушбу мол-мулкнинг барча мулкдорларидан нотариал тасдиқланган розилик олиш талаб этилади.

Хусусий корхонанинг таъсис ҳужжати:

устав.

Бошқарув:

хусусий корхона мулкдори корхонани раҳбар сифатида якка бошқаради.

Хусусий корхонанинг устунлиги:

хусусий корхона қонунчиликда таъқиқланмаган ҳар қандай фаолият билан шуғуллана олади.

Хусусий корхонанинг камчилиги:

- банкротликка учраганда барча қарзларни ва бошқа тўловларни ўзи тўлиқ миқдорда қоплайди;

- корхона эгаси унинг фаолиятини шахсан бошқариши шарт. У бошқарув ваколатларини ёлланган шахсга тақдим эта олмайди.

Ўзига хос хусусияти:

хусусий корхона эгаси корхонани тўлиғича мулк комплекси сифатида сотиши ёки ҳадя этиши, ёхуд уни тугатиб, мол-мулкни алоҳида сотиши мумкин[17].

Ҳозирги кунда хусусий корхона ташкилий-ҳуқуқий шаклидаги юридик шахсларнинг энг кўп тарқалган тури фермер хўжаликларидир. Фермер хўжаликларини мазкур ташкилий-ҳуқуқий шаклда тузилиши дастлаб Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Қишлоқ хўжалигида ислоҳотларни чуқурлаштиришнинг энг муҳим йўналишлари тўғрисида”ги 2003-йил 24-мартдаги ПФ-3226-сонли Фармони[18]да белгиланган эди. Кейинчалик бу 2004-йил 26-августьда янги таҳрирда қабул қилинган “Фермер хўжаликлари тўғрисида”ги Қонун[19]да мустаҳкамланди.

Фермер хўжалиги ижарага берилган ер участкаларидан фойдаланган ҳолда қишлоқ хўжалиги маҳсулотини етиштириш ҳамда қонунчиликда тақиқланмаган бошқа фаолият турлари билан шуғулланувчи тадбиркорлик субъектидир.

Фермер хўжалиги шу хўжалик бошлиғи томонидан ташкил этилади, у фермер хўжалигида тегишлича алоҳида мол-мулк ажратиб беради ва уставини тасдиқлайди. Фермер хўжалиги ташкил этиш учун унинг бошлиғи белгиланган тартибда ер участкаси олиши керак.

Қайси ҳудудда хусусий корхоналар сони кўп деб ўйлайсиз?

2022 йил 1 декабрь ҳолатига республикада фаолият кўрсатаётган тадбиркорлик субъектлари (фермер ва деҳқон хўжаликларисиз) сони 588 823 та бўлиб, шундан хусусий корхоналар сони 92 839 тани ташкил қилди.

Давлат статистика қўмитаси маълумотларига кўра, ҳудудлар кесимида хусусий корхоналар сони энг кўп Тошкент шаҳрида қайд этилди – 12 081 та.

[17] https://civil.uz/xususiy-korxona-ochish-tartibi-qanday/
[18] https://lex.uz/docs/170168
[19] https://lex.uz/docs/275195

Ушбу кўрсаткич қолган ҳудудлар кесимида қуйидагича кўриниш олди:

- Фарғона вилояти – 11 741 та;
- Қашқадарё вилояти – 10 682 та;
- Самарқанд вилояти – 8 548 та;
- Сурхондарё вилояти – 7 354 та.

Хусусий корхоналар иқтисодий фаолият турлари бўйича сони:

- савдода – 38 402 та;
- саноатда – 15 952 та;
- яшаш ва овқатланиш бўйича хизматларда – 8 017 та;
- қурилишда – 6 885 та;
- қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалигида – 6 423 та[20].

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. https://lex.uz/docs/53877;
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Moliya_yili;
3. https://lex.uz/docs/4514781#4515891;
4. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9D%D0%B0%D1%86%D0%B8%D0%BE%D0%BD%D0%B0%D0%BB%D0%B8%D0%B7%D0%B0%D1%86%D0%B8%D1%8F;
5. https://qomus.info/encyclopedia/cat-r/rekvizitsiya-uz/;
6. https://civil.uz/xususiy-korxona-ochish-tartibi-qanday/;
7. https://lex.uz/docs/170168;
8. https://lex.uz/docs/275195;
9. https://kun.uz/news/2022/12/12/xususiy-korxonalar-soni-eng-kop-hudud-malum-qilindi.

[20] https://kun.uz/news/2022/12/12/xususiy-korxonalar-soni-eng-kop-hudud-malum-qilindi

TURKISTONDA 1937-1938-YILLARDA QATAG‘ON SIYOSATI VA UNING OQIBATLARI

Shahrisabz Pedagogika
Instituti magistranti
Raxmatova Muhayyo

Annotatsiya: *Maqola Turkistonda 1937-1938-yillar mustabid, beshafqat tuzum davrida qatag‘on siyosati va uning oqibatlaritadqiq qilingan. Muallifning fikricha mazkur davrda o’zligini, millat qadr-qimmatini teran anglagan, ijtimoiy-siyosiy ongi yuksak, xalqni uyg’otishga, xalqni boshqarishga qodir bo’lgan, ma’rifat va ma’naviyat yo’lida fidoyilik ko’rsatgan barcha aql zakovat sohiblarining qancha-qanchalari jismonan yo’q qilinganligi milliy tariximizni yanada chuqurroq o‘rganishga da’vat etadi.*

Аннотация: *В статье рассматривается политика репрессий и ее последствия в Туркестане в 1937-1938 гг. в период авторитарного и беспощадного режима. По мнению автора, в этот период все интеллигенты, глубоко осознававшие свою идентичность и ценность нации, обладавшие высоким общественно-политическим сознанием, способные пробудить народ и повести за собой народ, проявившие самоотверженность на пути просвещения и духовности, являются интеллигенцией.Сколько ее обладателей было уничтожено физически, требует более глубокого изучения нашей национальной истории.*

Abstract: *The article examines the policy of repression and its consequences in Turkestan in 1937-1938 during the authoritarian and ruthless regime. According to the author, in this period, all intellectuals who deeply understood their identity and the value of the nation, who had a high socio-political consciousness, who were able to awaken the people and lead the people, who showed selflessness in the way of enlightenment and spirituality, are intellectuals. How many of its owners were physically destroyed calls for a deeper study of our national history.*

Kalit so‘zlar: *Turkiston, qatag‘on siyosati, ma’rifat, ma’naviyat, o’zbek milliy kadrlari, o’n sakkizlar guruhi, inog’omovchilik, Qosimovchilik.*

Ключевые слова: *Туркестан, политика репрессий, просвещение, духовность, узбекские национальные кадры, группа восемнадцати, иногамовщина, касимовщина.*

Key words: *Turkestan, policy of repression, enlightenment, spirituality, Uzbek national cadres, group of eighteen, Inoghamovism, Kasimovism.*

O’tgan asrning 20-yillar oxirlarida Stalin tomonidan yangi nazariy qarash sifatida ilgari surilgan “Sotsializm mustakamlanib borgan sari sinfiy dushman qarshiligi ham shunchalik kuchayib boradi” degan g’oya qonuniy xatti-harakatlarning avj olishiga olib keldi. Buning yorqin ifodasini sovet mafkurachilari tomonidan to’qib chiqarilgan va o’zbek milliy kadrlari sha’nini bulg’ashga qaratilgan ‘o’n sakkizlar guruhi”, “inog’omovchilik”, “Qosimovchilik” degan siyosiy ishlar misolida ko’rishimiz mumkin. Mazkur guruhlar

faoliyatiga oid tarixiy hujjatlarni ko’zdan kechirib, tahlil etar ekanmiz, bu insonlar xatti-harakatida, faoliyatida ularni ayblashga hech bir asosli ashyo-dalillar bo’lmaganligiga to’la amin bo’lamiz. Ularning yagona “gunohi” – bu o’z millati dardi, tashvishi va manfaatini ko’zlab, ayrim muhim muammolarni ko’targanligi va ularni hal etishga yuqorining e’tiborini jalb etganligi, xolos. Respublikaning taniqli arboblaridan tashkil topgan bu guruh (I. Xidiraliyev, M.Saidjanov, U.Ashurov, R.Rahimboboyev, R.Rafiqov va boshalar)ga tirkalgan asossiz aybga, uyushtirilgan bo’htonga ko’ra, go’yo uning a’zolari hukmron Markazning ulug’ davlatchilik va shovinistik siyosatiga, milliy kadrlarga nisbatan bepisandlik, loqaydlik yo’liga qarshi chiqib, adolat va haqqoniylik tamoyillarini himoya qilib chiqqandilar. “O’n sakkizlar guruhi” bolsheviklar tomonidan boy-quloq deb nomlangan o’ziga to’q xo’jaliklarning yer-suv islohoti jarayonida belgilangan me’yordan ortiqcha mol-mulki tortib olinishiga qarshi chiqdi. Shuningdek sovetlarga saylovlar vaqtida, “quloq” deb tadbirkor, to’q xo’jaliklarning saylov huquqidan mahrum qilinishi bilan kelisha olmadi. Ular tijorat, hunarmandchilikni yo’qotishga qaratilgan og’ir soliqlarni kamaytirishni talab qildilar, o’zbek ayollarini ozodlikka chiqarishda shoshma-shosharlikka yo’l qo’ymaslik, qon to’kilishiga olib kelmaslik zarurligini ko’rsatdilar. Ularning bu talab va istaklari O’zbekistondagi markaz vakillariga yoqmadi. Shu bois rasmiy partiya organlari tomonidan mazkur guruh keskin qoralandi va uning a’zolari o’z lavozimlaridan olinib, turli partiyaviy jazolarga giriftor etildilar. “Inog’omovchilik” guruhi to’g’risida gap borganda ham unga qo’yilgan barcha ayblarning to’liq tarzda to’qib chiqarilganligi ayon bo’ladi. Ma’lumki Rahim Inog’omov O’z KP(b) MK Matbuot bo’limi mudiri va O’zSSR Maorif xalq komissari vazifasida faoliyat yuritib kelgan. Shuningdek, R. Inog’omov o’zining bir qator nutqlarida O’zbekiston Kompartiyasining mustaqil faoliyat yurita olmayotganligiga, Markazning nazoratchi organlarining o’lka hayotidagi zo’ravonligiga ham alohida e’tibor qaratgan. Respublikaning bir qator mahalliy partiya, sovet organlari mas’ul hodimlaridan M. Mavlonbekov, I. Isamuhamedov, M. Aliyev singari hammaslaklar R.Inog’omov qarashlarini qo’llab-quvvatlab chiqqandilar. Albatta, bunday muholifatchi chiqishlar hukmron partiya mutasaddilarining qahriga uchramasdan, jazolanmasdan qolmasdi. Shu bois 1926-1931-yillarda bu guruh faoliyati partiya tashkilotlarida bir necha bor muhokama qilinib, og’machi guruhbozlikda ayblandi. R.Inog’omov 1926-yil oxirida “O’zbekiston ziyolilari” risolasini matbuotda e’lon qildi. Unda “Oktabrdagi o’zgarish o’zbek xalqi uchun kutilmagan voqea bo’ldi va o’zbek mehnatkashlari tayyor emas edi”, – degan fikrni ilgari surdi. Shuningdek R. Inog’omov o’zining bir-qator nutqlarida O’zbekiston kompartiyasini Rossiyaning mustamlakachilik siyosatiga qarshi kuzatilayotganlikda, markazning O’rta Osiyo byurosi, O’rta Osiyo Iqtisodiy kengashi kabi “nazoratchi” organlarini zo’ravonlikda aybladi. 1926-yil 12-dekabrda bo’lgan O’zKP(b) MK Ijroiya byurosi “R.Inog’omov faoliyati” haqidagi masalasini ko’rib chiqib “inog’omovchilik”ni O’zbekiston Kompartiyasidagi “mayda burjuachilik, millatchilikka tomon og’ish[21]” deb baholadi va respublika partiya tashkilotlarida keng muhokama qilib “inog’omovchilik”ka “baho berish”ni topshirdi.

[21] R. Shamsutdinov., SH Karimov. Vatan tarixi. (O’zbekiston sovet mustamlakachilik davrida). Uchinchi kitob. “Sharq” Toshkent-2010.

Shunga ko’ra barcha partiya tashkilotlari majlislarida “inog’omovchi”lik qoralandi. R.Inog’omov va uning tarafdorlari vazifalaridan olinib, nomlari qoralandi, o’zlari esa tavba tazarru qilishga majbur etildilar. “Qosimovchilik” guruhi ham 1929-1930 yillarda sovet hukmron rejimi tomonidan milliy kadrlarni, ziyolilarni qatag’on qilish, jazolash maqsadida atayin uyushtirilgan navbatdagi uydirma bo’lgan. O’zSSR Oliy Sudining raisi lavozimida ishlab kelgan Sa’dulla Qosimov va uning yaqin maslakdoshlari deb topilgan N.Alimov, B.Sharipov kabi 7 nafar kishi 1929-yilning ikkinchi yarmida qamoqqa olinadilar. Ularning atayin to’qib chiqarilgan “ayblov ishi”ga siyosiy tus beriladi. Bunga ko’ra, ular respublikadagi millatchi tashkilotlar bilan aloqa bog’laganlikda qoralandilar. Bu guruhning 4 nafar a’zosi mana shu asossiz ayblar bilan ayblanib, otib tashlandi, qolgan 3 nafar kishi esa ko’p yillik qamoq jazosiga hukm qilindi. Eng so’nggi ma’lumotlar, tarixiy hujjatlarni har tomonlama o’rganish, tahlil qilish, surishtirishlar bunday tashkilotlarning respublika hududida butunlay bo’lmaganligini tasdiqlamoqda. Demak, bunday aksilinqilobiy tashkilotlar qatag’onlik tuzumi buyurtmasi asosida Markaz jallodlari va jazo organlari tomonidan atayin to’qib chiqarilgan. Buning orasida ming-minglab begunoh, aybsiz insonlar shafqatsiz jazolangan, aziz umrlari hazon bo’lgan. Mamlakatda ma’muriy buyruqbozlik tizimi qaror topib mustahkamlanib borishi bilan bir qatorda respublikaning butun ijtimoiy-siyosiy hayoti muttasil siyosatlashtirilib va baynalminallashtirilib borildi va hukmron partiya tomonidan “sotsialistik qurilish” va mustabid tuzumni mustahkamlash vazifalariga bo’ysundirildi. Ijtimoiy-siyosiy hayot shu qadar shiddat bilan o’zgarib bordiki, mavjud har bir masalaga siyosiy nuqtai nazardan qaraldi. Buning natijasida milliylik o’rniga amalda baynalmilallik ustivor qilib qo’yildi, milliy qadriyatlar an’ana, urf-odatlar oyoqosti qilindi. Kommunistik partiya o’rnatgan ana shu mustabid tuzumni, u amalga oshirgan, “sotsialistik tajriba”ni mahalliy xalq, avvalo uning ilg’or vakillari zo’r norozilik bilan kutib oldilar, ular xalqning milliy madaniyatini, an’analari va urf-odatlarini, ko’p asrlik ma’naviy merosini saqlab qolishga intildilar, Markazning zo’ravonligiga qarshi ochiq tanqidiy fikrlar bildirdilar. Kommunistik partiya hukmronligi davridagi siyosiy qatag’onlarning bosqichlari haqida gapirganda, uni uch davrga bo’lish mumkin.

1. O’tgan asrning 20-30 yillar qatag’onlari. Bu davrda juda ko’plab davlat va partiya rahbarlari, ziyolilar, o’qituvchilar, jadidlar qatag’on qilindi.

2. XX asrning 50-yillar qatag’onlari. Bu davrda shoirlar, yozuvchilar, ularning asarlari qatag’on qilindi.

3. XX asrning 80-yillar qatag’onlari. “Paxta ishi”, “O’zbek ishi[22]” nomi bilan Markaz tomonidan to’qib chiqarilgan buhtonlar natijasida yuzlab respublika, viloyat, tuman rahbarlari, oddiy paxtakorlar qo’shib yozishda, ko’zbo’yamachilikda, poraho’rlikda ayblanib, turli hil muddatlarga ozodlikdan mahrum etildi, ularga ma’naviy va moddiy zarar yetkazildi. Milliy madaniyatni qayta tiklash xalq turmushini yahshilash muammolariga diqqatni jalb etishga uringan rahbar hodimlar va ijodiy ziyolilar ustidan 20-yillar davomida hufiyona zo’rlik va repressiyalar siyosati o’tkazildi. Shu munosabat bilan Turar Risqulov,

[22] Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида -Т.: Шарқ. 2000.

Fayzulla Xo’jayev, Abdulla Rahimboyev, Nazir To’raqulov, Inomjon Xidiraliyev, Qayg’usiz Otaboyev, Akmal Ikromov, Sultonbek Xo’janov singari mashhur arboblar millatchilikda ayblandilar. Turar Risqulov (1894-1938) 1919-yil mart oyida tuzilgan musulmon kommunistlari byurosi raisi, Turkiston MIK raisi, keyinchalik Turkiston XKS raisi bo’lib ishlab kelgan. T.Risqulov 1919-yilda Turkistonda bolsheviklar hokimiyatini saqlab qolish uchun bu yerga kelgan Sh.Eliava boshchiligidagi Turkkomissiya faoliyatiga qarshi chiqdi. Hatto Turkiston XKS raisi bo’lib ishlagan Q.Otaboyev katta yig’inda kelganida yevropaliklar mahalliy sharoitni yerli xalq tilini bilmaydi, shuning uchun ular o’lkada foydali ish qilmayapti deb ochiq gapirgan edi. T.Risqulov Turkiston XKS raisi qilib tayinlanayotganda yerli xalqlar qobiliyatli kadrlarini ishga faol jalb qilish shartini qo’ydi. Turkkomissiya faoliyatidan norozi bo’lgan yerli xalq vakillari uni tugatishni, Turkfront RVS (inqilobiy harbiy kengash) huquqlarini cheklash, qizil armiya qismlarini Turkistondan chiqarish yoki qurolsizlantirishni qat’iy talab qildi. 1920-yillarning boshlaridayoq Turkiston ASSRni bo’lib tashlash va milliy til belgisiga qarab muxtor (avtonom) respublikalar tuzish masalasidagi Turkkomissiya raisi X.Rudzutak tashabbusi bilan qabul qilingan tezislarga ham T.Risqulov qarshi chiqadi. U turkiyzabon xalqlarni alohida qismlarga bo’lib tashlab bo’lmaydi degan g’oyani ilgari surdi. Markaz bu fikrni inkor etib, uni panturkizm, panislomizm, burjua millatchiligida aybladi. 1938 yilda u qatag’on qurboni bo’ldi. Akmal Ikromov (1898-1938) davlat va siyosiy arboblardan biri edi. Dastlab u o’lkada tashkil topgan “izchillar”, “Chig’atoy gurungi[23]”ning a’zosi bo’lib sovet tuzumiga qarshi maqola va she’rlar yozgan. U she’rlarida Elhon taxallusini qo’lladi. 1921-yilda Turkiston KP MK kotibi lavozimiga saylangan A.Ikromov 1922-1924 yillarda Moskvada o’qidi va kommunistik g’oyalar bilan qurollantirildi. 1925-yil fevralda A.Ikromov O’zKP MKning mas’ul kotibi, 1929-yilda MKning birinchi kotibi lavozimlariga tayinlanadi. U sovet hokimiyatining siyosatini izchillik bilan amalga oshirdi. O’zbekistonda yer-suv islohoti, majburiy jamoalashtirish, “quloqlarni sinf sifatida tugatish” kabi tadbirlarda faol ishtirok etdi va ularga rahbarlik qildi. O’sha davrda milliy ziyolilarni qatag’on bo’lishiga maydon hozirlagan “Siyosiy ko’rlarmiz” degan maqolasini e’lon qildi. A.Ikromov “inog’omovchilik”ka qarshi bir-necha bor chiqishlar qilib, ularni “milliy og’machilik” va “millatchilikda” ayblaydi. 1927-yil oktabrda Samarqandda bo’lgan O’zSSR madaniyat xodimlarining II qurultoyida A.Ikromov “Mafkuraviy jabhadagi kurash va madaniyat xodimlarining vazifalari” nomli ma’ruzasidan so’ng, 1929-yilda Munavvar Qori boshliq taraqqiyparvarlar qatag’onga uchradilar. Uning rahnamoligida millat ravnaqi va istiqloli yo’lida faoliyat yuritgan, xalqqa ziyo taratib kelgan “Milliy Ittihod” va “Milliy istiqboli” tashkilotlarining 87 nafar a’zosi ustidan sud uyushtirildi va ularning 15 nafari 1931-yilda Moskvada otib tashlandi, qolganlari uzoq muddatga qamoq jazosiga tortildi[24]. Xullas, bolsheviklar rejimiga sidqidildan xizmat qilgan A.Ikromovni ham mustabid tuzum qatag’onlari ayab o’tirmadi. U 1937-yil sentyabrda Toshkentda hibsga olindi va 1938 yil mart oyida Moskvada otib tashlandi. Inomjon Xidiraliyev (1891-1928) Farg’ona viloyati Namangan uyezdining Pop volostida dehqon

[23] Tursunov X, Beknazarov N. O`zbekiston SSR tarixi. 1999.
[24] ”Xalq so`zi”, 1991-yil, 19-aprel.

oilasida tug’ilgan. U 1922-1924 yillarda Turkiston ASSR MIK va XKKning RSFSRdagi Muxtor vakili bo’lib ishladi. I.Xidiraliyev 1924-yil aprel-avgustda Londonda bo’lgan Sovet-Angliya muzokaralarida ishtirok etdi. U F.Xo’jayev, T.Risqulov, Q.Otaboyevlar bilan hamkorlikda bolsheviklarning shovinistik siyosatini izchillik bilan fosh etdi. Turkistondagi istiqlolchilik harakatiga hayrihoh edi. U “o‘n sakkizlar guruhi”ning tashkilotchilardan biri bo’lib, bolsheviklar tomonidan o’tkazilayotgan “quloqlarni sinf sifatida tugatish” siyosatiga qarshi chiqqan edi. Paxtakor dehqonlarni himoyachisi edi. Mustabid tuzumning ruhiy tazyiqiga uchragan I.Xidiraliyev 1928-yil 31-dekabrda Moskvadagi “Nasional[25]” mehmonxonasida o’z joniga qasd qildi. Ularning faoliyati GPU (davlat siyosiy boshqarmasi) hamda NKVD (ichki ishlar xalq komissarligi) tomonidan doimiy ravishda kuzatib borilgan. 30-yillarda o’zbek adabiyotining Fitrat va Cho’lpon kabi “keksa” avlodi vakillarining erkin ijod etishiga yo’l qo’yilmadi. Fitrat 1938-yil 4-oktyabrda “sovet hokimiyatiga qarshi aksil-inqilobiy, pantyurkisti ishlar olib borganlikda” ayblanib, otib tashlandi. Fitrat Buxoroda F.Xo’jayev bilan birga adolatli hukumat tuzish niyatida o’z dasturini ishlab chiqdi. Bu dastur 10 dan ortiq banddan iborat bo’lib, unda davlatning tashkiliy tizimi, idora qilishda armiyaning roli, milliy pul, xususiy mulk egaligi, vakflar, din erkinligiga alohida e’tibor berilgan edi. U rus inqilobiga totalitar tuzumga qarshi edi. Fitratning madaniy merosidagi yagona buyuk fazilat: milliy mustakillik uchun kurash edi. U o’zining “Temur oldida” asarida “Qaysi bir yurt nobob shaxs qo’liga tushib qolsa, xalqi o’zaro ahil va totuvlikka erisha olmasa, boshqalarga yem bo’lishi muqarrar”, – deb yozadi. Fitrat o’zining “Chin sevish” va “Hind ihtilochilari” asarlari milliy mustaqillik uchun kurash g’oyasini ifoda etgan. Bu asarlarida talangan, kamsitilgan, bo’lingan Turon elini birlashtirish uchun Ollohdan Amir Temur va Abdullaxonni tiriltirishni iltijo qildi. U konstitusion monarxiya tizimidagi davlatni tuzish g’oyalarini ilgari surgan. O’zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy 20-yillarda “O’tgan kunlar”dan keyin “Mehrobdan chayon” asarini yaratib, o’zbek romanchiligini jahon madaniyatiga olib chiqdi. Biroq sovet rejimi uning “O’tgan kunlar” asari kitobxonlarni sovet voqeligidan uzoqlashtiradi va unda millatchilik qarashlari ochiq aks etgan deb, tanqid ostiga oladi va bu uning 1937-yilda qamoqqa olinishi uchun asos bo’lib xizmat qiladi. U 1938-yil 4-oktyabrda otiladi. Taniqli o’zbek shoiri, dramaturg va tarjimon Usmon Nosir o’zining “Yurak”, “Mehrim”, “Norbo’ta[26]” kabi she’riy dostonlari bilan shuhrat qozongan. U Dobrolyubov, Lermontov asarlarini o’zbek tiliga tarjima qilgan. 1936-yilning oxiridan 1940-yilgacha bo’lgan davrda respublika bo’yicha yozuvchilar, jurnalistlar, davlat va jamoat arboblari 5758 nafar kishi qamoqqa olingan. Ulardan 4811 nafar kishi otib tashlangan. O’ylab chiqarilgan soxta ayblovlar bo’yicha O’zbekistonda 1937-1939 yillar bo’yicha hammasi bo’lib 41 ming nafardan ziyod kishi qamoqqa olingan, ulardan 37 ming nafardan ortig’i jazolangan, 6920 nafar kishi[27] otib tashlangan. 20-30 yillardagi mustabid tuzumning qatag’onlik siyosati jiddiy va fojiali ahvolga olib keldi. Milliy ziyolilarning

[25] Uzoqov X. O`zbekistonda mustaqillik uchun kurash tarixi (1900-1940 yillar). Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferat. T. 1996. 39-40-betlar.
[26] Vali Qayumxon. Qiyratilgan qismatlar. “O‘zbekiston adabiyoti va san'ati”, 1992-yil 24-aprel.
[27] Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида -Т.: Шарқ. 2000.

jismonan yo’q qilinishi oqibatida milliy madaniyat to’la to’kis rivojlana olmadi. 30-yillarning boshida dindor va e’tiqodli kishilarga ham zo’ravonlik siyosati amalga oshirildi. Minglab masjidlar yo’q qilinib xudosizlar uyiga, ateizm muzeylariga aylantirildi. Ko’plab ko’hna masjidlar qarovsiz qoldirildi, yangilari esa umuman qurilmadi. Diniy marosimlar, qadimiy urf-odatlar ta’qiqlandi. Diniy ulamolarning asosiy qismi qamoq lagerlariga jo’natildi. 1925-yilda O’zbekistonda 97 ta vaqf maktablari va 1500 ortiq eski maktablar yashirin holda ish olib borar edi[28]. Ular ham 1928-yilga kelib o’z faoliyatini amalda tugatdilar. Bu davrda “Sotsializmda dinga o’rin yo’q, unga din begona” degan fanatik qarash, qoida ustun bo’lib qoldi. Ikkinchi jahon urushidan so’ng mamlakatning ijtimoiy-siyosiy tizimida partiyaning yakka hukmronligi kuchayib bordi. Respublikaning partiya organlari Markazning yo’l-yo’riqlariga tayanib, dunyoqarashi va ijodi partiya mafkurasiga to’g’ri kelmaydigan ijodiy ziyolilar vakillariga hujum qila boshladilar. Go’yoki ularning asarlarida millatchilik g’oyalari «mavjudligi», o’rta asr tarizi, o’sha davrda o’tgan tarixiy shaxslarning roli ideallashtirilgan degan ayblar qo’yildi. Oybek, Abdulla Qahhor, Mamarasul Boboyev, Mirtemir, Shayhzoda kabi o’zbek yozuvchilari badnom qilindi. Shu bilan birga “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Tohir va Zuhra”, “Alpomish”, “Gulandom[29]” va boshqa afsonaviy folklor syujetlariga asoslangan opera, balet va musiqali drama spektakllari ijodkorlari ham “zararli” g’oyalarni targ’ib qilishda ayblandilar. O’zbekiston gumanitar va ijtimoiy fanlarining ko’pgina arboblari ham qoralandi. O’z KP(b) MK byurosi 1950-yil 1-sentyabrda “O’zbekiston SSR FAning ishi to’g’risida[30]”gi masala ko’rib chiqib, bu masala yuzasidan qabul qilgan qarorida Respublika FAning gumanitar fanlar bo’limi va uning institutlari “o’z ishlarini VKP(b) MKning masalalariga doir qarorlariga muvofiq ravishda qayta ko’rmadilar”, bu institutlarga siyosiy ishonchga sazovor bo’lmagan va burjua obyektivizmi hamda kosmopolitizm g’oyasini tashib yuradigan kishilar joylashib olganlar deb ko’rsatib o’tdi. O’zbekiston yozuvchilari, shoirlari va olimlarini badnom qilish yuzasidan 1952-yil 21-22 fevralda bo’lib o’tgan O’z KP(b) MKning X plenumi keng suratda siyosiy kompaniyaning cho’qqisi bo’ldi. Unda O’z KP(b) MKning birinchi kotibi A.Niyozovning “Respublikada mafkura ishining ahvoli va uni yaxshilash choralari to’g’risida”gi ma’ruzasi tinglandi. Unda aytilishicha, “O’zbekistonda adabiyotchi xodimlar orasida sovetlarga qarshi millatchilik kayfiyatidagi bir guruh shaxslar bo’lgan. Bu guruh qatnashchilari O’zbekistonni sovet ittifoqidan zo’rlik bilan ajratib olmoqchi bo’lgan”. Ma’ruzada Turob To’la “Qo’pol millatchilik xatolari”ga yo’l qo’yganlikda, Temir Fattoh – “Milliy mahdudlik”da, M.Oybek – “Jiddiy mafkuraviy aynish”da, M.Shayxzoda – “o’tmishni ideallashtirishda, tarixiy shaxslarni noto’g’ri tasvirlash”da, ularning hammalari birgalikda “Burjua–millatchilik qarashlarining namoyon bo’lishi[31]”da ayblandi. 1951-yilda M.Shayxzoda, Shukrullo Yusupov, G’ulom Aliyev va boshqa bir qator ijodkorlar “Antisovet millatchilik faoliyati”da

[28] O`z MA, 58-fond, 1-ro‘yxat, 108-ish.
[29] R.Shamsutdinov, Sh.Karimov. Vatan tarixi. (O’zbekiston sovet mustamlakachilik davrida). Uchinchi kitob. “Sharq” Toshkent-2010.
[30] 1937-1938-yillardagi "Katta qirg’in” tarixining muhim sanalari” (ma’lumotnoma). O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti J. Toshkent – 2013.
[31] H.O‘rmonovning “Millat fidoyisining qatag‘on qilinishi”. Journal of Advanced Research and Stability. 2022.

ayblanib qamoqqa olindi va 25 yillik qamoq jazosiga hukm ostiga olindi. Shu yillarda faylasuf V.Zohidov, iktisodchi O.Aminovlar panturkizmni tashviqot qilishda va burjua millatchilikda ayblanib, ta’qib qilindi. Ana shu mazmunda qatag’on qilinganlarning soni 60 nafardan ortiq edi. 1952-yil 22-avgustdagi O’z KP(b) MKning byurosi qarori bilan V.Zohidov “Qo’pol siyosiy va millatchilikdan iborat xatolarga yo’l qo’yilgani uchun” partiyadan o’chirildi va SAGU (hozirgi O’zbekiston Milliy universiteti) o’qituvchisi va O’zbekiston FA Sharqshunoslik universitetining katta ilmiy xodimi lavozimidan bo’shatildi. 40-yillar oxiri 50-yillar boshlari Stalin davridagi ommaviy qatag’onlar natijasida sobiq SSSR bo’yicha 3778234 nafar kishi hibsga olindi, ulardan 786098 nafar kishi otib tashlandi[32]. 1937-1953 yillar qatag’onligi davrida O’zbekistonda NKVD “uchligi” tomonidan yuz ming kishi qamoqqa olindi, ulardan o’n besh ming nafari otib tashlandi. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, O’zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov Toshkentdagi “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasining ochilishiga bag’ishlangan marosimda so’zlagan nutqida “Zulm va zo’ravonlikka qurilgan mustabid, beshafqat tuzum davrida o’zligini, millat qadr-qimmatini teran anglagan, ijtimoiy-siyosiy ongi yuksak, xalqni uyg’otishga, xalqni boshqarishga qodir bo’lgan, ma’rifat va ma’naviyat yo’lida fidoyilik ko’rsatgan barcha aql zakovat sohiblarining” qancha-qanchalari jismonan yo’q qilinganligi milliy tariximizni yanada chuqurroq o‘rganishga da’vat etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. R. Shamsutdinov., SH Karimov. Vatan tarixi. (O’zbekiston sovet mustamlakachilik davrida). Uchinchi kitob. “Sharq” Toshkent-2010.

2. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида -Т.: Шарқ. 2000.

3. Tursunov X, Beknazarov N. O`zbekiston SSR tarixi. 1999.

4. Vali Qayumxon. Qiyratilgan qismatlar. “O‘zbekiston adabiyoti va san'ati”, 1992-yil 24-aprel.

5. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида -Т.: Шарқ. 2000.

6. O`z MA, 58-fond, 1-ro‘yxat, 108-ish.

7. R.Shamsutdinov, Sh.Karimov. Vatan tarixi. (O’zbekiston sovet mustamlakachilik davrida). Uchinchi kitob. “Sharq” Toshkent-2010.

8. 1937-1938-yillardagi "Katta qirg’in” tarixining muhim sanalari” (ma’lumotnoma). O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti J. Toshkent – 2013.

9. H.O‘rmonovning “Millat fidoyisining qatag‘on qilinishi”. Journal of Advanced Research and Stability. 2022.

10. 1937-1938-yillardagi "Katta qirg’in” tarixining muhim sanalari” (ma’lumotnoma). O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti J. Toshkent – 2013.

[32] 1937-1938-yillardagi "Katta qirg’in” tarixining muhim sanalari” (ma’lumotnoma). O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti J. Toshkent – 2013.

REPRODUCTIVE HEALTH OF TEENAGE GIRLS

Yodgorova Nodira Turgunbayevna
PhD, associate professor
Department of "Microbiology, virology, immunology"
Tashkent Medical Academy, Uzbekistan,
Abduvosiyeva Mushtariy Ismoil kizi,
Student of the faculty of Medicine
Tashkent Medical Academy, Uzbekistan,
Djumaniyazova Maxbuba Kadam kizi
Student of the faculty of Medicine
Tashkent Medical Academy, Uzbekistan

Abstract: *The article is based on the reproductive health of teenage girls, which is one of the current topics in our country. We all know that healthy mothers give birth to healthy children. Therefore, we should not be indifferent to the reproductive health of our teenage girls, and we should definitely pay attention. The ongoing social reforms are focused on the development of our society, ensuring the active political and social position of our girls and women along with men, as well as strengthening families, which are considered the main link of society. In this process, the issues of purposeful preparation of girls for marriage, family, and society, and making their socialization effective are gaining special relevance. In particular, the main responsibility of raising children in the family rests with mothers. Therefore, spiritual health in the society directly depends on the upbringing of mothers, including girls.*

Key words: *Reproductive health, adolescent girls, motherhood, psycho-diagnostic training, questionnaire, statistical analysis*

РЕПРОДУКТИВНОЕ ЗДОРОВЬЕ ДЕВОЧЕК- ПОДРАСТКОВ

Аннотатция: *Статья основана на репродуктивном здоровье девочек-подростков, которое является одной из актуальных тем в нашей стране. Все мы знаем, что у здоровых матерей рождаются здоровые дети. Поэтому мы не должны быть равнодушны к репродуктивному здоровью наших девочек-подростков, и нам обязательно нужно уделять ему внимание. Проводимые социальные реформы ориентированы на развитие нашего общества, обеспечение активной политической и социальной позиции наших девушек и женщин наряду с мужчинами, а также укрепление семьи, которая считается основным звеном общества. В этом процессе особую актуальность приобретают вопросы целенаправленной подготовки девушек к браку, семье и обществу, эффективной их социализации. В частности, основная*

ответственность за воспитание детей в семье лежит на матерях. Поэтому духовное здоровье в обществе напрямую зависит от воспитания матерей, в том числе девочек.

Ключевые слова*: Репродуктивное здоровье, девочки-подростки, материнство, психо-диагностик тренинг, анкета, статистик анализ.*

Raising the position of women in society, ensuring their legal rights and interests, strengthening their health, comprehensively supporting their aspirations and initiatives is one of the priorities of our state policy. High respect for women and girls has been raised to the level of state policy, to help every representative of the delicate race to realize their talent and potential, to take a worthy place in the family and society, to support their initiatives. practical work on support is being carried out at a high level and is bearing work.

Today, unmarried girls need to be prepared for the spiritual, moral, and economic features of family life, family development, maintaining peace and harmony in the family, and raising children in the family. Also, to train future brides and grooms in the skills of achieving a happy family, family life, marriage, livelihood, and the "key to success" in relationships with family members, which may arise in our society. it is important in preventing a number of family problems, conflicts of interests, disagreements, including rulings. This educational -methodological complex serves to form the knowledge, skills and abilities of our unmarried girls for successful socialization in the family and in general. The educational complex is responsible for the preparation of unmarried girls for society and family, deputy heads of the neighborhood for family, women and social-spiritual issues, women's advisory councils, parents and the general public intended.

Abu Ali al-Husayn ibn Sina is better known in Europe by the Latinizes name “Avicenna”. He shows that if any thing and event is motivated by internal or external reasons, then there must be a reason for human existence and action, and one of such reasons is spiritual power. It is to teach girls to learn independently, organize their own activities, manage themselves, develop new ideas, etc.

An event was held together with the teachers of the department to check the reproductive health of teenage girls aged 15-17 years old in the 29th general secondary school located in Almazor district, Tashkent city.

All the girls who participated in the event were given a 20-question questionnaire and statistical analysis. Professors and teachers conducted psycho-diagnostic training with the girls.

Attention to the girl child is important in the family. Because a girl child is a future mother, friend, sister and sister. Peace and harmony in the family, cleanliness, tidiness, upbringing of children, and even a healthy environment are the responsibility of women, that is, our grandmothers, mothers, sisters, daughters-in-law. If every parent gives their child a healthy education and brings it to adulthood, if they see that the child is stepping into an independent life with a pure spirit and worldly dreams, then his life begins to gain

meaning. Proper upbringing of children, especially physical and spiritual qualities in them, has always been the main goal of parents.



In March of this year, together with all the teachers of our department, we visited the 29th general secondary school in Almazar district of Tashkent city. The purpose of this was to educate and survey adolescent girls about reproductive health. The questionnaire consists of 20 questions. Looking at the statistics, 33 of the 40 girls we surveyed were healthy and 7 were unhealthy. In other words, various reproductive disorders were detected in 7 girls.

82.5% of girls are considered completely healthy, and 17.5% are unhealthy. Teachers conducted psycho-diagnostic training with them. And we conducted various interesting game exercises, question and answer.



Our result is that the disease was detected in 17.5% of girls aged 15-17. The remaining 82.5% of girls are healthy. This indicates that the sick girls did not follow a healthy lifestyle and personal hygiene. And it should be noted that they have not passed a medical examination for years.

SOURCES USED:

1.Очилова, С. С., Ёдгорова, Н. Т., & Эрнаева, Г. Х. (2017). Роль Mycoplasma pneumoniae в качестве этиологического агента при заболеваниях респираторного тракта. *Биология и интегративная медицина*, (4), 110-128.

2.Жумамуродов, С. Т., & Ёдгорова, Н. Т. (2018). *Оценка качества пцр исследований с использованием метода «сухая пробирка»* (Doctoral dissertation, Ташкентская медицинская академия).

3.Жумамуродов, С. Т., & Ёдгорова, Н. Т. (2018). *Оценка резитентности вич по молекулярно-генетическому методу «сухая капля крови»* (Doctoral dissertation, Ташкентская медицинская академия).

4.Жумамуродов, С. Т. У., Ёдгорова, Н. Т., & Махмудова, И. А. К. (2018). Современные аспекты исследования резистентности вич. *Биология и интегративная медицина*, (2), 28-44.

5.Орынбаева, З. Н., Ёдгорова, Н. Т., & Махмудова, И. А. К. (2018). Особенности лабораторной диагностики ВИЧ-инфекции и гепатита С (обзор литературы). *Биология и интегративная медицина*, (1), 16-36.

6.Yodgorova, N. T., Bektemirova, Z. S., & Ibrohimov, B. R. (2023). THE SIGNIFICANCE OF MICROORGANISMS IN ONCOLOGICAL DISEASES OF THE ORAL CAVITY AND SENSITIVITY TO ANTIBIOTICS. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, *2*(1), 141-147.

7.Ochilova, S. S., & Yodgorova, N. T. (2017). Ernaeva GKh. The role of Mycoplasma Pneumoniae as etiological agent in diseases of respiration tracts. *Biology and Integrative Medicine*, *4*, 110-128.

8.Нурузова, З. А., & Жумамурадов, С.Т.(2021). *ВИДОВАЯ ПРИНАДЛЕЖНОСТЬ БАКТЕРИАЛЬНЫХ КОИНФЕКЦИЙ ПРИ COVID-19* (Doctoral dissertation, Tashkent).

9.Жумамуродов, С. Т., & Нурузова, З. А. (2021). *COVID-19 КАСАЛ- ЛИГИНИНГ БАКТЕРИАЛ КОИНФЕКЦИЯСИНИНГ АНТИБИОТИКОТЕРАПИЯСИ* (Doctoral dissertation, Tashkent).

10.Нурузова, З. А., Байматов, Р. А., & Жумамуродов, С. Т. (2019). Воздействие различных факторов на биопленку микроорганизмов. *Innova*, (2 (15)), 24-30.

11. Жумамуродов, С. Т., & Нурузова, З.А.ИНФЕКЦИИ, СОПУТСТВУЮЩИЕ ТЕЧЕНИЮ COVID-19. *ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ*, *18*.

12.Laziz, T., Baxodir, Y., Omonturdi, M., & Sobirjon, J. (2021). COVID-19 va otkir respirator virusli infeksiyalar.

13.Жумамуродов, С. Т. Ў., Алиев, Ш. Т., Муротов, Н. Ф., & Халилов, З. (2017). Evaluation of HIV resistance by method of molecular-genetic" dry drop of blood". *Биология и интегративная медицина*, (10), 33-42.

14.Файзуллаева З.Р., Эгамбердиева, А. Р. (2022). Сравнительная оценка дисбактериоз кишечника у беременных женщин.

15.Файзуллаева, З. Р. (2004). Иммунологические аспекты сахарного диабета при гнойно-воспалительном заболевании: научное издание. *Инфекция, иммунитет и фармакология*. *2004*; *1*, *158*.

16.Файзуллаева, З., Абзалов, А., Шамшиддинова, М., & Алиев, Х. (2016). Фармакологические и микробиологические аспекты комплексного соединения никеля с пиридоксином и амидом никотиновой кислоты. *Современные проблемы науки и образования*, (2), 4-4.

17.Fayzullaeva, Z. R., & YODGOROVA, N. (2022). Bacteriolo- gical Methods Determination of the Respiratory Way in Chronic Infection. *Eurasian Medical Research Periodical*, *15*, 47-50.

18.Yodgorova, N. T., Fayzullaeva, Z. R., & Sh, M. F. (2022). CHANGES IN THE INTESTINAL MICROFLORA IN THE BABY AND THE WAYS OF THEIR CORRECTION. *World Bulletin of Public Health*, *17*, 37-41.

19.Rakhmatovna,F.Z.(2022). *Evaluation of antibacterial activeness of aboveground level part of portulaca oleracea l* (Doctoral dissertation).

BADIIY PSIXOLOGIZM TUSHUNCHASI VA UNING BADIIY ASARDAGI O’RNI

Orifjonova Zilola Rasuljonovna

Annotatsiya: *Ushbu maqolada A.Qahhor ijodi xususan hikoyalarining badiiy talqini haqida fikr yuritilgan.Hikoyalarida xalqimizning go'zal an'ana ,qadriyat va urf-odatlari,umuminsoniy qadriyatlar turli insonlar orasidagi o'zaro munosabatlarda tasvirlanadi.A.Qahhor hikoyalarida keltirilgan epigraflar asar mazmunini muxtasar bayon etibgina qolmay uning mazmunini yanada boyitgan."Anor","To'yda a'za","Nurli cho'qqilar","Mahalla","Ming bir jon","So'ngan vulqon","Ig'vogar""Og'ri","Bemor" kabi hikoyalari xalqimizning uzoq o'tmishi va buguni haqida haqqoniy manzaralarni yoritib beradi.*

Abstract: *This article reflects on the artistic interpretation of A. Kahhor's works, especially the stories. In his stories, the beautiful traditions, values and customs of our people, universal human values are described in the interactions between different people. The epigraphs in the stories of A. Kahhor summarize the content of the work. "Pomegranate", "Party at the wedding", "Nurli Chokkilar", "Neighbourhood", "A thousand souls", "Extinguished volcano", "Ighvogar"" Stories like "Pain" and "Patient" shed light on the true scenes of our nation's long past and present day.*

Har bir insonni yetuk shaxs sifatida shakllanishda yuksak ma’naviyat sohibi bo’lishida har qanday adabiy asar emas ,balki chinakam adabiyot talablariga javob bera oladigan insonni ezgu maqsadlar tomon eltadigan ,ongi va shuurini munavvar etadigan asarlar zarurdir.

So’z qudrati cheksiz Buyuk adibimiz A.Qodiriyning so’zlash va yozish odobi ga doir „So’z so’zlashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak degan hikmatlari kishini o’yga solidi . Har bir insonning o’z olami ichki dunyosi bor. O’sha botiniy olamning barcha go’zalligi shu qalb sohibining ma’naviyatiga bog’liq bo’ladi. Ma’naviyat esa nafaqat bir vujud balki butun bir xalq millatning ruhi, qudrati, kuchidir.

Ma’naviyatni yuksaltiruvchi kuch esa shubxasiz badiiy adabiyotdir.O’zbek adabiyoti tarixga nazar tashlasak nomlari-yu e’tiroflari misralarga sig’mas ulug’ adabiyotdarg’alari bisyor. Ulug’ adiblarimizdan biri Abdulla Qahhor shunday ijodkorlardan biridir.

O’zbek nasriy adabiyotini, xususan hikoyachi ligini yuksaltirgan, badiiy ijodda o’z ovoziga, o’z ijod uslubiga ega yozuvchining hikoya qilsa va romanlari ne-ne buyuk qalam ahliga mahorat maktabi vazifasini o’tagan.

A.Qahhor hikoyalarini mutolaa qilar ekanman ko’z ongimda milliy mentalitetimizga xos bo’lgan urf-odat , an’analarimiz, soda samimiy qalb so’zidek halol tanti dilkash insonlar gavdalanadi. A.Qahhor hikoyalari mehnatkash, orif , bag’rikeng, samimiy , ahamiyatli o’zbek xalqining su’rati siyratini chizib beradiso’z qudrati ila. Yozuvchi nafaqat mahorat bilan tasvirlaydi, balki, asarlarida tom-tom maqsadlar to’plamida uchramaydigan naql , hikmatlar va betakror kechirimlarni personajlar nutqiga kiritadi va bu asarning jonliligi va jozibadorligini oshirdi . Asarning jonliligi va mazmunini boyitgan yana bir narsa bu

hikoyalarda berilgan epigraplardir. Sheriy to’rtlik, maqol hikmatli so’zlar asosida keltirilgan epigraplar nafaqat hikoya mazmunini o’zida muxtasar jamlangan balki uning badiiy qudratini oshirgan.

„Otning o’limi itning bayrami, „O’g’li „Osmon uzoq - yer qattiq, „Bemor Sotiboldi.

Uylar to’la non, och-nahorim,balom

Ariqlar to’la suv tashnaizorim, bolam

„Anor hikoyasida Turobjonning anorga bosh qorong’i bo’lgan xotini, Ziri behuda miyon meshi hand To’yda aza hikoyasida

Goh yer mehrini o’ylarkan

Esga tushar dorning sayog’i

Ajab hikmat , odamlar o’larkan

Uzulgan yerda – oyog’i

O‘zbek tilidagi matnlarni tahrir qilish bugungi kungcha inson mehnati bilan amalga oshirilib kelinmoqda. Bu matnlarni tahrir qilishga ketadigan vaqtning oshishiga, iqtisodiy xarajatlarning ortishiga, inson tomonidan qilinadigan xatoliklarga olib keladi. Avtomatik tahrir dasturining asosiy prinsiplari orqali kelgusida bu borada qilinadigan amaliy ishlarda qaysi jihatlariga e’tibor qaratilishi zarurligi keltiriladi. Shuningdek, bugungi kunda jahon kompyuter lingvistikasida amalga oshirilgan ishlarning salmog‘i, o‘zbek tilshunosligidagi kelgusi tadqiqotishlarining muhim yo‘nalishlari haqida so‘z boradi. O‘zbek tili boy va imkoniyatlari keng. Uning qudratini hazrat Mir Alisher Navoiy o‘z asarlari orqali butun dunyoga mashhur qilgan. Shunday ekan, O‘zbekistonda yashayotgan o‘zbek xalqi uchun ona tilini bilish, uning bebaho boyliklaridan bemalol foydalana olish ko‘nikmalariga ega bo‘lish, o‘zbek tilini asrash har bir o‘zbek farzandining vazifasi va burchidir. Rus tilshunosi V.V.Vinogradov esa: “Og‘zaki va yozma nutqning yuksak madaniyati, ona tilini yaxshi bilish va his etish, ularning namunali vositalarini ishlata olish ko‘nikmasi – har bir kishi uchun o‘z ijtimoiy hayotida va ijodiy faoliyatida eng yaxshi tayanchdir”,-deb yozgan edi. Ma’lumki, ijtimoiy hayotda yuz beradigan o‘zgarishlar ilm-fanning barcha yo‘nalishlarida bo‘lganidek, tilshunoslik sohasida ham o‘z ifodasini topadi. Matnni avtomatik tahlil qilish. Insoniyatning rivojlanish tarixida qo‘lga kiritgan barcha yutuqlari zamirida o‘zining hayotiy faoliyatini yaxshilash, qisqa fursatlarda ko‘p ishlarni amalga oshirish, aql –zakovatini tuganmas imkoniyatlarini namoyon qilish maqsadi yotadi. Kompyuter texnologiyalari deb nom olgan asrimizda fan-texnika yutuqlari deyarli barcha sohaning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Jumladan, tilshunoslik sohasi ham ayni shu jarayondan mustasno emas. Matematika, informatika, lingvistika fanlarining kesishgan nuqtasida paydo bo‘lgan yangi soha – kompyuter lingvistikasini axborot texnologiyalarisiz, kompyuter dasturlarisiztasavvur qilib bo‘lmaydi. Endilikda bu hodisa lingvistika oldiga yangi talablarni qo‘yib, fan doirasida turli yo‘nalishlarning paydo bo‘lishiga zamin tayyorladi. Biz ma’lumotlarni tez fursatlarda samaradorligi yuqori bo‘lgan holatda olishni xohlaymiz. Qaysi manbaga murojaat qilmaylik, unda ifodalangan asosiy fikrni tezlikda anglash, matn mazmunini o‘zlashirish diqqatimiz markazida bo‘lgan. Ayni shu narsani kompyuter dasturi yordamida savoljavob tarzida amalga oshirish mumkin. Ya’ni dasturning o‘zi savol qo‘yadi,

javob beradi va matnni tahlil qiladi. Dastlab onlayn tarzida savol-javob usulida ishlaydigan tizim tarixiga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. Tilshunoslikda bir qator yangi sohalar paydo bo‘ldi. Bu jarayon asosan, XX asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri kelsa-da, o‘zbek tilshunosligida ushbu sohalar (neyrolingvistika, kompyuter lingvistikasi, psixolingvistika, geografik tilshunoslik kabi) rivoji mustaqillik davridan so‘ng kirib kela boshladi va bir qancha ilmiyishlarning tadqiqot obyektiga aylana boshladi. Shu jumladan, “XXI asr – kompyuter texnologiyalari asri” ning o‘zbek tilshunosligiga olib kirgan yangiligi bo‘lmish kompyuter lingvistikasi sohasining rivoji ham. Kompyuter lingvistikasi fani 1960-yilda AQShda shakllandi. Mazkur fan XX asrning o`rtalarida paydo bo`lgan matematik lingvistika fani asoslaridan kelib chiqqan. Tabiiy tillar grammatikasi formal modeli kompyuterda tarjima qilish, tillarga o`rgatish, bilimlarni diagnostika qilish, matnlarni tahrir etish kabi amaliy dasturlarni ishlab chiqishga asos bo`lgani holda kompyuter lingvistikasi yo`nalishiga zamin yaratdi. Kompyuter lingvistikasi fanining asosiy maqsadi lingvistik masalalarni hal qilishning kompyuter dasturini yaratishdir. Uning asosiy vazifalariga tillarga o`qitish, bilimlarni tekshirish, matnlarni turli jihatdan tahrirlash va mashina tarjimasi uchun mo‘ljallangan dasturlarni ishlab chiqish kabilar kiradi.

Mashina tarjimasi (avtomatik tarjima)– bir tildagi matnni ikkinchi bir tilga kompyuter vositasida qisqa vaqt ichida tarjima qilish. Mashina tarjimasi bo‘yicha birinchi xalqaro konferensiya 1952-yilda Massachusets texnologiya isttitutida o‘tkazildi. 1954-yilda AQSH dagi Jorjtaun universitetida birinchi marta avtomatik tarjima tajribadan o‘tkazildi. U GAT tizimi (inglizcha “Georgetown Automatic Translation” birikmasining qisqartmasi) deb ataldi. Bu tajribalar IBM-701 kompyuterida o‘tkazildi. Tajriba bazasi algoritmlardan iborat bo‘lib, 50 000 ta so‘z (50 ta gap)ni rus tilidan ingliz tiliga tarjima qildi. SYSTRAN avtomatik tarjima tizimi yordamida bir yilda 2,5 mln sahifa matn ingliz tilidan nemis, fransuz, ispan, yunon, italyan tillariga hamda fransuz tilidan ingliz, ispan, italyan tillariga tarjima qilinadi. DIANA mashina tarjimasi tizimi 10 mln ta so‘z bazasiga asoslanib, dunyoning 6 ta yirik tilidaavtomatik tarjimani ta’minlaydi. YEUROTRA tizimi barcha yevropa tillari bo‘yicha avtomatik tarjimani amalga oshira oladi.

Avtomatik tahrir kompyuter lingvistikasining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u kompyuterdagi matn muharrirlari (Microsoft Word, Exsel, Wordpad, Lexicon) rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Avtomatik tahrir deganda, bo‘lsa, ularning ostiga qizil yoki yashil rangdagi to‘lqinli chiziqning chizilishi; katta harf bilan yozilishi kerak bo‘lgan so‘zlarning avtomatik tarzda bosh harfga o‘tkazilishi, bandlarning avtomatik raqamlashtirilishi; xatboshini to‘g‘irlashi kabi mexanik ishlar avtomatik tahrirda erishilgan yutuqlar hisoblanadi.

O‘zbek tilidagi matnlarni tahrir qilish bugungi kungcha inson mehnati bilan amalga oshirilib kelinmoqda. Bu matnlarni tahrir qilishga ketadigan vaqtning oshishiga, iqtisodiy xarajatlarning ortishiga, inson tomonidan qilinadigan xatoliklarga olib keladi. Avtomatik tahrir dasturining asosiy prinsiplari orqali kelgusida bu borada qilinadigan amaliy ishlarda qaysi jihatlariga e’tibor qaratilishi zarurligi keltiriladi. Shuningdek, bugungi kunda jahon kompyuter lingvistikasida amalga oshirilgan ishlarning salmog‘i, o‘zbek tilshunosligidagi kelgusi tadqiqotishlarining muhim yo‘nalishlari haqida so‘z boradi.

Uning nazariy fan ekanligi nutqiy jarayonni, matnni o‘rganishning turli xil model (gipoteza)larini yaratishning nazariy asoslarini ishlab chiqishida ko‘rinadi. Uning amaliy xususiyati esa tarjima mashinalarini yaratish va uning ishlash jarayonini tashkil etishi bilan belgilanadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Abduraxmonov X., Rafiev A., Shodmonqulova D. O‘zbek tilining amaliy grammatikasi.–Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

2. Bushuy T., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi.–Toshkent:Fan,2007.–B.165-173.

3. Ikromova H.Z. Inson-kompyuter-kelajak. –Toshkent: O‘zbekiston, 1991. – B. 8-24.

4. Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv-uslubiy majmua.- Toshkent, 2012.

5. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo‘nalishlari.–Andijon, 2006. –B. 120-133.

GIDROPONIKA ISSIQXONALARNING SAMARADORLIGI

Baxriddinova Husnimohposhsho Nuriddin qizi
Toshkent davlat agrar unversiteti

Annotatsiya: *Gidraponika issiqxonalari.Gedraponika issiqxonasida sabzavotlarni ekish usullari. Yetishtiriladigan sabzavot va poliz ekinlari turlari. Gedraponikada maxsulot yetishtirishning ahamyati va afzalliklari.*

Kalit so‘zlar: *gidraponika, issiqxona, substrat, sabzovot, agregataponika, xemoekin, suvli ekin, ionetoponika, aeroponika, mineral oziq, ildiz, eritma, kationet, anionet, mo‘m.*

Mamlakatimiz shiddat bilan rivojlanmoqda. Aholi soni yildan yilga o‘sish darajasi ortib boryabdi. Aholini oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojni qondirish va bozorni uzluksiz sifatli oziq-ovqat bilan taminlash soha mutaxasislarning oldidagi dolzarb vazifadir.

Bundan ko‘rinib turibdiki ichki va tashqi bozorni uzluksiz sifatli ekalogik tozza sabzovot va poliz maxsulotlaribilan taminlashda issiqxonalarning o‘rni katta. Shunday issiqxonalardan biri gedroponika issiqxonalaridir Bu issiqxonalarning beshinchi avlodi bo‘lib, unda sabzovot va poliz ekinlarini yetishtirish eng zamonaviy usulda avtomatlashtirilgan tizimda amalga oshiriladi. O‘simliklarni tuproqsiz muhittda o‘stirish qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishda o‘simliklar oziqlanishini o‘rganish natejasida yuzaga kelgan. K. A.Timiryazev o‘simliklarni tuproqsiz sharoitda o‘stirishni ommalashtirish maqsadida 1896-yilda Nejigorod yarmarkasida ko‘rgazma tashkel etgan. Gedraponika atamasini Kaliforniya universiteti professori U. Gyrike kiritgan.

Ildiz oziqlanadigan muhitni fizik-kimyoviy xususiyatlari, o‘simliklar ildiz tizimini havo, suv va mineral oziqa elementlari bilan ta’minlash texnalogik jihozlarni konstruktiv hal etilishiga ko‘ra gidraponika beshta asosiy turlarga ajraladi.

1. Suvli ekin- ildiz oziqlanadigan muhit oziq tuzlarining suvdagi eritmasi hisoblanadi.

2.Agrigataponika- Ildiz oziqlanadigan muhit qattiq materialli substrat bo‘libvaqti-vaqti bilan meniral o‘g‘itlarning eritmasi berib turiladi.

3.Xemoekin ildiz oziqlanadigan muhit ozuqali eritma bilan ho‘llab turiladigan, g‘ovak organic materialdir.

4. Ionitaponika ildiz oziqlanadigan muhit katta zarrachalardan iborat bo‘lib, ikki mo‘mli: kationet va anionet aralashmasi ko‘rinishida bo‘ladi.

5. Aeroponika- havo ildiz oziqlanadigan muhit hisoblanadi. Bu o‘simlikning ildiz tizimi maxsus so‘kchaklarning qorong‘u havo bo‘shlig‘iga joylashtirib ozuqa eritmalar ildizga purkagichlar yordamida vaqti-vaqti bilan purkaladi.U issiqxonalar eng zamonaviy uslubda ishlab chiqilgan, barcha jarayonlar avtomatlashtirilgan.Gidraponika – bu umumiy tushuncha bo‘lib, o‘simliklar harakatlanib (aylanib) turadigan suv muhitida tuproqsiz yetishtiriladi. Gidropon uslubda yetishtirishda ildiz joylashgan muhit sifatida tuproq o‘rnida ishladiladigan turli xildagi substratlar o‘simlik uchun ko‘proq tayanch bo‘lib xizmat

qiladi, o‘simliklarni oziqlantirish mineral tuzlarning suvdagi eritmasi yordamida malga oshiriladi. Oziq aralashmasida o‘simlik uchun zarur hamma moddalar (azot, fosfor, kaliy, kalsiy, magniy, oltingugurt, temir, marganes, bor, mis, rux, molibden, kobalt va b.) bo‘lishi shart. Ularning nisbati yilning fasliga, o‘simlik xili va yoshiga qarab o‘zgartirib turiladi.

O‘simliklarni gidrapon usulda o‘stirish oddiy issiqxina tuprog‘ida o‘stirishga nisbatan afzalligi bor. Bunday issiqxonalar suvni tejashi, hosildorligi bilan ajralib turadi. Bunda tuprog‘i sho‘rlangan va unumsiz yerlada ham bemalol o‘simlik o‘stirsa bo‘ladi. Bu uslubda himoyalangan yerda ishlab chiqarish jarayoni to‘lliq mehanizatsiyalashtirilgan hamda avtomatlashtirilgan.

Hozirda mamlakatimizda bunday issiqxonalar atiga 8 239 ming gektarni tashkel etadi. Muhtaram yurtboshimiz shavkat Mirziyoyev Miromonovichning 42426-sonli qarorlari bilan 2018-2030- yillarda 65-70 ming gektar zamonaviy zamonaviy issiqxonalar faolyat yuritilishi ko‘zda tutilmoqda. Yiliga o‘rtacha 4230.8 gektar va xammasi bo‘lib 55 ming gektar issiqxona komplekislari qurilishi rejalashtirilgan. Gedraponika issiqxonalarda pamidor, bodiring, qalampir asosan, sabzavot, gul, rezavor meva, chorva mollari va parrandalar uchun servitamin ko‘katlar o‘stiriladi. Bu yo‘l bilan yiliga 4—5 marta hosil olish mumkin. “O‘ZBEKOZIQOVQATXOLDING” kampanyasi bergan ma’lumotlarga ko‘ra respublikamizda issiqxonalar soni 57088 ta bo‘lib maydoni 8239 ming gektarni tashkel etadi.

2016- yilda mahsulot ishlab chiqarish miqdori pamidor 4560 gektarda 263 ming tonna , bodring 2397 gektarda 117.1 ming tonna, sitrus va boshqa ekinlar 1282 gektarda 103.3 ming tonna yetishtirilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkunki.Dunyoda sodir bo‘layotgan oziq-ovqat muomosini bartaraf etish, aholi sonining ortib borishi , maxsulot ishlab chiqarish xajmini ko‘paytirishga jadallashgan texnalogiyalarni ishlab chiqish, yani uning birdan bir yo‘li ekinlarni hosildorligini oshirishga bog‘liq bo‘adi.

Shuning uchun gidraponika issiqxonalarda sabzavot va poliz ekinlarini yuqori xosilli, kasallikga chidamli, nav va duragaylarini ekib, maxsulot xajmini oshirish amaliy ahamiyatga ega. Bu maqsad va rejalarni amalga oshirish uchun yetuk kadirlar va mutaxasislarga talab yuqori.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. V.I. Zuyev, A.A. Ataxodjayev, Sh.I.Asatov Himoyalangan joy sabzovotchiligi TOSHKENT 2014 -YIL

2. V.I. Zuyev, Sh.I. Asatov Himoyalangan yer sabzavotchiligi TOSHKENT 2018-YIL.

3. O‘z ME birinchi jild TOSHKENT- 2020 YIL

4. Agrobank 100 kitob to‘plami 33-kitob Issiqxonalarda mikroiqlim sharoiti TOSHKENT 2021-YIL

PSIXOLOGNING OILADAGI SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA TA’SIRI VA TARBIYAVIY AHAMIYATI

Gulhayo Safarova

Annotatsiya: *Maqolada bugun jamiyatimizning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan oila va unga psixologik xizmat ko‘rsatishning o‘ziga xos bo‘lgan psixologik mexanizmlariga to‘xtalib o‘tilgan. Maqola Oilada psixologning tarbiyaviy ahamiyati mavzusida bo‘lib, unda psixologning oiladagi shaxslararo munosabatlarga ta’siri va tarbiyaviy ahamiyati haqida fikrlar yuritilgan. O‘zbekiston psixologlari tomonidan o‘zbek oilalariga xos muammolarni o‘rganish yuzasidan bir qator muvaffaqiyatli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ana shu ilmiy ishlarda oila-nikoh munosabatlari, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, o‘zbek oilalaridagi milliy o‘ziga xoslik, undagi nizolar va ularni keltirib chiqaruvchi muhim sabablar, ajralishlar va ularning salbiy asoratlari kabi bir qator masalalar har tomonlama o‘rganilib tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Taraqqiyot, psixologik xizmat, oila instituti, nikoh, psixologik muammo, shaxs, oilaviy munosabatlar.*

Аннотация: *Статья посвящена теме воспитательного значения психолога в семье, а также обсуждается влияние и воспитательное значение психолога на межличностные отношения в семье. Узбекские психологи провели ряд успешных научных исследований по изучению проблем, характерных для узбекских семей. В этих научных работах всесторонне изучен и проанализирован ряд вопросов, таких как семейно-брачные отношения, подготовка молодежи к семейной жизни, национальное самосознание узбекских семей, споры и их важные причины, разводы и их негативные осложнения.*

Ключевые слова: *семья, проблема, воспитание, конфликты.*

Annotation: *The article is on the topic of the educational importance of a psychologist in the family, and it discusses the impact and educational importance of a psychologist on interpersonal relationships in the family. Uzbek psychologists have conducted a number of successful scientific researches to study the problems specific to Uzbek families. In these scientific works, a number of issues such as family-marriage relations, preparation of young people for family life, national identity of Uzbek families, disputes and their important causes, divorces and their negative complications have been comprehensively studied and analyzed. Keywords: family, problem, upbringing, conflicts.*

Tarix va ijtimoiy hayot tamoyillari shuni ko‘rsatmoqdaki, jamiyatning har tomonlama rivojlanishi va unda yuksak darajadagi hayot, turmush tarzining qaror toptirilishi, avvalo, har bir shaxsning o‘ziga xos psixologik bilim va salohiyatining ne chog‘lik to‘la-to‘kis namoyon etayotganligi bilan belgilanadi. Shu boisdan bo‘lsa kerak, hozirgi kunda barcha rivojlangan va rivojlanish yo‘lidan borayotgan mamlakatlar birinchi galda o‘z fuqarolarining ma’naviy, intellektual, jismoniy va ruhiy barkamolligiga va bundan ijtimoiy manfaatlar

uchun samarali foydalanish yo‘llarini izlashga jiddiy e’tibor qaratmoqdalar. Shu nuqtai nazardan, har bir mamlakatda inson va uning ijtimoiy munosabatlari o‘rtasida uyg‘unlikni ta’minlashga qaratilgan ijtimoiypsixologik xizmat tizimining joriy etilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, hanuzgacha O‘zbekistonda mukammal dasturga va amaliy tajribalar yakuniga asoslangan yagona psixologik xizmat tizimini boshqaruvchi rasmiy maqomga ega bo‘lgan Markazning mavjud emasligi va ayni paytda, psixologik xizmat tizimining bugungi holati va uning amaliy faoliyat yo‘nalishlarini har tomonlama, chuqur tahlil qiluvchi va shu tahlillar asosida psixologik xizmatning istiqbollarini ochib beruvchi maxsus tadqiqotlarning taqchilligi, ayniqsa, oilaviy munosabatlar tizimidagi muammolarni hal qilishga amaliy yordam beruvchi psixologik xizmatning barcha fuqarolar foydalanishi mumkin bo‘lgan darajada tashkil qilinmaganligi nihoyatda dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Demak, mazkur muammoni bartaraf etish uchun, O‘zbekistonda psixologik xizmatning joriy etilishi, bugungi holati va istiqbollarini o‘rganishga, tahlil qilishga va izohlashga bag‘ishlangan psixologik, ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarning olib borilishi kelajagi buyuk bo‘lgan O‘zbekistonimiz ravnaqi uchun kechiktirib bo‘lmas davr taqozosidir. Mustaqillik yillarida aholi sonining muttasil o‘sib borishi hisobiga yosh oilalar soni ham oshdi. Shuninguchun bugungi kunimiz va ertangi istiqbolimiz uchun eng muhim va dolzarb masala - oilaga e’tiborni kuchaytirish, uni ijtimoiy-psixologik himoyalash va qo‘llab-quvvatlash lozim. Demak, oila instituti jamiyat hayotiy faoliyatida ulkan ahamiyatga ega ekan, ijtimoiy psixologiya, amaliy psixologiya, oila psixologiyasi doirasida uning rivojlanish qonunlarini, barqarorligi va mustahkamligi omillarini aniqlash, aniqlangan ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bo‘yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqish, oilaning har bir a’zosi uchun psixologik xizmatdan foydalanish imkonini yaratish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu bois oila va nikohning mustahkamligini saqlash, oilada sog‘lom ijtimoiy muhitni yaratishga ko‘maklashish orqali oila barqarorligini ta’minlash, oilaviy nizolar, ajrimlar, suisid holatlarining oldini olish hamda psixologik ko‘makka muhtoj bo‘lgan oila a’zosini psixologik bilimlar bilan qurollantirish va uning psixologik himoyalanishiga erishish esa bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Oilaviy psixologik xizmatning metodologik asoslari sifatida talqin qilingan yuqoridagi fikr-mulohazalar ijtimoiy psixologiyaning quyidagi amaliy-tatbiqiy yo‘nalishlariga bugungi kunning eng dolzarb muammolari sifatida qarashni taqozo etadi. 1. Oilaviy psixologik xizmat har bir oila a’zosining ijtimoiy va hissiy qoniqish jarayonini tadqiq qilishga qaratilgan usullar va uslublar majmuasiga asoslanishi; 2. Oilaviy psixologik xizmat shaxslarning (qaynona, qaynota, kelin, kuyov, er, xotin, farzand va h.k.) ijtimoiy jarayondagi o‘z-o‘ziga, o‘zgalarga munosabatlaridagi ierarxik tizim dinamikasini tadqiq qilish va shu tizim asosida ijtimoiy psixologik muhitning yaratilishiga zamin hozirlay olishi bilan bog‘liq izlanishlar ko‘lamini o‘z ichiga olishi; 3. Oilaviy psixologik xizmat jarayoni oila a’zolari bilan bog‘liq muhim ijtimoiy ko‘rsatkichlarning tahlili hamda har bir shaxs uchun xarakterli bo‘lgan individual xususiyatlar va ijtimoiy ustanovkalarni qaror toptirilishini o‘rganish asosida amalga oshirilishi; 4. Oilaviy psixologik xizmat jarayonini ijtimoiy-psixologik muhofaza vositasi sifatida tadqiq qilish muammosi bugungi kunda ijtimoiy

psixologiyaning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi va bu muammoni bartaraf etishda ma’lum psixologik tamoyillarga tayanish talab qilinadi. Oilaviy psixoterapiya o‘z taraqqiyoti davomida ikki bosqich (tibbiy va psixologik)ni bosib o‘tdi. 20-asrning ikkinchi yarimlaridan boshlab, sobiq ittifoqda faqat tibbiy natijalarni emas, balki oilalar a’zolarining shaxs sifatidagi takomili hamda ular orasidagi munosabatlarni maqsadga muvofiq ta’minlashga yo‘naltirilgan psixologik maslahat va psixologik oilaviy terapiya jadal rivojlana boshladi. Bunda ko‘proq E.G.Eydemillerning hammualliflikda chop etgan «Oilaviy psixoterapiya» (1990) nomli ilk monografiyasi muhim rol o‘ynadi. Unda mualliflar asab-psixik kasalliklarini davolashda oilaviy psixoterapiyada qo‘llanadigan tadqiqot metodlari, mazkur jarayonga xos mexanizmlar xususidagi xulosalarni umumlashtirganlar. Ular oilani bosqichma-bosqich ko‘p funksiyali va ko‘p darajali tizim sifatida tasnif etadigan yangi metodologik yondashuvlarni taklif etdilar. Olimlarning ta’kidlashlaricha, oilaning biror a’zosi asab-psixik kasalliklardan aziyat cheksa, oilaning bir butunligiga putur yetadi va guruhiy patologik xarakter kasb etuvchi psixologik himoyaning mexanizmlari shakllana boshlaydi. Bugungi kunda oilaviy psixoterapiya psixoterapiyaning boshqa yo‘nalishlari, xususan, individual va guruhiy psixoterapiya bilan chambarchas bog‘liqlikda jadal rivojlanmoqda. Oxirgi o‘n yillikda oilaviy psixologik xizmat rivojida keskin yuksalish ro‘y berdi, oiladagi muammolarni bartaraf etishga ko‘maklashishni o‘z oldiga maqsad qilib olgan turli muassasa va tashkilotlar vujudga keldi. Oilaga xizmat ko‘rsatuvchi psixolog, psixoterapevtning asosiy tamoyili taxminan quyidagi jumlada ifodalanishi mumkin: «Men Sizning ko‘p muammolaringizni, ayniqsa, oilaviy masalaga aloqadorlarini hal qilib bera olmayman. Bu muammolarni o‘zingiz bartaraf etishni o‘rganishingiz zarur. Buning uchun esa kerakli bilim hamda ko‘nikmalarni egallashingiz darkor. Biroq ularni o‘zlashtirganingizdan so‘ng mening maslahatlarim Sizga bag‘oyat foydali bo‘lishi mumkin. O‘shanda men Sizga maslahat va tavsiyalar berishim, Sizni qo‘llabquvvatlashim mumkin». Masala, muammoning shu taqlit qo‘yilishi natijasida oila a’zolari psixologdan sust shaklda yordam kutayotgan vaqtda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan o‘ta noxush psixoterapevtik vaziyatlardan xalos bo‘lish imkoni tug‘iladi. Mijoz yoki yordam ko‘rsatish lozim bo‘lgan shaxs bunday paytda o‘z muammolarini hal qilish uchun psixolog bilan birgalikda faol harakat qila oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Elov Z.S. Berdiyeva D.Sh. Psychological reasons for suicide motivation in adolescents with deviant behavior. Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences scientific journal. VOLUME 2, ISSUE 2 February 2022 1003-1009

2. Elov Z.S. Causes and analysis of suicidal thoughts among adolescents. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) Volume: 6 | Issue: 11 | November 2021 75-76

3. Elov Z.S. Conditions and the reasons of cases of the suicide among the staff of law-enforcement bodies European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 5 2017

4. Elov Z.S. Ichki ishlar organlari xodimlari orasida suisidal xulq motivasiyasi namoyon etilishining ijtimoiy-psixologik sabablari. The best innovator in science №1 2022. 583-591

5. Elov Z.S. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. O‘quv-metodik qo‘llanma. 2021. Buxoro 1-164.

6. Elov Z.S. Psychological influence of speech disorders and the causes that cause them on the child's psyche. Academicia globe: inderscience research Volume: 3, ISSUE 1, JANUARY-2022 39-42

7. Elov Z.S. Researches of the Reasons Conditions, Fastors of Suicide Rick Intellectual Archive Volume 5 Number 1. 2016. 49-53

8. Elov.Z.S. Қадимги халқлар урф-одатлари ва ривожланган жамиятда ўз жонига қасд қилишнинг ижтимоий психологик сабаблари. Тарих ва бугун (қадимги халқлар урф-одатлари ва бугунги замон) JAMIYAT VA INNOVASIYALAR. 10.2021 169-173

“BOBURNOMA”- SAMARQAND TARIXINI O’RGANISHDA MUHIM MANBA

Sharof Rashidov nomidagi SamDU
Tarix fakulteti talabasi **Po‘latov M.S**
Ilmiy rahbar: Sharof Rashidov
nomidagi SamDU Tarix fakulteti
o‘qituvchisi **Xasanov M.G**

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzoning “Boburnoma” asari Samarqand tarixini o’rganishdagi ahamiyati haqida bo’lib, asarda aks etgan Samarqand shahrining ijtimoiy-iqtisodiy, hamda madaniy hayotiga doir ma’lumotlarga tavsif berilgan. Asarni tadqiq etish orqali Amir Temur va Temuriylar davrida Samarqandning shaharsozligi, me‘morchiligi, ilm-fan va madaniyat ravnaqi yoritilgan.*

Kalit so’zlar: *Amir Temur, Temuriylar, Bobur Mirzo, “Boburnoma”, Samarqand, ijtimoiyi-qtisodiy hayot, din, me’morchilik, obodonchilik, ilmfan, madaniyat.*

Аннотация: *В данной статье речь идет о значении произведения Захириддина Мухаммада Бабура Мирзы «Бабурнома» в изучении истории Самарканда, а также описываются отраженные в произведении сведения о социально-экономической и культурной жизни города Самарканда. Благодаря изучению произведения освещено развитие градостроительства, архитектуры, науки и культуры Самарканда в период правления Амира Темура и Тимуридов.*

Ключевые слова: *Амир Темур, Тимуриды, Бабур Мирзо, «Бобурнома», Самарканд, общественно-экономическая жизнь, религия, архитектура, благоустройство, наука, культура.*

Resume: *This article is about the importance of Zahiriddin Muhammad Babur Mirza's work "Baburnoma" in the study of the history of Samarkand, and the information about the socio-economic and cultural life of the city of Samarkand reflected in the work is described. The development of Samarkand's urban planning, architecture, science and culture during the period of Amir Temur and the Timurids was illuminated through the study of the work.*

Key words: *Amir Temur, Timurids, Babur Mirzo, "Boburnoma", Samarkand, socio-economic life, religion, architecture, landscaping, science, culture.*

Dunyo adabiyotshunosligida ming yil, bir necha yuz yillar davomida qadr qimmati yuksak bo‘lib kelayotgan asarlar bor. Aynan shunday buyuk asarlar orasida ayniqsa Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu asar Boburning butun hayoti davomida ko`rgan-kechirganlarini ro`y-rost tasvirlagani bilan boshqa asarlardan ajralib turadi.

Jahon sivilizatsiyasining qadimiy o‘choqlaridan biri, yer yuzining sayqali nomini olgan Samarqand mustaqil O‘zbekistonning yirik iqtisodiy va ilmiy-madaniy markazlaridan biri hisoblanadi

Jahon ilm-fanida “G‘arbda – Rim, Sharqda – Samarqand” degan ibora bejiz paydo bo‘lmagan. Ayniqsa, buyuk Sohibqiron Amir Temur bobomiz davrida Samarqandning shuhrati butun dunyoga taraldi.[1] “Imkonim bo‘lishi bilan kitob o‘qishga harakat qilaman. O‘sha kuni 1 soatcha bo‘sh vaqtim paydo bo‘lib qolgandi, Amir Temur va To‘xtamishxon o‘rtasida jang tarixini o‘qidim. Buyuk sarkardamiz qanday g‘alaba qozongani menga juda qiziq edi. To‘xtamish ham osonlikcha yutqazmagan ekan, bunda Amir Temur bobomizning yuksak harbiy taktika va strategiyasi, dovyurakligi ish bergan. O‘zimga ham yozvoldim, Amir Temur jangda 7 ta usulni qo‘llagan ekan”, deydi Prezident Mirziyoyev Sohibqironning harbiy mahorat haqida.

Qadimiy Movarounnahr va undagi xalqlar hayoti haqida jonli guvohlik beruvchi asarlar orasida “ Boburnoma “ alohida ajralib turadi. Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yaratilgan bu asar ijtimoiy – tarixiy, ilmiy – tabiiy va adabiy- lingvistik ma’lumotlar xazinasidir. Unda 1494-yildan 1530-yilgacha O’rta Osiyo, Afg’oniston va Hindistonda kechgan voqealar bayon etilgan. Asardagi markaziy obraz Boburning o’zi, albatta.Asarda tarixning Bobur yashab o‘tgan davri voqelari ifodalangan. Bu voqealar Andijon, Samarqand, Xo‘jand, Hirotdan boshlab Kobul va Agragacha bo‘lgan qamrovga ega.. Bobur Boburnomada Samarqand haqida shunday dedi: Ma’muraning kanorasida voqe’ bo‘lubtur, Sharqi Farg‘ona va Qoshg‘ar, G‘arbi Buxoro va Xorazm, Shimoli Toshkand va Shohruxiyakim. Shosh va Banokat bitirlar, Janubi Balx va Termiz.

Rub’i maskunda Samarqandcha latif shahr kamroqdur Beshinchi iqlimdindur. Tuli (99°) ramzi nujumiy (56°) daraja va daqiqadur, arzi-(40a) daraja va daqiqadur. Shahri Samarqanddur, viloyatini Movarounnahr derlar. Hech yog‘iy qahr va g‘alaba bila munga dast topmag‘on uchun Baldai mahfuza derlar. Samarqand amir ul-mu’minin Usmon zamonida musulmon bo‘lg‘ondur. Sahobadin Kusam ibn Abbos anda borg‘ondur. Qabri Ohanin darvozasining toshidadur. Holo mazori Shohg‘a mashhurdur [2].

“Boburnoma”da Farg`ona, Samarqand shaharlari va shu nomdagi viloyatlar, Ohangaron vodiysi, O`ratepa va uning atrofi, Mascho, Hisor, Chag`oniyon, Badaxshon, Kobul viloyati va boshqa joylar geografik jihatdan g`oyatda qiziqarli tavsif qilingan bo`lib, muallif o`zi yurgan yo`llar, o`zi bo`lgan shahar va qishloqlarni g`oyat darajada aniq tasvirlagan. “Samarqand shahrining tashkil etilishi haqida juda ko’p ma’lumotlar uchraydi Zahiriddin Muhammad Bobur bu haqida shunday deydi:

Samarqandni Iskandar bino qilg‘ondur. Mo‘g‘ul va turk ulusi Semirkand derlar. Temurbek poytaxt qilib edi. Temurbekdin burun Temurbekdek ulug‘ podshoh Samarqandni poytaxt qilg‘on emastur, Qo‘rg‘onini fasilning ustidin buyurdumkim, qadam urdilar. O’n ming olti gse qadam chiqdi.

Eli tamom sunniy va pok mazhab va mutasharriy va mutadayyin eldur. Hazrati risolat zamonidin beri ul miqdor aimmai islomkim, Movarounnahrdin paydo bo‘lubtur, hech viloyattin ma’lum emaskim muncha paydo bo‘lmush bo‘lg‘ay.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»da rivoyat qilinishicha, bu yerlarni sahroyi qabilalarning hukmdori, qudratli sehrgar Afrosiyob ismli shoh makon qilgan ekan. O’z kuni bitganini payqagan shoh o’lim xudosi Astivixadning jazosidan qochish niyatida tepaliklar ostida ulkan bir koshona qurdirgan va u yerga chekingan ekan[3].

Boburnoma - jahon adabiyoti va manbashunosligidagi muhim va noyob yodgorlik, o`zbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy asar. “Boburnoma” asaridagi voqealar bayoni aniq, ixcham va lo‘nda, ta’sirchan, eng muhimi, hayotiy haqiqatga mos va muvofiqligi bilan e’tiborlidir. Muallif voqealar bayonida tabiat tasviriga, ayrim joylar tavsifiga, alohida kishilarning ta’riflariga jiddiy ahamiyat beradi. Ko‘hak suvi shimolidin oqar, Samarqanddin ikki quruh bo‘lg‘ay. Bu suv bila Samarqand orasida bir pushta tushubtur Ko‘hakderlar. Bu rudmuning tubidan oqar uchun Ko‘hak suvi derlar. Bu suvdan bir ulug‘ rud ayiribturlar, balki daryochadur, Darg‘omderlar. Samarqandning janubidin oqar, Samarqanddin bir shar’iy bo‘lg‘oy. Samarqandning bog‘ot va mahalloti va yana necha tumonoti bu suv bila a’murdur, Buxoro va Qorako‘lgacha, o‘ttiz-qirq yig‘och yo‘lg‘a yovuqlashur, Ko‘hak suvi bila ma’mur va mazru’dur. Mundoq ulug‘ daryo aslo ziroattin va imorattin ortmas, balki yozlar uch-to‘rt oy Buxorog‘a suv yetmas. Uzumi, qovuni, olmasi, anori va balki jami’ mevasi xo‘b bo‘lur. Vale ikki meva Samarqanddin mashhurdur: sebi Samarqad va sohibi Samarqand. Qishi mahkam sovuqtur, qori agarchi Kobul qoricha tushmas. Yozlari yaxshi, havosi bor, agarchi Kobulcha yo‘qtur.

“Boburnoma “ da ilm-fan, san’at, adabiyot ahli xususida keng fikr yuritilgan. Ushbu hududdan yetishib chiqqan yuqorida nomlari keltirilgan olim-u fuzalolar va ular tomonidan yaratilgan ilmiy meros haqida qimmatli ma’lumotlar beradi.

Shayx Abumansurkim, aimmai kalomdindur, Samarqandning Motrid otliq mahallasindandur. Aimmai kalom ikki firqadur, birni Motridiya derlar, birini Ash’ariya derlar. Motridiya Shayx Abumansurg‘a mansubdur. Yana sohibi «Sahihi Buxoriy» Xoja Ismoil Xartanak ham Movarounnahrdandur. Yana sohibi «Hidoya»kim, Imom Abu Hanifa mazhabida «Hidoya»din mu’tabarroq kitobi fiqh kam bo‘lg‘oy, Farg‘onaning Marg‘inon otliq viloyatidindur, ul ham doxili. Movarounnahrdur.

Asarda Bobur tarixiy voqealarni bayon etish bilangina cheklanmaydi, balki voqealar sodir bo’layotgan sharoit manzarasini tasvirlaydi Temuriylar saltanatining poytaxti bo‘lgan ushbu shaharda Amir Temur davrida yanada ko‘plab me’moriy obidalarning barpo etilgan, bog‘-u rog‘lar yaratilganligi haqida batafsil ma’lumotlarni Boburnomadan olamiz. Bobur Samarqand arxitektura va qurilishini shunday tasvirlaydi:

Samarqand arkida Temurbek bir ulug‘ ko‘shk solibtur, to‘rt oshyonluq, Ko‘k saroyg‘a mavsum va mashhur, bisyor oliy imorattur. Temurbekning va Ulug‘bek Mirzoning imoroti va bog‘oti Samarqand mahallotida ko‘ptur[4]. Yana Ohanin darvozasig‘a yovuq qal’aning ichida bir masjidi jum’a solibtur, sangin, aksar Hindustondin eltgan sangtaroshlar anda ish qilibturlar. Masjidinng peshtoqi kitobasida ushbu oyatni “Vaiz yarfa u Ibrohimal-qavoida” Andoq ulug‘ xat bila bitibturlar kim, bir quruh yovuq yerdin o‘qusa bo‘lur. Bu ham bisyor oliy imorattur. Samarqandning sharqida ikki bog‘ solibtur, biri kim yiroqroqtur, Bog‘i Bo‘ldudur, yovuqrog‘i Bog‘i Dilkushodur. Andin Feruza darvozasig‘acha xiyobon qilib, ikki

tarafida terak yig‘ochlari ekturubtur. Dilkushoda ham ulug‘ ko‘shk soldurubtur, ul ko‘shkda Temurbekning Hinduston urushini tasvir qilib turlar. Yana Pushtai Ko‘hakning domanasida Konigilning qorasuvining ustidakim, bu suvni Obirahmatderlar, Bir bog‘ solibtur. Naqshi jahong‘a mashxur. Shahar chekkasidagi katta qasr chetdan qaraganda xuddi tekislikda turgandek ko‘rinardi, lekin yaqinroq borib qaraganda qasrning atrofiga aylanasiga chuqur xandaqlar qazilganki, bu qasrga kirish qiyin edi. Bu qasrda Sohibqiron o‘zining g‘aznasini saqlar, qasrga Sohibqironning o‘zi yoki yaqinlaridan boshqa hech kim kirmasdi. Xuddi shu qasrda Sohibqiron jangchilar uchun sovut, dubulg‘a, kamon kabi qurol-aslahalar yasaydigan mingga yaqin mahbus ustalarni saqlardi[5].

Yana Samarqandning janubida Bog‘i Chanordur, qal’ag‘a yovuqtur. Yana Samarqandning quyi yonida Bog‘i Shamol va Bog‘i Bihishttur. Amir Temurning nabirasi, Jahongir mirzoning o‘g‘li Muhammad Sulton Mirzo Samarqandning tosh qo‘rg‘onida chaqarda bir madrasa solibtur. Temurbekning qabri va avlodidin har kimki Samarqandda podshohliq qilidtur ularning qabri ul madrasadadur. Ulug‘bek Mirzoning imoratlaridin Samarqand qal’asining ichida madrasa va xonaqohdur. Xonaqohning gumbazi bisyor ulug‘ gumbazdur, olamda oncha ulug‘ gumbaz yo‘q deb nishon berurlar. Yana ushbu madrasa va xonaqohga yovuq bir yaxshi hammom solibtur, Mirzo hammomig‘a mashurdur, har nav toshlardin farshlar qilibtur. Xuroson va Samarqandda oncha hammom ma’lum emaskim. Yana bu madrasaning janubida bir masjid solibtur, Masjidi Muqatta’ derlar. Bu jihattin Muqatta’ derlarkim, qit’a-qit’a yig‘ochlarni tarosh qilib, islomiy va xitoiy naqshlar solibturlar, tamom devorlari va saqfi ushbu yo‘sunluqtur. Bu masjidning qiblasi bila madrasa qiblasining orasida bisyor tafovuttur. G‘olibo bu masjid qiblasining samti munajjim tariqi bila amal qilibturlar. Samarqand atroflarida bir qaycha qasabalar bunyod etib, ularni ulug’ va poytaxt shaxarlar nomi bilan atadi. (Shu vaqtda Samarqand va uning viloyatlari, Movarounnaxr yerlari va uning (barcha) atroflari, Turkiston va unga karashli yerlar—Turkistonda Temur tomonidan noib bulib Xudoydod degan kishi turardi-shuningdek, Temur zuravonlik ko’rsatib javlon urgan Xorazm, Xitoy yerlari xalkumida joylashgan Koshgar, Badaxshon — bu Samarkand yerlaridan yirok bulgan aloxida yerlardir, Xuroson iqlimlari, Mozandaron yerlarining aksar qismi, Rustamdor, Zobuliston, Tabariston, Ray, Gazna, Astrobod, Sultoniya, Qazvin va bu shaharlardan boshqalari, manoatli Gur torlari, Ajam Iroki va mag’rur balandparvoz fors xam xolis Temurniki bulib, bular xammasi xech bir raqobat qiladigan va unga mone’lik kursatib, oldini tusadigan (biron) kimsasiz buldi. Bu mamlakatlarning xar qaysisida Temurning o’gli yoki nabirasi, yoki u e’timod kiladigan noibi turar edi [6].

Bobur ushbu asarida davlat arbobi va tarixchi, ajoyib shoir va harbiy sarkarda, geografik olim va ovchi sifatida gavdalanadi. Bobur Samarqand tasvirida Ulug‘bek madrasalari va rasadxonasini batafsil keltiradi: “Ulug‘bek Mirzoning imorati va bog‘oti Samarqand mahallotida ko‘pdur.

Yana bir oliy imorati Pushtai Ko‘hak domanasida rasaddurkim, zich bitmakning olatidur. Uch oshyonliqdur .Ulug‘bek Mirzo bu rasad bila Ziji Ko‘ragoniyni bitibdurkim, olamda holo bu zij musta’maldur. O’zga zij bila kam amalqilurlar. Mundin burun Ziji

Elxoniy musta’mal edikim, Xoja Nasir Tusiy Hulokuxon zamonida Marog‘ada rasad bog‘latibtur. Halokuxondur kim, “Elxon” ham derlar. G‘olibo olamda yetti-sakkiz rasad besh bog‘lamaydurlar. Ul jumladin bir Ma’mun xalifa rasad bog‘labturkim, Ziji Ma’muniyni bitibturlar. Yana bir Hindustonda roja Bikramojit hindu zamonida bir rasad qilib turlar, holo hindularning musta’mal Hindustonda ul zijdur[7].

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” voqeiy-ilmiy-sarguzasht asari mumtoz adabiyotimizning eng nodir nasriy namunasi sifatida hayotni haqqoniy aks ettirgani, o`ziga xos uslubi bilan alohida qadrli.Samarqandni ta’riflar ekan Bobur shaharning ko‘plab bog‘lari, me’morchilik obidalari haqida ma’lumot beradi.

Pushtai Ko‘hakning domanasida g‘arb sari bog‘ solibtur, Bog‘i Maydong‘a mavsum. Bu bog‘ning o‘rtasinda bir oliy imorat qilibtur. Chilsutunderlar, bu oshyonda, sutunlari tamom toshdin. Bu imoratning to‘rt burchida to‘rt manordek burjlar qo‘poribdurlarkim, yuqorig‘a chiqar yo‘llar bu to‘rt burjdindur. O’zga tamom yerlarda toshdin sutunlardur...Yuqorig‘i oshyonining to‘rt tarafi ayvondur, sutunlari toshdin. O’rtasi chordara uydur. Imorat kursisini tamom toshdin farsh qilibturlar. Bu imorattin Pushotai Ko‘hak sari domanasida yana bir bog‘cha solibtur, anda bir ulug‘ ayvon imorat qilibtur, ayvonningichida bir ulug‘ tosh taxt qo‘yubtur, taxminan o‘n to‘rt-o‘n besh qari bo‘lg‘oy, arzi yetti-sakkiz qari, umqi bir qari.Mundoq ulug‘ toshni hili yiroq yo‘ldin kelturubturlar, O’rtasida darz bo‘lubtur. Derlarkim, ushbu yerga keltirgandin so‘ng bu darz bo‘lg‘ondur. Ushbu bog‘chada yana bir chordara solibtur, izorasi tamom chiniy - Chinnixonaderlar. Xitoydin kishi yuborib kelturubtur. Samarqand qal’asining ichida yana bir qadimiy imoratbordur, Masjidi Laqlaqaderlar. Ul gumbazning o‘rtasida yerga tepsalar tamom gumbazdin laq-laq un kelur, g‘arib amirdur, hech kim buning sirini bilmas. Sulton Ahmad Mirzoning zamonida ham bek va bekot, bog‘ va bog‘cha soldilar. Ul jumladin, Darvesh Muhammad Tarxonning chorbog‘icha safoliq va havoliq va madsi nazarliq chorbog‘ kam bo‘lg‘ay. Bog‘i Maydondin quyiroq, balandining ustida Qulba o‘langiga mushrif bir chorbog‘ solibtur, tamom bu o‘lang oyog‘ ostidadur. Chorbog‘da ham martaba martaba yerlarni siyoq bila tuzatib, yaxshi norvonlar va sarv va safedorlar tikib turlar, hili saromad manzilidur. Aybi bu durkim, ulug‘ suvi yo‘qtur. Samarqand shahri ajab orosta shahardur, Har hirfagarning bir boshqa bozori bor, bir-birlariga maxlut emastur. Xo‘b nonvoliqlari va oshpazliqlari bordur Olamda yaxshi qog‘az Samarqandin chiqar. Juvozi qog’azlar suvi tamom Konigildin keladur. Konigil Siyohob qasidadur kim, bu qorasuvni Obirahmat ham derlar[8]. Samarqandning yana bir matoi qirmizi mahmalodir kim, atrof va javonibqa eltarlar. Girdo-girdida yaxshi o‘langlari bor. Bir mansur o‘lang Konigil o‘langidur. Samarqand shahrining sharq tarafidadur, bir nima shimolg‘a moyil, bir shar’iy bo‘lg‘oy. Qorasuvkim, Obirahmat ham derlar, Konigilning o‘rtasidan oqar, yetti-sakkiz tegirmon suvi bo‘lg‘ay. Bu suvning atrofi tamom obgirdur. Ba’zi derlarkim, bu o‘lang asli oti Qoniobgir ekandur, vale tarixlarda tamom Konigil bitirlar, hili yaxshi o‘langdur. Samarqandning salotini hamisha bu o‘langni qo‘ruq qilurlar. Har yili bu o‘langga chiqib bir oy, ikki oy o‘ltururlar. Bu o‘langdin yuqoriroq sharqi janub sari yana bir o‘lang voqe’ bo‘lubtur: Xon yurtig‘a mavsum, Samarqandning sharqidur, Samarqanddin bir yig‘och bo‘lg‘ay. Bu qorasuv

uning orasi bila o‘tub, Konigil borur. Xon yurtida bu qasrga suv andoq yuqoridin evrulub kelib durkim, chiqar yeri hili tor voqi’ bo‘lubtur. Bu yerning sirfasini ko‘rib, Samarqand muhosarasida necha mahalmunda o‘lturub edi. Yana bir o‘lang Bo‘dana qo‘rug‘idur, Dilkusho bog‘I bila Samarqand orasida voqe’ bo‘lubtur. Yana bir Ko‘li mag‘oq o‘langidur, Samarqanddin ikki shar’eg‘a yovushqay, g‘arb soridur, bir nima shimolg‘a moyil. Bu ham tavr o‘langidur. Bir yonida bir ulug‘ ko‘l voqe’ bo‘lubtur, bu jihattin Ko‘li mag‘ok o‘langi derlar. Samarqand muhosarasida men Xon yurtida o‘lturg‘onda bu o‘langda Sulton Ali Mirzo o‘lturub edi. Yana bir Qulba o‘langidur, bu muxtasarroq o‘langdur. Shimoli Qulbakenti va Ko‘hak daryosi, janubi Bog‘i Maydon va Darvesh Muhammad tarxonning chorbog‘i, sharqi Go’shtai Ko‘hak.

Boburnoma”ning o`ziga xos jihatlarini ochib berishda yaqin yillar ichida o`zbek, hind, afg`on olimlari, yevropalik, yaponiyalik tadqiqotchilar teran tadqiqotlar olib bordilar. Xulosa qilib aytganda "Boburnoma" asari o‘zbek xalqining faxridir

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. https://yuz.uz/uz/news shavkat-mirziyoev
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. “Bobumoma”, ”Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2015.40-44- betlar
3. Lyus’en keren- Amir Temur saltanati. T.-“Ma’naviyat” 1999 28-bet
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. “Bobumoma”, ”Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2015 43-bet
5. Rui Gonsalez de Klavixo- Samarkandga- Amir Temur saroyiga sayoxat kundaligi (1403-1406 yillar), T.- “O’zbekiston”-2010 141-149-betlar
6. Ibn Arabshox- Ajoib al-Maqdur fi tarixi Taymur. 1-kitob. T.- “Mehnat”-1992
7. Zahiriddin Muhammad Bobur. “Bobumoma”, ”Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2015
8. Zahiriddin Muhammad Bobur. “Bobumoma”, ”Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2015 45-49-betlar

ОЦЕНКА УРОВНЯ ГЛИКЕМИИ У ПАЦИЕНТОВ С САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ 2 ТИПА В ДИНАМИКЕ НАБЛЮДЕНИЯ ПОСЛЕ БАРИАТРИЧЕСКИХ ВМЕШАТЕЛЬСТВ

Камалов Т.Т Юнусова А.Б
РСНПМЦ Эндокринологии им. акад.
Туракулова Ё.Х
Ташкентский филиал РСНПМЦ
Эндокринологии им. акад.

Сахарный диабет (СД) – широко распространённая патология, при этом свыше 95% больные с диабетом – болеют диабетом 2 типа (СД 2). В России 5,4% взрослого населения больны СД 2, который обусловлен нарушением метаболизма и ожирением, оба пусковых механизма при этом нарастают из года в год во всем мире, что увеличивает социальную значимость СД 2 вследствие увеличения заболеваемости и смертности, колоссальные экономические затраты на лечение данного заболевания Доказано, что 70% пациентов, перенесших бариатрические хирургические вмешательства характеризуются полной ремиссией СД 2 в течение 5 лет

Цель исследования: в динамике наблюдения оценить уровень гликемии у больных с СД 2 типа после перенесенной бариатрической операции (БО).

Материалы и методы исследования: в исследовании приняли участие 91 больных с СД 2 типа, после БО. Сроки наблюдения варьировали от 1 года до 2-х лет (средний срок наблюдения составил 16,1±0,12 месяцев). Средний возраст больных составил 43,8±1,3 лет, вариационный ряд варьировал от 25 до 60 лет. Среди всех пациентов с СД 2 типа мужчины встречались в 7,3 раза реже, чем женщины, их процентное соотношение составило 12,1% и 87,9% ($P<0,01$). Длительность существования ожирения колебалась от 4 до 15 лет, в среднем 9,5±0,4 лет. Длительность сахарного диабета составила от 1,5 лет до 10 лет (6,8±0,3 лет).

Гликированный гемоглобин (референсные значения 4-6%) определяли методом высокоэффективной жидкостной хроматографии на анализаторе D10 (BioRad, США). Анализ глюкозы сыворотки (референсные значения натощак 3,1-6,1 ммоль/л) проводился на биохимическом анализаторе Architect c4000 (Abbott Diagnostics, Abbotpark, IL, США) стандартными наборами фирмы.

Результаты исследования. Больные, которым проведена БО имели вес в пределах 104-204 кг (в среднем 116,1±2,6 кг), а двукратный избыточный вес констатировали у 92%, т.е. у подавляющего числа пациентов истинная масса тела двукратно и более превышала идеальную. Рост исследуемых колебался в пределах 153-184 см (в среднем 165,1±0,75 см), ИМТ варьировал в пределах 30,1-66,6 кг/м2 (в среднем

42,9±0,83 кг/м2). Через 6 месяцев после проведения БО средняя потеря массы тела была 22,1±0,2 кг, через 1 год – 34,2±0,3 кг.

Наиболее значимые изменения в контроле углеводного обмена произошли за первые 3-х месяцев наблюдения. Именно за первые три месяца среднии показатели гликемии натощак (8.5±0.4 ммоль/л против 7,0±0,3 ммоль/л; P<0,05), постпрандиальной гликемии (10,3±0,6 ммоль/л против 7,8±0,5 моль/л; P<0,01), а также гликированного гемоглобина (7,8±0,4% против 6,7±0,3%; P<0,05) достоверно снизились после БО у больных с СД 2 типа. В динамике наблюдения через 12 месяцев достигает уровень гликемии достигает референсных значений.

Всего же за весь период наблюдения ремиссии СД 2 типа достигли 82,4% (75 из 91) включенных в исследование пациентов.

Заключение: установлено, что уже в первые три месяца средние показатели гликемии натощак, постпрандиальной гликемии, а также гликированного гемоглобина имеет достоверное снижение, а через 12 месяцев после БО достигает референсных значений у больных с СД 2 типа. Ремиссия СД 2 типа достигается у 82,4% включенных в исследование пациентов.

USE OF REFORMS IN OUR COUNTRY FOR TEACHING FOREIGN LANGUAGES AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES

Saukieva Gulnur
2 year master student of Nukus State Pedagogical Institute

Abstract:*This article discusses the decisions on radical reform of foreign language teaching in the country, presidential decrees. In particular, the President of the Republic of Uzbekistan In accordance with the Resolution PQ-5117-SON of May 19, 2021 on the activities of the Ministry of Education and Science of the Republic of Uzbekistan*

Keywords: *Innovative technologies, methods, complex systems, language cabinets, games, intensive/*

INTRODUCTION

"The time has come to establish a new system for teaching foreign languages, which will become a solid foundation for the future."- said Our dear President Shavkat Mirziyoyev in their lectures. Every maturing young generation of Uzbekistan is obliged to be no less than anyone, a mature educated scientist who can fully meet the level of World educational standards, and we must enter into this with our enthusiasm. To date, the demand and interest in learning foreign languages, especially English, has increased so much that children of kindergarten age are trying to learn English from adult professionals. This is a positive situation, of course, because the study of the language provides the basis for the opening of doors in the interests of the individual, along with the study of the culture, history and customs of the countries that speak that language . As noted, within the framework of the implementation of the law of the Republic of Uzbekistan "on education"and the National Training Program, a comprehensive system of training in foreign languages was created in our country, that is, a more focused system on the formation of a harmoniously matured educated, modern-minded young generation and the world community of the Republic.

LITERATURE ANALYSIS AND RESULTS

The use of modern technologics in teaching a foreign language can contribute to an increase in efficiency. For example, by viewing a video roller in a foreign language during training, the learner's hearing skills develop sufficiently. In some cases, however, the comments made for the videos have enough of an impact on their ability to write, read, and even grow their speaking skills. In such cases, we can use computers, tape recorders, projectors, CDs and cassettes.

In addition, modern methods during the lesson also create much more relief in student-student learning a foreign language.In this regard, we should mention such methods as" cluster"," fish skeleton"," venn diagram"," role-playing games"," mental attack"," question-and-answer". In the application of each method, there are factors that create relief in the easier learning of a foreign language for individual student-students. Taking, for

example, the method of mental attack, bumetod has a much greater positive effect on the student to think faster and grow his speech, and by exchanging ideas with each other, he also develops a worldview, the ability to think.

DISCUSSION AND RESULTS

[80] Muhammedov G’. I. Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri: ehtiyoj,zarurat, natija. –Xalq so’zi, jamiyat, 15 fevral 2019 y.

qo`llanmalar bilan ishlash ko`nikmasini shakllanishiga, mustaqil ta’limni amalga oshirishga keng fikrlashga katta yordam beradi.

Dars olib borilayotgan o’quvchilarni 4 guruhga bo`lamiz. Har bir guruhga kompleks birikmaning 4 ta sinfini (asidokomplekslar, ammikatlar, akvakomplekslar va poligalogenidlar) o`rganib kelish hamda ularning ayrim sinfiga tegishli foprmula va tenglamalarni bir xil o`lchamdagi kartochkalarga yozib kelish topshiriladi. Doskani 4 qismga bo`lib, har bir qismining yuqori tomoniga kompleks birikmalar sinflarining nomi yozib qo`yiladi. Har bir guruh o`zlariga tegishli bo`lgan kompleks sinfning klasterini yopishtirib chiqadi. Buning uchun magnit doska aplikatsiyasidan foydalaniladi. Ball qo`yish mezoni berilgan vazifani qisqa vaqtda bajarilishi, mavzu tartibi bo`yicha kartochkalarni sistemali yopishtirilishi, kompleks birikmalarning kimyoviy formulalari va ular orasidagi reaksiya tenglamalarini to`g`ri yozilganligi bilan belgilanadi. Bu jarayonni bajarishda o`quvchilarning qiziqishi va faolligi ortadi.

asidokomplekslar	ammikatlar	akvakomplekslar	Poligalogenidlar
Ligandlari kislota qoldiqlaridan iborat birikmalar asidokomplekslar deyiladi	Bu komplekslar o`zining ichki sferasida ammiak yoki organik aminlar saqlaydi	Anorganik moddalarda suv molekulasi birikib turg`unligi bo`lgan moddalar bo`ladi. Agar suv molekulasi ligandlik vazifasini bajarsa akvakomplekslar hosil bo`ladi	Markaziy ioni Ligandlari galogenlardan iborat bo`lsa poligalogenid komplekslar deyiladi
Misollar			
$K_4[Fe(CN)_6]$ $2K_3[Fe(CN)_6]$ $K_3[Co(NO_2)_6]$ $Na_2[Zn(CN)_4]$	$[Co(NH_3)_5Cl]Cl_2$ $[Co(NH_3)_6]Cl_3$ $[Zn(NH_3)_4]$ $[Cd(NH_3)_4](OH)_2$	$Na_3[Cr(OH)_6]$ $[Zn(H_2O)_4]CI_2$	$K[JJ_2]$, $K[ICl_4]$, $K[BrCI_2]$

Dars jarayonida yuqoridagi jadvaldagi manbalarni quyidagi klaster asosida davom qildirishni guruhlarga topshiriq shaklida berib muayyan vaqt davomida olish munkin.



Bundan tashqari dars jarayonida biror kimyoviy moddaning kimyoviy xossa xususiyatlarini o’rganishda turli klasterlardan ham foydalanish mumkin:



Klaster usulining afzallik tomoni shundaki, u rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifani o`taydi. Bu usul bilan talaba va o`quvchilarning bilimlarini egallash mahorati, mantiqiy va tizimli fikrlash ko`nikmasi rivojlanadi.

Bunday darslarda klasterdan foydalanish quyidagi afzalliklarga ega:

* bu sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni olish imkonini beradi;

* jamoaning barcha ishtirokchilarini o'quv jarayoniga jalb qiladi, ular uchun bu qiziqarli;

* o’quvchilar faol va ochiq bo’lishadi, chunki ular xato qilishdan, noto'g'ri fikr bildirishdan qo'rqmaydilar.

Ushbu ish jarayonida quyidagi ko'nikmalar shakllanadi va rivojlanadi:

* savollar berish qobiliyati;

* asosiy narsani ta'kidlay olish qobiliyati;

* sabab-natija munosabatlarini o'rnatish va xulosalar chiqarish qobiliyati;

* umumiy muammolarni tushunish orqali qismdan umumiy holatga o'tish;

* taqqoslash va tahlil qilish qobiliyati;

* o’xshatishlarni aniqlash qobiliyati.

Mashg’ulotlarda klaster usulini qo'llash o’quvchilarga nima beradi?

Klasterni qabul qilish tizimli fikrlashni rivojlantiradi, talabalarga nafaqat o'quv materiallarini, balki ularning baholash qarorlarini tizimlashtirishga o'rgatadi, kuzatishlar, tajriba va yangi olingan bilimlar asosida shakllangan o'z fikrlarini ishlab chiqish va ifoda etishga o'rgatadi, bir vaqtning o'zida bir nechta vaziyatlarni ko'rib chiqish, axborotni ijodiy qayta ishlash qobiliyatini rivojlantiradi. Darslarda kuzatilayotgan qoidalar darsni samaradorligini oshirishni ko`rsatib o`tivchi quyidagi qoidalarni sanab o`tamiz.

Mashg`ulotning samaradorligini oshirish uchun amal qilish mumkin bo`lgan qoidalari:

• Dars qoldirmaslik va kech qolmaslik;

• Aniq maqsad quyish va unga erishish;

• Vaqtdan unumli foydalanish;

• Fikrni bo`lmaslik; eshita olish, savol berish madaniyatiga rioya qilish;
• O`zgalar fikrini hurmat qilish, o`zaro hurmat;
• Ma’suliyatli bo`lish; faollik, ijodkorlik va bunyodkorlik;
• Kayfiyatni mutadil saqlash;
• Tashkilotchi va tashabbuskor bo`lish;
• Fikrni qisqa, aniq va ravon ifoda etish;

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, bu qoidalar shaxsni yuqori madaniyatli keng fikrlovchi, ijodkor bo`lib shakllanishiga yordam beradi shuningdek, o`zgalarni fikrini hurmat qilishga o`rgatadi. O`quvchitalabalarimiz dars jarayonida shu qoidalariga amal qila olsa, o`z fikrilarni, g`oyalarni aytishdan cho`chimasa, serg`ayrat, shijoatli, qalb tuyg`ulari ilmda beorom bo`lsa, o`zgalarni fikrini hurmat qilib olishsa darslar o`z samarasini berishi aniq. Hozirgi davr talabidan kelib chiqqan holda talabalarni o`zo`zini tarbiyalaydigan, o`zi mustaqil izlanib, bilimlarini egallaydigan darajaga olib chiqish asosiy vazifa hisoblanadi.

Demak, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan noan'anaviy texnologiyalar talabalarning motivatsiyasini oshiradi, hamkorlik muhitini shakllantiradi va ularga ijodiy erkinlik, o'z-o'zini hurmat qilishlik hissini beradi. “Ko’p millatli jonajon O’zbekistonimizda har bir farzandni “bu mening farzandim,ertangi kunimning poydevori, zamini” deb tarbiya qilsak albatta natijaga erishamiz”[81], kelajak avlodimiz bo’lmish yoshlar tarbiyasida aslo xatoga yo’l qo’ymasligimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tolipov O’. Pedagogik texnologiya(Nazariya va amaliyot) Toshkent : “Fan” 2005
2. Zagashev I., Zair-Bek S. Tanqidiy fikrlash: rivojlanish texnologiyasi [matn]/ I. Zagashev, S. Zair-Bek. - Sankt-Peterburg.: "Skifiya" va "Alyans Delta", 2003.-284 b.
3. Mushtavinskaya, I.V. Darsda va o'qituvchi tayyorlash tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi [matn]/ I. V. Mushtavinskaya. – M.: Karo, 2009. -144 b.
4. Zair-Bek S.I., Mushtavinskaya I.V., Darsda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, M., Ma'rifat, 2011.
5. Muhammedov G’. I. Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri: ehtiyoj,zarurat, natija. – Xalq so’zi, jamiyat, 15 fevral 2019 y.
6. Toshpo’latov M Klaster: mohiyat, samara va istiqbol. - http://www.biznes-daily.uz/ru/mening-mulkim/53616-

[81] 29-dekabr.O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Xalqaro kongress markazida o’qituvchilar bilan bo’lgan uchrashuvidagi nutqidan.

ТАЪЛИМДА ЎҚИТУВЧИ ФАОЛИЯТИНИНГ ПСИХОЛОГИК ЎРГАНИЛИШИ

Тошболтаева Нодира Иброхимжоновна
Усмонов Рахимжон Раҳмонали ўғли
ФарДУ Сиртқи бўлим ўқитувчилари.

Аннотация: *Ушбу мақолада таълим тизимида педагогларнинг фаолияти, касбий фаолият маъсулияти, ўқитувчи фаолиятининг психологик ўрганилиши тўғрисида маълумотлар баён этилган.*

Калит сўзлар: *таълим, шахс, баркамоллик, педагогик технология, ижодий ёндашув, фаолият, самарали таъсир, услуб.*

Аннотация: *В данной статье описывается деятельность педагогов в системе образования, ответственность профессиональной деятельности, психологическое исследование деятельности педагога.*

Ключевые слова: *образование, личность, компетентность, педагогическая технология, творческий подход, деятельность, действенное воздействие, метод.*

Abstract: *This article describes the activities of pedagogues in the educational system, the responsibility of professional activity, and the psychological study of the teacher's activity.*

Key words: *education, personality, competence, pedagogical technology, creative approach, activity, effective influence, method.*

Кадрлар тайёрлаш миллий дастурини амалга ошириш узлуксиз таълим тизимининг тузилмаси ва мазмунини замонавий фан ютуқлари ва ижтимоий тажрибага таянган ҳолда туб ислоҳотларни кўзда тутади. Бунинг учун аввало, таълим тизимининг барча шаклдаги муассасаларида таълим жараёнини илғор илмий-услубий жиҳатдан асосланган янги ва замонавий услубиёт билан амалда таминлаш зарур. Ёш авлодга таълим-тарбия беришнинг мақсади, вазифалари, мазмуни, услубий талабларга кўра фан, техника ва илғор технология ютуқларидан унумли фойдаланиш бугунги таълим тизими олдида турган долзарб муаммолардан бири ҳисобланади.

Инновацион методлар ёрдамида машғулотлар олиб борилиши тингловчиларда ўз-ўзини англаш ҳиссини янада ривожланишига, педагогик фаолиятида касбий сифатларини шаклланишида ўз самарасини кўрсатади. Шунингдек, улар билим бераётган ёш авлодга келгуси ҳаёт йўлини тўғри белгилаш, маънавий юксак, ишонч ва ахлоқий қадриятлар моҳиятини тўғри англашга, турли муаммоли вазиятларда тўғри қарор қабул қилиш, тафаккурини ривожлантириш учун замин яратади.

Ж.Ж.Руссо, немис педагоги А.Дистерверглар ҳам ўзларининг дидактик таълимотларида болада мустақил фикрлашни ривожлантириш зарурлиги ғоясини

илгари сурган. Улар мустақилликни тарбиянинг асосий тамойили деб хисоблаганлар. Зеро, Дистервергнинг фикрича, мустақил эгалланган билимлар ва кўникмалар катта аҳамиятга эга. «Ақлни ҳеч нарса билан тўлдириб бўлмайди. Уларни инсон ўзи мустақил ўрганиши, ўзлаштириши ва қайта ишлаши зарур». «Ёмон ўқитувчи тайёр хақиқатни беради, яхши ўқитувчи эса уни топиш йўлини ўргатади».

Машғулотларни педагогик технологиялар асосида олиб бориш тингловчиларда қуйидаги сифат ва фаолликни ривожлантиради:

- турли ижтимоий гуруҳларда фаол мулоқотга кириша олиш (коммуникабеллик);
- ўз устида ишлаш;
- тингловчиларни фаоллиги ортади;
- янги маълумотларни бериш билан бирга дидактик қобилиятлар ривожланади;
- муаммоли вазиятларда тўғри ва оқилона қарорлар қабул қилади;
- мустақил-ижодий тафаккурини ривожлантиради;

Ўтказилган тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, педагоглик фаолияти билан шуғулланаётган мутаҳассисларда профессионал сифатларни шаклланиши бевосита касбий иш стажи билан боғлиқлиги аниқланди. Уларга ўнта касбий сифатлар берилиб, муҳимлигига кўра даражалаб беришлари сўралганда;

1-5 йил стажга эга бўлган педагоглар биринчи, иккинчи, учинчи ўринларга қаттиққўллик, талабчанлик, касбини севиш сифатларини белгилашган.

5-10 йил стажга эга бўлган педагоглар олдинги ўринларга касбини севиш, психологик билимдонлик, дидактик қобилиятларни қўйишган. Бундан кўриниб турибдики, ўқитувчининг педагогик фаолият стажи ортиб борган сари ўз касбини моҳиятини чуқур ўрганади, касбга доир талабларни беихтиёр ўзлаштиради. Шу билан бирга ўз касбининг сир-асрорларини мукаммал ўрганиб, тингловчилардаги ҳолатларни тез англаб олади ва уларда юзага келган муаммоларни бартараф этиш усулларини топа олади.

Буюк аллома Абу Наср Форобий фикрича: инсон тушуниш, фаҳмлаш, муҳокама қилиш, ўйлаб топиш, фикрлаш қувватига туғилишидан эга бўлади ва уларнинг қандай вужудга келганинини ўзи ҳам билмайди, бу хусусиятлар шахснинг ўсиб, камолга ета бориши билан ривожланиб боради.

Кўзланган мақсадлар амалга оширилиши учун ўқитувчи маҳсус педагогик шахс сифатларига эга бўлиши керак. Лекин бундай сифатларнинг ягона руйхати психолог ва педагоглар томонидан аниқланмаган. Шундай бўлсада адабиётлар тахлилига кўра, аксарият олимлар “ўқитувчи-фасилитатор” образини диққат марказига қўйиб келмоқдалар. Гуманистик психологиясининг намоёндаларидан бўлган К. Роджерснинг фикрига кўра “фасилитатор - бу катализатор, ўйғотувчи, ўқувчига эркинлик ва ўқиш учун имконият беради ва энг мухими, ўқувчилар билан биргаликда ўқийдилар”. Фасилитаторни сифатларига эга бўлмаган ўқитувчи талабалар ривожланишига салбий таъсир кўрсатади, унга ҳам инсон, хам мутахассис сифатида

ривожланишга эришиш қийин. Бундай ўқитувчи ўқувчиларни ички дунёсини тушуна олмайди, ўзини самимий қилиб тута олмайди, “ниқоб” остида яширинаётиб, ўқувчиларга совуқлиқ ва ҳурматсизлик билан қарайди.

Хулоса қилиб шуни айтиб ўтамизки, замонавий касб-ҳунар таълимида фаолият юритаётган педагог унга юклатилган вазифаларни самарали амалга ошириши учун “ўқитувчи-фасилитатор” сифатида педагогик жараённи олиб бориши, талабалар фаолиятидан ижобий кутишларни кўзлаши, педагогик фаолиятининг марказига талабалар, ҳамкасабалар, маъмурият, ота-оналарни ва ўзининг қизиқишларини қўйиб ишлаши, яъни гуманистик марказлашишга амал қилиши мақсадга мувофиқдир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Дистерверг А. Избранные педагогические сочинения. М.: Учпедгиз. 1956. С 79

2. Раҳимов С. Абу Али ибн Сино таълим ва тарбия ҳақида.79-бет.

3. Ибн Сино Фалсафий қиссалар. Т.:Ўқитувчи. 1963 й

4. Ibrokhimjonovna T. N. PERSONAL EDUCATION AS A MAIN BASIS OF SOCIETY'S DEVELOPMENT //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2021. – Т. 2. – №. 03. – С. 1-2.

5. Тошболтаева Нодира Иброхимжоновна //БИЛИШ ЖАРАЁНЛАРИ РИВОЖЛАНИШИДА ШАХСНИ ТАРАҚҚИЙ ЭТИШИ// JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME-2, ISSUE13 (26-December). 472-475.

6. Тошболтаева Нодира Иброхимжоновна //ШАХС ТАРАҚҚИЁТИДА ТАФАККУРНИНГ АҲАМИЯТЛИЛИГИ МАСАЛАЛАРИ// Международный научный журнал «Научный импульс». № 5 (100), часть 2. Декабрь, 2022. 196-199 стр.

7. Toshboltayeva Nodira Ibrohimjonovna //The importance of thinking in the complex process of individual activity// International conference on Studies in Humanities, Education and Sciences. January 10 th,2022. 69-70 pages.

8. Тошболтаева Нодира Иброхимжоновна, Тошболтаев Салохиддин Хамидуллаевич //МУСТАҚИЛ ТАФАККУР ЖАРАЁНИНИ ИБН СИНО ТАЪЛИМОТИДА ТАҲЛИЛИ// Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке». № 6 (100), часть 2. январь, 2023 г. 114-118 стр.

9. Элеонора Мирзажонова, Абдуллажон Хомидов //КОМПЛЕКСНОСТЬ И ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КОРРЕКЦИОННОЙ РАБОТЫ С ДОШКОЛЬНИКАМИ С НАРУШЕНИЯМИ РАЗВИТИЯ// Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке». № 4 (100), часть 1. ноябрь, 2022 г. 232-237 стр.

10. Ahmadjonov Nurmuhammad //DEVELOP STUDENTS' THINKING SKILLS IN THE LEARNING PROCESSBASICS// ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. Volume 2, Issue 1, Jan, 2021. 15-21 pages.

11. Ahmadjonov Nurmuhammad, Sobirjonova Masturabonu //8-9 YOSHDAGI BOLALARDA GEOMETRIK MATERIALLARNI O‘RGANISH ORQALI AQLIY OPERATSIYALARNI SHAKLLANTIRISH// 3rd International Multidisciplinary Scientific Conference on Ingenious Global Thoughts Hosted from Kuala Lumpur, Malaysia May 31. Vol. 25 No. 1 (2021). 182-188.

12. Ahmadjonov Nurmuhammad Nabijon o‘g‘li //KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA TAFAKKUR HAQIDAGI NAZARIY QARASHLAR// IJODKOR O‘QITUVCHI JURNALI. 5 MAY / 2023 YIL / 29 – SON. 232-238 betlar.

13. Ahmadjonov Nurmuhammad Nabijon o‘g‘li //KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING TAFAKKUR OPERATSIYALARI RIVOJLANISHINI NAZARIY JIHATDAN O'RGANILISHI// 5 MAY / 2023 YIL. 29 – SON. 239-246 betlar.

14. Ahmadjonov Nurmuhammad Nabijon o‘g‘li //PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE FATHER'S RELATIONSHIP IN PERSONS WITHDIFFERENT DEGREE OF DEPENDENCE// “PEDAGOGS” international research journal. Volume-24, Issue-3, Decembe. 2022. 124-127 pages.

15. А.Абдуллаева Н.Тошболтаева //ОНГ ВА ТАФАККУР БУЗИЛИШЛАРИ// FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES: a collection scientific works of the International scientific conference. 13 April 2023. Part 18. 27-32 pages.

16. MuazzamTulkinovna Isakova //Socio-Psychological Factors Are The Effect Ofperson’s Mental Health// European Journal of Molecular & Clinical Medicine. Volume 07, Issue 03, 2020. 4699-4718 pages.

17. Muazzam Isakova Tulqinovna //FAMILY AS A FACTOR IN MENTAL HEALTH// ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Vol. 10, Issue 7, July 2020. 200-210 pages.

18. Isakova Muazzam To‘lqinovna //Additional Learning is as a Factor of Mental Health// International Journal of Psychosocial Rehabilitation. Vol. 24, Issue 05, 2020. 7330-7335 pages.

19. Исакова М.Т. //ГЕНДЕРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ ВЕДУЩИХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ МЕЖДУ ОТНОШЕНИЕМ К ЗДОРОВЬЮ И ИНДИВИДУАЛЬНО-ДИНАМИЧЕСКИМИ ХАРАКТЕРИСТИКАМИ// ВЕСТНИК ИНТЕГРАТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ. 2021, Выпуск 23. 144-149 стр.

20. M.T.Isakova //SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF A PERSON'S ATTITUDE TO HIS MENTAL HEALTH// Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). Vol 10, Issue 4, April, 2021. 29-36 pages.

21. M.T.Isakova //OILA MUHITI RUHIY SALOMATLIKNING OMILI SIFATIDA// PSIXOLOGIYA ILMIY AXBOROTNOMA. 2021-yil, 2-son. 127-134 betlar.

22. Isakova Muazam Tulkinovna //THE RESULTS OF THE EMPIRICAL TRANSFER OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING THE MENTAL HEALTH OF THE INDIVIDUAL// ELECTRONIC JOURNAL OF ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND TRAINING. JUNE, 2021-XI. ISSN 2181-9750. 4-15 pages.

23. A.R.Abdullayeva //PSYCHOLOGICAL FACTORS OF FORMING A HEALTHY LIFESTYLE IN THE FAMILY// ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. Volume 4, Issue 3March, 2023. 43-50 pages.

24. Eleonora Topvoldievna Mirzajonova, Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva //Modern Special Preschool Education: Problems and Solutions// Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Vol. 9. 06-2022. 100-106 pages.

25. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, Ro„zimatova Arofatxon Maxmudjon qizi //TA‟LIM OLUVCHILARNI FANLARNI O„ZLASHTIRISHGA QIZIQTIRISH USULLARI// IJODKOR O_QITUVCHI JURNALI. 5 OKTYABR / 2022 YIL / 22 – SON. 226-230 betlar.

26. M.M. Ahmedov, S.M. Ruzimatova, A.YU.Yoldashev //Organization of Technological Educational Processes and Using the Method of "Integration Strategy" in Improving the Management System// Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Volume 19. 06-04-2023. 1-6 pages.

27. Eleonora Topvoldiyevna Mirzajonova, Rasuljon Raxmonali o‘g‘li Tilavoldiyev //O‘SMIR YOSHDAGI O‘QUVCHILARDA AXBOROTDAN FOYDALANISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI// International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers. Volume-11. Issue3. 2023. 660-669 pages.

28. Eleonora Topvoldiyevna Mirzajonova, Dostonbek Muxtarjon o‘g‘li Masharipov //INKLYUZIV TA‘LIM OLAYOTGAN BOLALARNING O_ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK O‘RGANISH// INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM: a collection scientific works of the International scientific conference 25 th March, 2023. Washington, USA: "CESS", 2023. Part 28. 192-199 pages.

29. Mirzajonova Eleonora Topvoldiyevna, Xomidov Abdullajon Adxam o‘g‘li //ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ МЫШЛЕНИЯ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ РЕЧИ, ОБУЧАЮЩИХСЯ В УСЛОВИЯХ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ// International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers. Volume-11. Issue-1. 2023. 217-223 pages.

30. Э.Мирзажонова, А.Хомидов, Г.Мамажонова //АКТУАЛЬНОСТЬ ПЕРЕВОДА ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ МЕТОДИК// O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 9-SON. 20.06.2022. 211-217 betllar.

31. Murodil R. The concept of makiavellism in the scientific psychological literature and the degree of mac-scale in a person //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 5. – С. 1249-1257.

32. Rajabov M.J., Absalamov E.U. //NLP IN ADVERTISING AND PRINCIPLES OF ITS APPLICATION// Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. – 2020. – С. 355-357.

33. Rajabov M.J., Sotvoldiev J.M. //INFORMATION-PSYCHOLOGICAL EFFECTS OF ADVERTISING AND BUYER MOTIVATION// Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. – 2020. – С. 62-64.

34. G‘aniyeva Xalimaxon Axmatxonovna //PSYCHOLOGICAL FUNDAMENTALS OF THE SOCIAL ENVIRONMENT IN PERSONAL DEVELOPMENT// EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Volume1 Issue02, May 2021. 717-724 pages.

ФИЛОСОФИЯ В МЕДИЦИНЕ

Тойирова Гулчехра Абдуманнон кизи
Студентка Медико-педагогического и лечебного факультета
Ташкентского государственного стоматологического института (ТГСИ)
Министерства здравоохранения Республики Узбекистан г. Ташкент
Умирзакова Наргиза Акмаловна
кандидат философских наук, доцент
заведующая кафедрой социогуманитарных наук с курсом биоэтики
Ташкентского государственного стоматологического института (ТГСИ)
Министерства здравоохранения Республики Узбекистан
г. Ташкент

Аннотация: *Философия "вливается" во все сферы нашей жизни. Она оказывает свое влияние как на самого человека, так и на окружающий его мир. Эта наука считается родоначальником всего того, что мы имеем сейчас. Но философия - это динамичная наука и она продолжает свое действие и по сей день. Благодаря такому влиянию формируются все грани личности человека и , в том числе, медицинского работника. Идеальный врач - это прежде всего гармоничная личность, которую формирует философия!*

Summary: *Philosophy "flows" into all spheres of our life. It will have an impact both on the person himself and on the world around him. This science is considered the ancestor of everything that we have now. But philosophy is a dynamic science and it continues to operate to this day. Thanks to this influence, all facets of a person's personality, including a medical worker, are formed. The ideal doctor is, first of all, a harmonious personality, which is formed by philosophy!*

Ключевые слова: *философия,медицина,врач, философия медицины, личность.*

Key words: *philosophy, medicine, doctor, philosophy of medicine, personality,*

Философия − учение о мире, и месте человека в нём; наука о всеобщих науках развития природы, общества. С её помощью мировоззрение достигает высокой степени обобщённости теоретичности. В основе философии лежит стремление человека к истине, к добру то есть ко всему жизненно важному. Она есть форма духовности, она возникла тогда, когда человек обнаружил, что он есть не только телесное, физическое существо, но и совесть, свободная воля и разум. Философия это свободное мышление и искание истины. Философия зависит от культуры, представляет собой ее выражение и в то же время формирует ее.

Еще со времен Гиппократа считалось, что тот, кто не является хорошим человеком, не может быть хорошим врачом. Нравственная чистота врача всегда

ставилась в один ряд с уровнем врачебной эрудиций и интеллектом клинициста. Именно гуманистическая направленность личности врача помогает ему преодолевать усталость, постоянно совершенствовать свои профессиональные знания, оттачивать диагностические приемы, вырабатывать творческое клиническое мышление. Для врача-гуманиста его врачебная память наблюдательность, логическое мышление приобретают особый личный смысл, становятся его неотъемлемыми качествами и средством самоутверждения. Человеколюбие помогает ему стать психологом и педагогом, по отношению к больному, подсказывает правильный ход из состояния депрессии в случае постигших профессиональных неудач и ошибок. Все это помогает формировать философия.

Благодаря теории философского познания раскрываются закономерности природных и общественных явлений, исследуются формы продвижения человеческого мышления к истине, пути и средства ее достижения, обобщаются результаты других наук. В том числе и такой науки как медицина. Однако, медицин принципиально отличается как от известных общественных наук, так и от общественно-научных и гуманитарных дисциплин. Она представляет собой уникальное единство познавательных и ценностных форм умственного отражения и практического преобразования человеческой жизни. Последнее и сближает медицину с философией.

В.И. Катеров рассматривает врачебно-клиническое мышление двояко: с одной стороны, как философию (врачебное мировоззрение), с другой − как метод. В соответствии с этим врачебно-клиническое мышление определяется как, во- первых, совокупность обще принципиальных взглядов на болезнь, на ее течение и излечение. Во-вторых, оно выступает как комплекс неписанных правил, которыми врач руководствуется в каждом отдельном случае при решении практических задач − постановке диагноза, прогноза и назначении терапии. В-третьих, врачебно-клиническое мышление как своеобразный творческий мыслительный процесс, заключающийся в постоянном решении практических задач, является антиподом стандартизации и шаблонности.

А.С. Попов, В.Г. Кондратьев под клиническим мышлением понимают специфическую умственную деятельность практического врача, обеспечивающую наиболее эффективное использование данных теории и личного опыта для решения диагностических и терапевтических задач относительно конкретного больного. наиболее важной чертой клинического мышления они считают способность к умственному воспроизведению синтетической и динамической внутренней картины болезни.

В то же время, истины и ценности философии, в отличие от истин науки, не носят принудительного характера. У. Джемс (американский философ и психолог) отмечает, что наука одинакова для всех и ее можно усвоить, ее результатам и методам можно

научить и научиться. Изучающий науку обязан принять и усвоить то, что ему говорят. Изучающий философию не обязан воспринимать все, что написано в философских книгах. Но все, что он слушает и читает, должно стимулировать его собственное мышление, делать его культурным. «Философия не печет хлеб, но озаряет духовные перспективы мира и способна преисполнить сердца наши мужеством», - подчеркивает У. Джемс. Философия всегда видит альтернативу, она учит никогда не считать свои собственные взгляды единственно возможными, она учит видеть и выбирать варианты, сознательно, не подчиняясь чужой воле.

Поэтому медицинскому работнику просто необходимо соединять в себе и науку и философию для успешного прохождения своего профессионального и жизненного пути.

Выводы. Таким образом, современная научная философия и вся ее система необходима для адекватного отражения медициной своего объекта − здоровья и болезней человека. От этого взаимодействия выигрывают и медицина, и философия: первая получает твердые мировоззренческие и методологические ориентиры и идейные стимулы для своего развития, а философия науки и медицины впитывает в себя опыт изучения диалектики развития нормальной и патологической жизнедеятельности организма и личности человека.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Введение в философию.Хрестоматия.Часть 1,2/Авторы-составители: Е.А.Андриянова, М.Н.Кузнецова, Л.И. Тетюев. Издание 2-е доп. Саратов: Издательство Саратовского ГМУ, 2005

2. Кохановский В.П. Философия и методология науки. М., 1999. - No4.

4. Интернет ресурсы.

METALLURGIYA XOMASHYO-MINERAL BAZASINING ZAMONAVIY AHVOLI

Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi
Meyliyev To‘lqin Meyli o‘g‘li
Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi
Nazarov Oybek Abdulla o‘g‘li
Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi
Salimov Muxriddin Muhammadi o‘g‘li

Annotatsiya:*Ushbu maqolada foydali qazilmalar konlarini o‘zlashtirishda va boyitish fabrikalarida ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning jadallashtirish va qimmatbaho komponentlarni turli platina guruhi metallari tarkibli texnogen chiqindi va yarim mahsulotlardan ajratib olish texnologiyalarini yaratish bo‘yicha chora tadbirlar o‘rganildi.*

Kalit so‘zlar: *Ma’dan, mineral, nodir metallar, zichlik, qovushqoqlik, bolg‘alanuvchanlik, erish harorati, kristal panjarasi, qattiqlik, mustahkamlik.*

Xom ashyolardan kompleks foydalanishning muhim tomoni shundaki davlat iqtisodi va xalq xo‘jaligida keng qo‘llanishidir. Birgina noyob elementlar elektronika, mashinasozlik, radiotexnika rivojida muhim o‘rin tutadi. Ba’zi minerallar erkin holda ruda tarkibida umuman uchramaydi. Ularni faqat yo‘ldosh usulda qayta ishlab olish mumkin. Hozirgi vaqtda platinoidlar guruhi metallarini, noyob va kamyob yer metallarini faqat kompleks qayta ishlash usuli bilan olish mumkin. Yo‘ldosh usulda ko‘plab rangli metallar olinib shuningdek, oltin va kumush, hamda davlatimizda ishlab chiqiladigan sulfat kislotaning to‘rtdan bir qismi ham yo‘ldosh usulda olinadi. Kompleks qayta ishlash asosida tashkil etilgan yangi uslublar sanoatda yarim o‘tkazgichlar ishlab chiqarish, o‘tga chidamli, yuqori qattiqlikga ega materiallar ishlab chiqarish kabi yo‘nalishlarni kashf qildi. So‘nggi 30 yilliklar mobaynida ruda tarkibida metall miqdori kamayib bormoqda. Ishlab chiqarish unumdorligini oshirish uchun murakkab tarkibli, qiyin ajraluvchi minerallardan chiqindi va balansdan tashqari rudalarni qayta ishlashga to‘g‘ri keladi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonini yanada takomillashtirishni talab qiladi. Ko‘plab rangli metallar ishlab chiqarish vaqtida (mis, nikel, rux, qo‘rg‘oshin, titan va boshqalar), ularning turli texnologik jarayonlar ta’sirida yo‘qotilishi kuzatiladi, yo‘ldosh usulda qayta ishlash esa bu kamchilikarni bartaraf etgan holda yuqori sifatli metall olishni ta’minlaydi. Xom ashyolardan kompleks foydalanishning muhim tomoni shundaki davlat iqtisodi va xalq xo‘jaligida keng qo‘llanishidir. Birgina noyob elementlar elektronika, mashinasozlik, radiotexnika rivojida muhim o‘rin tutadi. Ba’zi minerallar erkin holda ruda tarkibida umuman uchramaydi. Ularni faqat yo‘ldosh usulda qayta ishlab olish mumkin. Hozirgi vaqtda platinoidlar guruhi metallarini, noyob va kamyob yer metallarini faqat kompleks qayta ishlash usuli bilan olish mumkin. Yo‘ldosh usulda ko‘plab rangli metallar olinib shuningdek, oltin va kumush,

hamda davlatimizda ishlab chiqiladigan sulfat kislotaning to‘rtdan bir qismi ham yo‘ldosh usulda olinadi. Kompleks qayta ishlash asosida tashkil etilgan yangi uslublar sanoatda yarim o‘tkazgichlar ishlab chiqarish, o‘tga chidamli, yuqori qattiqlikga ega materiallar ishlab chiqarish kabi yo‘nalishlarni kashf qildi. So‘nggi 30 yilliklar mobaynida ruda tarkibida metall miqdori kamayib bormoqda. Ishlab chiqarish unumdorligini oshirish uchun murakkab tarkibli, qiyin ajraluvchi minerallardan chiqindi va balansdan tashqari rudalarni qayta ishlashga to‘g‘ri keladi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonini yanada takomillashtirishni talab qiladi. Ko‘plab rangli metallar ishlab chiqarish vaqtida (mis, nikel, rux, qo‘rg‘oshin, titan va boshqalar), ularning turli texnologik jarayonlar ta’sirida yo‘qotilishi kuzatiladi, yo‘ldosh usulda qayta ishlash esa bu kamchilikarni bartaraf etgan holda yuqori sifatli metall olishni ta’minlaydi. Xom ashyolardan kompleks foydalanishning muhim tomoni shundaki davlat iqtisodi va xalq xo‘jaligida keng qo‘llanishidir. Birgina noyob elementlar elektronika, mashinasozlik, radiotexnika rivojida muhim o‘rin tutadi. Ba’zi minerallar erkin holda ruda tarkibida umuman uchramaydi. Ularni faqat yo‘ldosh usulda qayta ishlab olish mumkin. Hozirgi vaqtda platinoidlar guruhi metallarini, noyob va kamyob yer metallarini faqat kompleks qayta ishlash usuli bilan olish mumkin. Yo‘ldosh usulda ko‘plab rangli metallar olinib shuningdek, oltin va kumush, hamda davlatimizda ishlab chiqiladigan sulfat kislotaning to‘rtdan bir qismi ham yo‘ldosh usulda olinadi. Kompleks qayta ishlash asosida tashkil etilgan yangi uslublar sanoatda yarim o‘tkazgichlar ishlab chiqarish, o‘tga chidamli, yuqori qattiqlikga ega materiallar ishlab chiqarish kabi yo‘nalishlarni kashf qildi. So‘nggi 30 yilliklar mobaynida ruda tarkibida metall miqdori kamayib bormoqda. Ishlab chiqarish unumdorligini oshirish uchun murakkab tarkibli, qiyin ajraluvchi minerallardan chiqindi va balansdan tashqari rudalarni qayta ishlashga to‘g‘ri keladi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonini yanada takomillashtirishni talab qiladi. Ko‘plab rangli metallar ishlab chiqarish vaqtida (mis, nikel, rux, qo‘rg‘oshin, titan va boshqalar), ularning turli texnologik jarayonlar ta’sirida yo‘qotilishi kuzatiladi, yo‘ldosh usulda qayta ishlash esa bu kamchilikarni bartaraf etgan holda yuqori sifatli metall olishni ta’minlaydi.

Xom ashyolardan komleks foydalanish natijasida mahsulot ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlar ancha qisqaradi. Ayni vaqtda xalq xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan rangli va noyob metallarni ishlab chiqarish uchun 2 mlrd tonna mineral rudalari, 100 kVatt /soat elektr energiya, 6 mlrd m3 tabiiy gaz, 2 mlrd m3 kislorod, 3 mlrd m3 suv va million tonna turli xildagi qo‘shimcha agregatlar sarflanadi. Yo‘ldosh usulda katta hajmdagi xom ashyoni qayta ishlash yuqori samaradorlik keltiradi. Balxash va Ust-Komenogorsk kombinatlarida olinadigan mahsulotning to‘rtdan bir qismi yo‘ldosh usulda ishlab chiqarish hissasiga to‘g‘ri kelsa, sof foydaning esa teng yarmini tashkil etadi. Metallurgiya zavodlarida mahsulot olish uchun xarajatlarning qisqartirilishi, chiqindi gazlarning ushlab qolinishi hisobiga foyda miqdori oshiriladi. Masalan: metallurgiya zavodlari chiqindi gazlari hisobiga olingan sulfat kislota tan narxi, kolchedan yoxud tabiiy oltingugurtdan olingan kislota tan narxiga nisbatan 1,5-2 martaba arzon hisoblanadi.

Tog‘ kon ishlarini tashkil etishda kon yo‘zi balansdan tashqari va noruda foydali qazilmalarni qurulish yoki boshqa maqsadda ishlatish kon ishlari xarajatlarini ma’lum miqdorda arzonlashtirishga va chiqindi tashlash joylarini ifloslanmasligiga olib keladi. Boyitish fabrikalari va metallurgiya zavodlari havo atmasferasini va suvlarni zararlovchi omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Qimmatbaho komponentlarni metallurgiya chiqindi gazlari bilan chiqib ketishini oldini olish uchun ularni ushlab qolib qayta ishlanadi va atmasferani zaralanishdan saqlaydi.

Boyitish fabrikalarida suv tozalash inshoatlarining qurilishi va metallurgiya zavodlarida aylanma suv sxemasining ishlab chiqilganligi nafaqat daryo va dengiz suvlarini, chiqindi suvlar bilan zararlanishini oldini oladi balki uning tarkibidagi foydali komponentlarni: oltin, molibden, volframni olish imkoni mavjud bo‘ladi. Xom ashyodan kompleks foydalanishning baholanishi tartibga keltirilgan normalarga asosan belgilanadi. Kompleks qayta ishlashning muhimlik darajasi xom ashyoning tabiatiga, qo‘llanilayotgan texnalogiyaga, ishlab chiqarish fabrikasining biriktirilganligiga va boshqa ko‘plab omillarga bog‘liq. Ularning belgilanishi har bir jarayon uchun alohida o‘rganilib, xom ashyo uchun o‘rganiladi. Bu ko‘rsatgichlarga erishilgan natijalar yoki kutilayotgan holatlar bog‘liq bo‘lib unda qayta ishlanayotgan mahsulotlar soni, ajralish ko‘rsatgichi, qimmatbaho komponentlarning yo‘qotilishi kabi omillar misol bo‘la oladi. Bu ko‘rsatgichlar ikki asosiy talabga javob berishi kerak: ularni to‘liq ajratib olish va xom ashyodan kompleks foydalanish darajasining to‘g‘ri qo‘yilishi. Xom ashyolarni kompleks qayta ishlashning komplekslik darajasi 2 ta asosiy guruhga bo‘linadi: berilgan mahsulotga nisbatan va hisob-kitob ko‘rsatkichi bo‘yicha.

Berilgan mahsulotga quyidagilar kiradi:

a) xom ashyoda foydali qazilma miqdori (soni, miqdori gr yoki tonnada belgilanadi);

b)chiqindilardagi foydali qazilma miqdori (ishlanadigan chiqindi miqdori, foydali qazilma miqdori);

v) aylanuvchi mahsulotdagi foydali qazilma miqdori (tarkibi va miqdori);

g) yo‘qotilgan foydali qazilma miqdori(hisobga olinmagan yo‘qotishlar miqdori);

Hisob-kitob ko‘rsatkichi bo‘yicha:

a) foydali qazilmani ajratib olish;

b) foydali qazilmaning yo‘qotilishi;

v) yo‘ldosh usulda kelgan xom ashyoning miqdori;

g) tayyor mahsulotdagi foydali qazilma narx miqdori;

d) komples foydalanishning to‘liqliligi;

Hisob-kitob bo‘yicha ko‘rsatkichlarning oxirgi uchtasi yo‘ldosh usulda kelgan xom ashyoning miqdorini to‘liq ajratib olish, tayyor mahsulotdagi foydali qazilma narx miqdori va komples foydalanishning to‘liqliligi asosiy xom ashyoning kompleks foydalanish darajasini belgilovchi ko‘rsatgichlar hisoblanadi. Metall holidagi oltinni ajratib olish uchun xomashyo sifatida oltinli rudalar, ko‘p metallik sulfidli rudalar va ikkilamchi mahsulotlar-ishlab chiqarish va xo‘jalik lom va chiqindilari hisoblanadi. O‘zbekiston qudratli mineral-xomashyo bazasiga ega, bu esa mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun asos bo‘lib,

bugungi kunda 1800 dan ortiq konlarni va foydali qazilmalarning 1000 ga yaqin istiqbolli ko‘rinishini, 118 turdagi mineral xom ashyoni o‘z ichiga olib, ulardan 65 tasi qazib olinishga joriy qilinib qayta ishlanmoqda. 1500 dan ortiq konlar o‘rganilgan, shu jumladan. 188 tasi neft, gaz va kondensat, 48 tasi qimmatbaho metallar, 43 tasi rangli, nodir, noyob va radio faol metallar, 5 tasi qora metallar, 3 tasi ko‘mir, 37 tasi tog‘-kon ma’danlari (rangli), 22 tasi kon va kimyo birikmalari, 30 tasi yaltiroq javohir toshli xomashyo, 525 tasi turli maqsadlar uchun qurilish materiallari va 357 tasi toza va mineral yer osti suvlaridan tashkil topgan resurslardir. Hozirda o‘rganilgan konlarning 40 foizdan ortig‘i o‘zlashtirilmoqdaO‘zbekiston qudratli mineral-xomashyo bazasiga ega, bu esa mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun asos bo‘lib, bugungi kunda 1800 dan ortiq konlarni va foydali qazilmalarning 1000 ga yaqin istiqbolli ko‘rinishini, 118 turdagi mineral xom ashyoni o‘z ichiga olib, ulardan 65 tasi qazib olinishga joriy qilinib qayta ishlanmoqda. 1500 dan ortiq konlar o‘rganilgan, shu jumladan. 188 tasi neft, gaz va kondensat, 48 tasi qimmatbaho metallar, 43 tasi rangli, nodir, noyob va radio faol metallar, 5 tasi qora metallar, 3 tasi ko‘mir, 37 tasi tog‘-kon ma’danlari (rangli), 22 tasi kon va kimyo birikmalari, 30 tasi yaltiroq javohir toshli xomashyo, 525 tasi turli maqsadlar uchun qurilish materiallari va 357 tasi toza va mineral yer osti suvlaridan tashkil topgan resurslardir. Hozirda o‘rganilgan konlarning 40 foizdan ortig‘i o‘zlashtirilmoqdaO‘zbekiston qudratli mineral-xomashyo bazasiga ega, bu esa mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun asos bo‘lib, bugungi kunda 1800 dan ortiq konlarni va foydali qazilmalarning 1000 ga yaqin istiqbolli ko‘rinishini, 118 turdagi mineral xom ashyoni o‘z ichiga olib, ulardan 65 tasi qazib olinishga joriy qilinib qayta ishlanmoqda. 1500 dan ortiq konlar o‘rganilgan, shu jumladan. 188 tasi neft, gaz va kondensat, 48 tasi qimmatbaho metallar, 43 tasi rangli, nodir, noyob va radio faol metallar, 5 tasi qora metallar, 3 tasi ko‘mir, 37 tasi tog‘-kon ma’danlari (rangli), 22 tasi kon va kimyo birikmalari, 30 tasi yaltiroq javohir toshli xomashyo, 525 tasi turli maqsadlar uchun qurilish materiallari va 357 tasi toza va mineral yer osti suvlaridan tashkil topgan resurslardir. Hozirda o‘rganilgan konlarning 40 foizdan ortig‘i o‘zlashtirilmoqda.

XULOSA

Bugungi kunda dunyo miqyosida nodir metallarga bo‘lgan talab juda yuqori bo‘lib, bu metallar doimo ham ma’danlar tarkibida yetarli darajada uchramaydi va natijada kamyob, nodir metallarni ma’lum bir polimetallik ma’danlarni qayta ishlash vaqtida, yo‘ldosh usulda takomillashtirilgan texnologiyalar yordamida ajratib olish usullari ishlab chiqishimiz kerak.. Qimmatbaho komponentlarni turli platina guruhi metallari tarkibli texnogen chiqindi va yarim mahsulotlardan yo‘ldosh usulda ajratib olish texnologiyalarini yaratish hamda amaliyotda qo‘llashimiz kerak. O‘zbekistonning tabiiy mineral resurslarga boy bo‘lishiga qaramay, texnogen chiqindilarni qayta ishlashga jalb qilish iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1.A. Barry Wiils and A. James Finch. Wiil’s Mineral Processing Technology. USA University of Technology, 2007.

2. В.М. Авдохин. Основы обогащения полезных ископаемых. Учебник - М.: МГГУ, 2006.

3. Основы обогащения полезных ислопаемых. Metso. Издание 3. 2010.

4. А.А. Саидахмедов, С.К. Ярлакабов. Роль материала критической крупности при само- и полусамоизмельчении // Передовые научно технические и социально гуманитарные проекты в современной науке – Сборник статей II международной научно-практической конференции // Москва 2018. – с67.5.

5.A. Abdurahmonov. Gidrometallurgiya jarayonlari nazariyasi va dastgohlari. Navoiy, NDKI, 2001.

ABU RAYHON BERUNIYNING ASARLARIDA TA’LIM-TARBIYA MASALALARI

M.A’zamova
FarDU Pedagogika yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola buyuk mutafakkir, qomusiy alloma, astronom, geograf, Sharq uyg`onish davrining asoschilaridan biri Abu Rayxon Beruniyning ta`lim-tarbiyaga oid qarashlariga bag`ishlanadi. Uning turli davrlarda yozilgan asarlaridan olingan parchalari hamda ushbu fikrlarning qisqacha sharhlari bilan ham ushbu maqola sizlarni tanishtiradi.*

Kalit so‘zlar: *Ma`danshunoslik, geografiya, astronomiya, qomusiy, Sanskrit, Ma`mun akademiyasi, shaxs, rivojlanish, ijtimoiy muhit, jamiyat, ilm, tarbiya, pedagogika, irsiyat.*

Pedagogika fani tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Vatanimizda yetishib chiqqan buyuk qomusiy olimlarning pedagogik qarashlarida olg’a surilgan insonparvarlik, komil insonni yetishtirish, yoshlarda insoniy fazilatlarni shakllantirish xususidagi g’oyalari, ta’lim, bilim berish, tarbiyalash vositalari, ta’lim va tarbiyani amalga oshirish usullari haqidagi tavsiyalari milliy pedagogika tarixi rivojiga qo‘shgan hissalari bugungi kunda ham yoshlar tarbiyasi uchun xizmat qilmoqda.Xuddi shunday qomusiy olimlarimizdan biri Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al -Beruniy (973-1048)hisoblanadi. . U zot Xorazmning Kat shahrida tugilgan. Zehni nihoyatda o‘tkir bolgan Beruniy Xorazm Ma`mun akademiyasida ijod qilgan. Olim ayniqsa, astronomiya, matematika, fizika, madanshunoslik, geografiya, til, tarix kabi fanlarni puxta egalladi. Ayni paytda ozi ham bu fanlar taraqqiyotiga ulkan hissa qoshdi. Beruniy zamonasining mashhur olimi Abu Nasr Mansur ibn Iroq qolida talim oladi, osha paytlar Buxoroda yashayotgan bolajak olim Abu Ali ibn Sino bilan yozishmalar orqali ilmiy muloqotda boladi. U ona tilidan tashqari arab, sugdiy, fors, suryoniy, yunon tillarini, keyinchalik Hindistonda sanskrit tilini o‘rgandi., yunon tilini esa yunon millatiga mansub qo‘shnisidan organgan. Bu esa o‘z navbatida Beruniyga mazkur tillardagi asarlar bilan chuqur tanishishga imkoniyat yaratdi. Xorazmdagi siyosiy vaziyatni ozgarishi natijasida Beruniy 998 yili Jurjon shahriga ketishga majbur boladi. U bu davrga qadar Kot va Ray shaharlarida ozining dstlabki ilmiy izlanishlarini boshlab yuborgan edi. Jorjonda kechgan yillar (yillar) Beruniy uchun yirik izlanishlar va ijodiy kamolot davri bo‘ldi.

Sharq uyg`onish davrining asoschilaridan biri bo‘lgan ushbu buyuk allomaning ilmiy izlanishlarining mahsuli hozirgi davr rivojotida ham o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. Har bir sohada tarixiy tajribalarga alohida e`tibor qaratilar ekan,aynan bilimlarning o‘zlashtirilishi, jamiyatdagi axloqiy normalarga bo‘ysunish shartlari biroz qiyindek tuyuladi. Lekin barcha qomusiy allomalar kabi Beruniy ham bilimlarning boshi oilada egallanishi zarurligini uqtiradi. Olim “Daryolarning suvi dengizga quyilganda uning suvi o‘zgarmaganidek, amal va lazzat ham ilm oluvchiga ta`sir etmasligi kerak”, deydi. Darhaqiqat bu so‘zlar, ilm

oluvchining naqadar pok, axloqli, vijdon sohibi bo‘lishi kerak ekanligini, ilmni muqaddas deb bilmoq, unga daromad va amal manbai emas , ezguliklar kaliti sifatida qaramoq kerak ekanligini ko‘rsatadi. Xususan, allomaning quyidagi pedagogik tamoyillari, o‘quv-tarbiya shakllari va usullarining shaxsni kamolga yetkazishdagi o‘rni va roli beqiyosdir.. Beruniyning ta’kidlashicha, bilim olish va insoniyat yaratgan bilimlarni egallash uchun o‘quvchi-talabadan dastlab axloqiy poklik talab qilinadi. Shuningdek, ta’lim bilan tarbiyaning bir butunligini ko‘rsatadi, faqat shu birlikka amal qilgan shogirdlar kamolot sari bora oladi, deb ishontiradi. O‘quvchi-talabalarning yaxshi o‘qishi uchun muallim rostgo‘y, savodxon,shogirdlariga prinsipial yumshoq muomalali bo‘lishi kerak. Muallim o‘quvchi-talabani doimo to‘g‘ri yo‘lga boshlashi, uning sezgir va talabchan bo‘lishi lozimligini uqtiradi. Zotan, o‘quvchi-talabaga mehr-muhabbatli bo‘lish ta’lm-tarbiya mezonidir. Beruniy o‘qitish jarayoni muallimning o‘qib-o‘rgatishi, takrorlashi bilan bevosita bog’liq ekanini alohida uqtiradi. Allomaning aynan “Bilim qaytarish va takrorlashlarning mevasi” qabilidagi hikmatli sozlari ham o‘z fikrlarining isboti sifatida shu kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Shuningdek, u kitob o‘qishning usul va metodlariga alohida e’tibor beradi. Kitoblarni shunchaki emas, balki fikrlab, kichik-kichik bo‘limlarga bo‘lib o‘qish, hamma o‘qilgan joylarini umumlashtirib, qayta o‘qish haqida didaktik mulohazalar bildiradi. Beruniy o‘qitishga faqat induktiv yo‘l bilangina emas, balki deduktiv yo‘l bilan ish tutish lozimligini ta’kidlaydi. Bunda olim har qaysi metodni o‘z joyida qo‘llamoq zarurligini yaxshi bilgani ko‘rinib turibdi. Bunday o‘qish tafakkurni o‘stirib, bilishning sifatini yaxshilaydi, aqliy bilimlarni boyitadi.Abu Rayhon Beruniy dastlab o‘quvchi-talabaning ongli o‘qishi, matnning hajmi kichik, mazmuni sodda,keyinchalik esa hajmni katta mazmuni murakkabroq bo‘lganlarini o‘qishga kirishishi, o‘qish jarayonida taqqoslash, qiyoslashga e’tibor berish talabalarning ongli bo‘lishiga asos solishini eslatib o‘tgan. Olim o‘qilganlarning hammasini qaytarib o‘qish deganda, asosan, xato qilmay, so‘zlarni buzmay, ortiqcha tovush ishlatmay, bo‘g‘inlarni tushirib qoldirmay, so‘z urg‘usini o‘z o‘mida qo‘llab to‘g‘ri o‘qishni ta’kidlaydi. O ‘qishning tez, to‘g‘ri va ifodali bo‘lishi, o‘qish davomida bolaning o‘z-o‘zini tuzatib borishi xatosiz o‘qishga yordam beradi. Bunday o‘qishda asosiy mazmunini tushunib so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilib va ifoda etilgan voqealarning ichki va tashqi mohiyatini anglab o‘qishni ta’kidlaydi., Hozirgi vaqtda o‘quvchi-talabaning savodli o‘qishida to‘rtta asosiy tarkibiy qism, ayniqsa,ahamiyatlidir. Bular ongli, ifodali, to‘g‘ri va tez o‘qishdir. Ular o‘zaro ichki bog’lanish motivlariga ega.O‘rta asrning buyuk donishmandi Beruniy o‘qishhaqida ana shu o‘zaro bog’liqlik o‘quvchi-talabalarning o‘qish faoliyatini mukammallashtirishga, rivojlantirishga imkon yaratishini nazarda tutgan edi.

Abu Rayhon Beruniy ilm olishda takrorlashni ustun qo‘yadi, shu bilan birga, bilim berish xilma-xil yoki bilan, eng muhimi, o‘quvchi talabani toliqtirmasdan, charchatmasdan turli vositalar bilan o‘quvchi xotirasini kuchaytirish, tafakkurini boyitish va bilishni chuqurlata borish orqali amalga oshirilishi zarurligini uqtiradi.

U haqiqiy maqsadga erishish uchun yo‘lini to‘sib turgan hamma noaniqliklar va shubhalarni bartaraf qilish, bunda juda ehtiyotkorlik bilan harakatlanish

lozimligi,o‘zlashtirilgan bilimlar hayotda tajriba qilib olinmasa, bundan hech naf bo‘lmasligihaqida gapiradi. X-XI asrlarda Beruniyning didaktikasidagi ta’lim berish usullari va metodlari ayrim jihatlarining soddaligi va qarama-qarshiliklariga qaramasdan, katta kashfiyotligi va ilmiyligi bilan qimmatlidir. Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo‘llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir.

O‘quvchiga bilim berishda:

- o‘quvchini zeriktirmaslik;
- bilim berishda bir hil narsani yoki bir hil fanni o‘rgatavermaslik;
- uzviylik, izchillik;
- tahlil qilish va taqqoslash;
- ma’lumdan noma’lumga, yaqindan uzoqqa, soddan qiyinga qarab borish; takrorlash;
- yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko‘rgazmali bayon etish va hokazoga e’tibor berish kerakligi uqtiriladi.

Beruniy fan sohasidagi yodgorliklarni, ilmiy bilimlarga oid qoldirilgan barcha boyliklarni qunt bilan o‘rganishga da’vat etadi.Olim ilm toliblariga qalbni yomon illatlardan, inson o‘zi sezishi mumkin bo‘lmagan holatlardan, qotib qolgan urf-odatlardan, hirsdan, behuda raqobatdan, ochko‘zlikdan, shon-shuhratdan saqlanishi zarurligini o‘qtirgan.

Shuningdek, har bir xalqning o‘ziga hos ta’lim usullari, yo‘llari, shakllari borligini ta’kidlash bilan birga har bir halqning ham o‘qitish tizimi alifbodan boshlanishini ko‘rsatadi. Grammatika, matematika fanlarini o‘qitishga oid qimmatli fikrlar bayon etadi. Beruniy til va adabiyot, tarix, geografiya, geodeziya, biologiya, mineralogiya fanlari, tibbiyot va dorishunoslik, fizika, falakiyot ilmiga oid tadqiqotlarini o‘zi targ’ib etgan nazariya hamda kuzatishlar natijasida amaliyotda sinab ko‘rib, fanda haqiqat ustivor turishini ta’kidladi. U barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlikda deb biladi. Ilmlarni egallashda esa shahsda intilish va qiziqish, muhitni alohida ta’kidlaydi. Bilim olishda tushunib o‘rganish, ilmiy tadqiqotchining poklikka rioya etishiga alohida e’tibor beradi. Jamiyatning ravnaqi, ma’rifatning rivojiga bog’liq degan g’oyani ilgari so‘radi. Beruniy bilim olishni ahloqiy tarbiya bilan bog’laydi. Zero, insonda komillikning muhim mezoni yuksak ahloqlilikdir.

Beruniyning inson kamolotida ahloqiy tarbiyaning muhim o‘rnini ta’kidlashini uning yuqorida qayd etilgan «O‘tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Mineralogiya», «Kitob as – Saidona», «al – Qonuni al – Mas’udiy», «Giodeziya» va boshqa asarlarida ko‘ramiz.Uning fikricha, ahloqiylik insonning eng asosiy sifati bo‘lishi kerak. Bu hislat birdaniga tarkib topmaydi. U kishilarning o‘zaro muloqoti, ijtimoiy muhit – jamiyat taraqqiyoti jarayonida tarkib topadi.Beruniy ham ahloqiy tarbiyaga musulmon dini talablaridan kelib chiqqan holda ta’rif beradi. Ahloqiylik yahshilik bilan yomonlik o‘rtasidagi kurash natijasida namoyon bo‘ladi va tarkib topadi deydi, u. Yahshilik va yomonlik insonning hulq-atvorini belgilaydigan mezon sifatida qo‘llaniladi.U yahshi hislatlarga to‘g’rilik, odillik, o‘zini vazmin tutish, insof, kamtarlik, lutf, sobitqadamlik, ehtiyotkorlik, sahiylik, shirinsuhanlik, rahbarlikda adolatlilik, tadbirkorlik kabilarni kiritadi. Yomon illatlarga esa hasadgo‘ylik, bahillik, nosog’lom raqobat, o‘z manfaatini

ko‘zlash, mansabparastlik va hokazolarni kiritadi.Beruniy fahrlanishni yahshi hulq ma’nosida ishlatib, «Yodgorliklar»da shunday deydi: «Fahrlanish – Haqiqatda yahshi hulqlar va oliy fe’llarda oldin ketish, ilmu hikmatni egallash va imkoniyat boricha mavjud nopokliklardan tozalanishdir. Kimda shunday sifatlar topilsa, Hukm uning foydasiga va kimda bular etishmasa, hukm uning zarariga bo‘ladi»

Ma’lum bir davrda olimlar inson kamolotiga irsiyat, muhitning ta’sirini inkor etib, faqat tarbiyani tan oldilar. Lekin Beruniy o‘z zamondoshlari – buyuk mutafakkirlar Forobiy, Ibn Sinolar kabi inson kamolotida har uchalasini ham muhim deb hisoblaydi. Ya’ni u insonning kamolotga etishida ilmu ma’rifat, san’at va amaliyot asosiy rol o‘ynasa-da, nasl-nasab, ijtimoiy muhit va ijtimoiy turmush qonuniyatlari ham katta ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi.Abu Rayhon Beruniy nazarida inson kamolga etishining eng muhim omillari ilm ma’rifatli bo‘lish va yuksak ahloqlilikdir.Abu Rayhon Beruniy ta’limiy-axloqiy qarashlari bilan ta’lim nazariyasida o‘ziga hos maktab yaratdi va bu maktab davomchilari 21 asrni “Oltin asr” ga aylantirish taraddudida olimning bebaho merosidan oqilona foydalanmoqdalar. Allomaga bo‘lgan chuqur ehtirom va hurmat nishonasi uning qarashlarini hayotga tatbiq etishlik hamda tarixiy tajriba yordamida ulkan cho‘qqilarni zabt etmoqlikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.A.Zununov. Pedagogika tarixi. Toskkent-2004.
2.M.Qurbonov.Ijtimoiy pedagogika. - Toshkent,2003,41-b
3.J. Hasanboyev. Pedagogika,-"Noshir'Toshkent,20n, 33 -b
4.B.X.Xodjayev Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent,2017
5.K. Hoshimov,S. Nishonova. Pedagogika tarixi, Toshkent 2005 ,84-90 –b
6.Yusufovich, A. A. (2022). BO ‘LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASLALARI. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(23), 120-124.
7.Yusufovich, A. A. (2022). BO’LAJAK PEDAGOGLARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 10(10), 224-227.
8.Yusufovich, A. A., & Alisher o'g'li, E. O. (2022). PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR THE FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(6), 1157-1161.
9.Ахмедов, А., Эгамбердиев, А., & Сотволдиева, О. (2022). The role of pedagogical technologies in improving the quality of education. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), 59-60.
10.Yusufovich, A. A. (2020). ISSUES OF FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE, WHICH IS AN INTEGRAL PART OF PROFESSIONAL-

PEDAGOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(7).

11.Yusufovich, A. A. (2022). Developing the communicative competence of future teachers is an effective measurement for self-organization. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(1), 302-304.

12.Yusufovich, A. A. (2022). BO ‘LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASLALARI. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(23), 120-124.

13.Yusufovich, A. A. (2022). DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FUTURE PSYCHOLOGISTS IS THE MOST IMPORTANT CONDITION FOR INCREASING THE QUALITY OF EDUCATION. Science and Innovation, 1(1), 572-586.

https://tma.uz/

BEGONA O‘TLAR VA ULARGA QARSHI KURASH, TUPROQ MUHITINING AHAMIYATI

Mirzahamdamova Shohsanam Komiljon qizi
Axmadova Aziza Jahongir qizi
Po‘latova Sevinch Vahobjon qizi

Annotatsiya: *Begona o‘tlarga qarshi samarali kurashish uchun ularning tarqalishini oldini olish tadbirlarini agrotexnik tadbirlar bilan birgalikda olib borish zarur. Agrotexnika tadbirlarini amalga oshirish muddati va qo‘yilgan vazifalarga ko‘ra kuzgi shudgorlash, yerga ekin ekishdan oldingi, ekin ekilganidan keyingi va qator oralariga ishlov berishdagi tadbirlarga bo‘linadi. Kuzgi shudgorni sifatli qilib ikki yarus pluglar bilan o‘tkazish begona o‘tlar sonini keskin kamaytiradi. Chimqirrali plug bilan tuproq yuzasiga to‘kilgan begona o‘t urug‘lari 30-35 sm chuqurlikka ko‘milsa, ma’lum miqdorda unuvchanligini yo‘qotadi.*

Kalit so‘zlar: *begona o‘tlar, tarqalishi, tuproq, qarshi kurash, shudgorlash, karantin tadbirlar.*

Аннотация: *Для эффективной борьбы с сорняками необходимо проводить мероприятия по предупреждению их распространения совместно с агротехническими мероприятиями. По периоду выполнения агротехнических мероприятий и задач зяблевая вспашка подразделяется на мероприятия до посева, после посева и междурядья. Качественная зяблевая вспашка двухъярусными плугами резко снизит количество сорняков. Семена сорняков, высыпанные на поверхность почвы плугом, теряют некоторое количество плодородия, если их заглубить на глубину 30-35 см.*

Ключевые слова: *сорняки, распространение, почва, борьба, обработка почвы, карантинные мероприятия.*

Abstract: *In order to effectively fight against weeds, it is necessary to carry out measures to prevent their spread together with agrotechnical measures. According to the period of implementation of agrotechnical activities and tasks, fall plowing is divided into activities before planting crops, after planting crops, and between rows. High-quality fall plowing with double-layer plows will dramatically reduce the number of weeds. Weed seeds, which are spilled on the surface of the soil with a plow, lose a certain amount of fertility if they are buried to a depth of 30-35 cm.*

Key words: *weeds, spread, soil, control, tillage, quarantine measures.*

KIRISH

Dalalarni begona o‘tlardan toza bo‘lishini ta’minlashda ularni tarqalishini oldini olish tadbirlari muhim ahamiyatga ega. Ko‘pchilik begona o‘tlarning urug‘i ekin bilan birga yetiladi. Hosil yig‘ishtirib olinganda ular donga aralashib ketadi. Odatda bug‘doyga olabuta, ismaloq, beda urug‘iga zarpechak, sholiga kurmak aralashgan bo‘ladi. Urug‘likni tozalash ekinning sof bo‘lishiga imkon beradi. Begona o‘tlar urug‘i yetilmasdan ekinlar hosilini yig‘ib olish urug‘likning toza bo‘lishini ta’minlaydi. Bedani 15-25% gullaganda o‘rish begona o‘tlar

urug‘i yetilishiga yo‘l qo‘ymaydi. Kanal, ariq, zovur yo‘l yoqalarida o‘sadigan begona o‘tlarni urug‘lamasdan yo‘qotib turish suv orqali urug‘lar tarqalishining oldini oladi. Begona o‘tlar tarqalishini oldini olish uchun dalalarga yaxshi chirigan go‘ng solish kerak. Chirimagan go‘ngda esa begona o‘t urug‘lari ko‘p bo‘ladi. Ekinlar ko‘chat qalinligi siyrak bo‘lsa begona o‘tlar o‘sishiga Imkoniyat yaratiladi. Shuning uchun ko‘chat qalinligi normal bo‘lishiga erishish lozim. Bir xil ekin surunkasiga ekilaversa, shu ekin agrotexnikasiga moslashgan begona o‘tlar ko‘payib ketadi. Buni oldini olish uchun agrotexnikasi bir-biridan keskin farq qiladigan ekinlar navbatlab ekish lozim.

Karantin tadbirlar. Begona o‘tlarni tarqalishining oldini olish uchun ichki va tashqi karantin tadbirlari qo‘llaniladi. Ichki karantin mamlakat ichidagi xavfli begona o‘tlarni bir viloyatdan ikkinchi viloyatga o‘tishini oldini oladi. Tashqi karantin esa chetlardan ashaddiy begona o‘tlarni O‘zbekistonga kirib kelishini oldini oladi. Ichki karantin begona o‘tlarga yovvoyi gultojixo‘roz, ajriq, g‘umay, kakra, salomalaykum, achchiqmiya, oqmiya, kampirchopon, devkurmak, g‘ovkurmak, zarpechak va boshqalar kiradi

Begona o‘tlarga qarshi samarali kurashish uchun ularning tarqalishini oldini olish tadbirlarini agrotexnik tadbirlar bilan birgalikda olib borish zarur. Agrotexnika tadbirlarini amalga oshirish muddati va qo‘yilgan vazifalarga ko‘ra kuzgi shudgorlash, yerga ekin ekishdan oldingi, ekin ekilganidan keyingi va qator oralariga ishlov berishdagi tadbirlarga bo‘linadi. Kuzgi shudgorni sifatli qilib ikki yarus pluglar bilan o‘tkazish begona o‘tlar sonini keskin kamaytiradi. Chimqirrali plug bilan tuproq yuzasiga to‘kilgan begona o‘t urug‘lari 30-35 sm chuqurlikka ko‘milsa, ma’lum miqdorda unuvchanligini yo‘qotadi. G‘umay, ajiriq, qamish kabi ildizpoyali begona o‘tlarni shudgorlashdan oldin ag‘dargichi olingan plugda 18-22 sm chuqurlikda yumshatib, so‘ngra chizel yordamida ildizpoyalarni tirmalab olish kerak. Har yil o‘zgargan chuqurlikda haydash ham begona o‘tlarni kamaytiradi. Agar yer birinchi yili 40 sm chuqurlikda, keyingi yillarda 25,30,35 va 40 sm chuqurlikda shudgorlansa begona o‘t urug‘lari tushgan qatlam uch yilgacha yer betiga chiqmaydi va unuvchan urug‘lar miqdori kamayadi. Begona o‘tlarga qarshi maxsus choralarga biologik, olovli kurash, mulchalash kabi usullar kiradi. Almashlab ekish, ekinlarning ekish muddatlari, me’yorlari begona o‘tlarning zararkunandalari va kasalliklaridan foydalanish biologik kurash usuliga kiradi. Agrotexnikasi turlicha bo‘lgan ekinlarni navbatlab ekish begona o‘tlarni keskin kamaytiradi. Masalan, bedadan keyin paxta ekilsa, begona o‘tlar soni 40-50% kamayadi. Shumg‘iyaga qarshi fitomiza pashshasi qo‘llanilganda uning urug‘i 71% gacha kamayadi.

G‘alla ekinlarida 2,4 -D ning aminli tuzlari yoki eferlari ishlatiladi. Solish me’yori 1-2 kg/ga, 300 l/ga suvda eritib, samolyotda 600 l/ga suvda eritib OVX - 28 purkagichida purkash mumkin. Shuningdek, hozirgi kunda bug‘doyda granstar gerbitsidi ham qo‘llaniladi. Shotida yalan (8-16lcg/ga), propanid (16-30kg/ga), g‘allada trillat (2-4 kg/ ga) gerbitsidlaridan foydalaniladi. Sabzida linuron (0,8-3,0 l/ga) kerosin (300-400 l/ga), piyozda ramrod (4,6-6,6 l/ga) kabi gerbitsidlar qo‘llaniladi. Begona o‘tlarga qarshi kurashda agrotexnik, biologik va kimyoviy kurash choralarini uyg‘unlashgan holda olib borish kerak. Paxta hosildorligini oshirish va uning yalpi hosilini ko‘paytirishga paxtachilikda kompleks mexanizatsiyani va o‘simliklami himoya qilishda ximizatsiyani keng joriy qilish hamda

dehqonchilik madaniyatini yuksaltirish tufayli erishildi. Shuningdek, respublika paxtakorlari keyingi 10 yil ichida asosiy paxta maydonlaridagi va dala atroflaridagi begona o‘tlarni yo‘qotish, begona o‘tlar oqibatida ko‘riladigan zararni kamaytirish, qo‘l mehnatini kamaytirish, mashinalarning ish unumdorligini oshirish va mashina bilan terib olinadigan paxtaning sifatini yaxshilash maqsadida qo‘llangan kompleks tadbirlar ham bu borada muhim rol o‘ynaydi. Begona o‘tlar paxta hosildorligini oshirishda asosiy to‘siqlardan biri hisoblanadi. Sug‘orma dehqonchilik zonalarida begona o‘tlarning avj olib o‘sishi, rivojlanishi va tez ko‘payishi munosabati bilan ular g‘o‘zaning eng xavfli dushrnaniga aylanib bormoqda. Hozir almashlab ekish dalalarida 74 xildan ko‘proq begona o‘tlar uchraydi. Ular orasida bir yilliklardan olabuta, machin, shamak, bo‘ritaroq, ituzum, semizo‘t, itqo‘noq, ko‘k itqo‘noq, dag‘al kanop va boshqalar; ko‘p yilliklardan g‘umay, ajriq, qo‘ypechak, bo‘ztikan, yantoq, salomalaykum va hokazolar bor. Paxta dalalarida tarqalgan begona o‘tlarning biologik xususiyatlariga kelsak, ular nihoyatda tez ko‘payadigan, urug‘larini osongina sochadigan va turti vaqtlarda ko‘karadigan bo‘lib, nihollari bir tekisda unrnastigi bilan ajralib turadi. Ko‘p yillik begona o‘tlarning ildiz bachkilari juda yashovchi bo‘ladi. Yer betiga chiqarilgan begona o‘t qoldiqlari nam yetarli bo‘lgan sharoitda tez ko‘karadi, oson ildiz otadi. Begona o‘tlarning ildizlarida kurtaklar rivojlanadi va ulardan ham ustki poyalar mustaqil yashay oladigan o‘simlik turlari paydo bo‘ladi. Ekinlarni sug‘orishda beriladigan suvlar (ular bilan begona o‘tlarning urug‘lari va vegetativ poyalari uzoq-uzoq masofalarga tarqaladi), tuproqni ekish oldidan yumshatish va qator oralarini o‘z vaqtida ishlamaslik, sug‘orish paytida chimdan foydalanish, shuningdek, surunkasiga yaxshi chiritilmagan go‘ng sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, oldini olish choralari qo‘llanilmaganda paxta maydonlari atrofida, sug‘orish shaxobchalari bo‘ylarida, yo‘l yoqalarida hamda bo‘sh yotgan yerlarda yoz fasli davomida begona o‘tlar bir necha marta urug‘ bog‘lashga ulgurdi. Bu xildagi shamol hayvonlar va parrandalar orqali tarqalib, yana ekin maydonlariga kelib qoladi. Turli xil begona o‘tlarning urug‘lari, ildiz poyalari va ildiz-bachkilari har qanday tuproq iqlim sharoitida, hatto eng takomillashgan agrotexnika tadbirIari qo‘llanilganda ham, tuproqning 0-30 sm li haydalma qatlamida to‘planadi, bir yillik begona o‘tning asosiy qismi esa tuproqning yuza qavatida (0-10 sm) ko‘karib chiqadi. Olimlar tomonidan aniqlanishicha, tuproqning haydalma qatlamida bo‘ladigan begona o‘t urug‘lari zahirasi gektariga 0,3 dan 3-4 mlrd donagacha boradi. Olimlar begona o‘tlarga qarshi 10-15 yil mobaynida surunkasiga olib borgan kurash tadbirlari tufayli tuproqdagi begona o‘t urug‘lari miqdori 50-70 mln. donagacha kamaygan. Begona o‘tlarni bundan ortiq kamaytirish mumkin emas ekan. Buni begona o‘tlar tez ko‘payishi xususiyatiga ega ekanligi, ularning zahirasi har yili yangilanib turishi, shuningdek, begona o‘t urug‘larining yashovchanligi, uzoq muddat saqlanishi bilan izohlash mumkin. Begona o‘tlar yaxshi o‘g‘itlangan maydonlarda madaniy ekinlar (g‘o‘za, makkajo‘xori, beda va boshqalar) bilan kuchli darajada raqobatlik qiladi va oqibatda ko‘riladigan zarar ko‘pincha ancha yuqori bo‘ladi. Bir qator begona o‘tlar ma’lum turdagi mineral o‘g‘itlar bilan oziqlanishga juda ta’sirchan bo‘ladi va ulardan intensiv ravishda foydalaniladi. Masalan, azot o‘g‘itlar bilan yaxshi ta’minlanadigan sharoitda sho‘ra va olabuta ildizlari va yer usti qismlari avj olib o‘sadi. Itqo‘noq, ko‘k itqo‘noq va shamakda bu

xildagi kuchli o‘sish o‘simliklar fosforli o‘g‘itlar bilan yaxshi ta’minlangan hollarda sodir bo‘ladi. Mineral o‘g‘itlar me’yorini oshirish begona o‘tlarning o‘sishi va rivojlanishini g‘o‘zaga nisbatan 10-15 marta kuchaytiradi. Mineral o‘g‘itlarning oshirilgan me’yorini qo‘llanilishi munosabati bilan begona o‘tlarni yo‘qotish bo‘yicha kompleks kurash choralarini joriy etish asosiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Almashlab ekish dalalaridagi va tuprog‘i ishlanmaydigan maydonlardagi begona o‘tlarga qarshi qo‘llaniladigan tadbirlar kompleksiga biologik, kimyoviy va agrotexnik kurash choralari kiradi. Bu xildagi kurash choralari paxta hosilini oshirish bilan birga paxtachilikka katta zarar keltirayotgan begona o‘tlarni butunlay qirib tashlash imkonini beradi. Tuprog‘i o‘rtacha va kuchli darajada sho‘rlangan, tuproq unumdorligi unchalik yuqori bo‘lmagan yerlarda joriy etish uchun tavsiya etilgan 3:6 va 2:4: 1:3 dalali almashlab ekish sxemalari begona o‘tlarni yo‘qotishda eng samarali tadbirlardan hisoblanadi. G‘o‘za - beda almashlab ekishning o‘t dalasida bedaning bir tekisda qalin bo‘lishi paxta maydonlarini butun rotatsiya davomida o‘tlardan holi tutish imkonini beradi. Unumdorligi yuqori bo‘lgan bo‘z tuproqlar uchun g‘o‘za-beda almashlab ekishning 3:7 dalali sxemasi mos keladi. Bunda almashlab ekish dalalarida ekinlarning navbatlanishi munosabati bilan yorug‘lik va sug‘orishga bo‘lgan talab har xil bo‘lganligidan dalalardagi ekologik rejim ham keskin darajada o‘zgaradi. Bu esa o‘z navbatida begona o‘tlarni siqib qo‘yishi va ularni butunlay yo‘qotishga olib boradi. Begona o‘tlarga qarshi kurashish borasidagi agrotexnik kurash tadbirlari sistemasida yer haydash muhim ahamiyat kasb etadi. Yer haydashdan maqsad tuproqni yumshatish va ularning urug‘larini yerga chuqur ko‘mib yuborishdir. Yer qo‘sh yarusli plugda qavat-qavat haydalganda tuproqning haydalma qatlami ikki qavatga bo‘linib, ustki qavati plug tomonidan ochilgan egat tubiga tashlanib, pastki qavati uning ustiga ag‘dariladi. Bu bilan tuproq haydalma qatlamining to‘la ag‘darib (1800ga) haydalishi ta’minlanadi. Natijada, tuproqqa chuqur ko‘mib yuborilgan begona o‘t urug‘lari va ularning qoldiqlari qayta ko‘kara olmaydi. Dala atroflari sug‘orish shaxobchalari va novlar yaqinidagi joylarni sifatli qilib haydash ham muhim ahamiyatga ega. Chunki bu xildagi yerlarda asosan ildizpoyali ko‘p yillik o‘tlar tarqalgan bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Kimsanboyev X.X., Yo‘ldoshev A. va boshqalar - O‘simliklarni kimyoviy himoya qilish. Darslik - T.: “O‘qituvchi”, 1997.-280 b.

2. Xo‘jaev SH.T., Xolmurodov E.A. - “Entomologiya, o‘simliklarni zararkunandalardan uyg‘unlashgan himoya qilish, qishloq xo‘jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari”. Darslik - Toshkent, “Fan” nashriyoti, 2009.-396 b.

3. Xasanov B.O. va boshqalar “G‘o‘zani zararkunanda kasallik va begona o‘tlardan himoya qilish”. Darslik- “Universitet” nashriyoti, Toshkent. 2002.-379 b.

4. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligida ishlatish uchun ruxsat etilgan pestitsidlar va agroximikatlar ro‘yxati. “O‘simliklar himoyasi va karantini” jurnali ilovasi. Toshkent, 2013.-335 b.

5. Yaxontov V.V. - O‘rta Osiyoda qishloq ekinlarining va mahsulotlarining zararkunandalarini va ularga qarshi kurash. Darslik- T., 1962. -186 b.

OQOVA SUVLARNI TABIIY YO'L BILAN TOZALASH USULLARI

Orzimatov Jaxongir Tajaliyevich
FarPI, PhD
Toshpo’latov Jo’rabek Otabek-o’g’li
FarPI magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oqova suv tarkibida har xil zararli moddalar bo'lgan sizot suvlarini tozalab ulardan xalq xo'jaligida va sanoatda qayta foydalanish haqida ma'lumot berib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *organoleptik, fizik-kimyoviy, dispers ko'rsatkichlar, rekuperatsion va destruktiv usullar, yopiq zanjirli tizimlar.*

Atrof-muhitni antropogen ta'sirlardan himoya qilishga bugungi kunda dunyo miqyosida katta e'tibor berilmoqda. Sanoatning, shu jumladan, kimyo sanoatining jadal rivojlanishi, xomashyo qazib olishning ko'payishi, transportdan foydalanishning oshib borishi atrof-muhitga juda ko'plab chiqindilar tashlanishiga sabab bo'lmoqda.

Mamlakatimizda va chet davlatlarda atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish bilan oldini olish maqsadida tegishli qonunlar ishlab chiqilmoqda, turli texnologik, sanitartexnik, texnik, tashkiliy boshqa chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Sanoatning rivojlanishi, qishloq xo'jaligining sanoat asosiga o'tkazilishi, shaharlarning o'sishi, odamlarning ko'payishi suv iste'molining ortishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda 418 sanoat korxonalarida tarkibi turlicha bo'lgan oqova suvlar hosil bo'lmoqda. Tabiiyki ularni tozalash uchun zamonaviy tozalash inshootlari va texnologiyalarini yaratish hamda joriy etish hozirgi kunning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, sanoat korxonalarida suvning yopiq zanjirli tizimini hosil qilish hisobiga toza suv iste'molining kamaytirish ham asosiy muammolardan biridir. Buning uchun shu sohada ishlovchi mutaxassislarda yetarlicha bilim, ko'nikma va malakalar bo'lishi talab etiladi. Oqova suvlarni tabiiy yo'l bilan tozalashda birinchi navbatda ularning zaralilik darajasini undagi ifloslantiruvchi moddalarning xususiyati va tarkibiga bog'liq. Og'ir metallarning tuzlari, sianidlar, fenollar, vodorod sulfid, kanserogen moddalar va boshqa shu kabi moddalar oqova suvning yuqori darajada zaharlanishiga va hidi o'zgarishiga olib keladi.

Oqova suvlarning ishqoriy va kislotali bo'lishi quvur materialiga, kanalizatsiya kollektorlariga va tozalovchi inshootlarning uskunalariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Sanoat oqova suvlarining ifloslilik darajalari doimo nazorat qilib turiladi. U quyidagi ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi:

1. Organoleptik ko'rsatkichlar (suvning rangi, mazasi, hidi, tiniqligi, loyqaligi va boshqalar).

2. Fizik-kimyoviy ko'rsatkichlar (optik zichligi, pH, harorati, elektr o'tkazuvchanligi, ishqoriyligi, kislotaliligi, qattiqligi, oquvchanligi, zichligi, sirt tarangligi va boshqalar).

3. Erigan organik va anorganik moddalar aralashmasining miqdori, kislorodga bo'lgan kimyoviy ehtiyoj va kislorodga bo'lgan biokimyoviy ehtiyoj.

4. Dag'al dispers, kolloid zarrachalar shaklida aralashmalarning mavjudligi.

Oqova suvlarni samarali tozalash sxemasini tanlab olish uchun eng qulay bo'lgan sinflanish akademik L.A.Kulskiy tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu sinflanishga binoan oqova suvlar 4 guruhga bo'linadi:

1-guruh - tarkibida o'lchamlari 10-3 /10-5m bo'lgan suvda erimaydigan yirik dispersli zarrachalar bilan ifloslangan oqova suvlar;

2-guruh - tarkibida o'lchamlari 10-5 /10-7m bo'lgan suvda erimaydigan mayda dispersli va kolloid zarrachalar bilan ifloslangan oqova suvlar;

3-guruh - tarkibida suvda erigan organik moddalar bilan ifloslangan oqova suvlar; 4-guruh - tarkibida suvda erigan anorganik moddalar bilan ifloslangan oqova suvlar;

Quyosh radiatsiyasi va iflos suvga toza suv kelib quyilishi natijasida suv qaytadan tozalanadi. Turli bakteriya, zamburug' va suv o'tlari suvni qayta tozalashda faol agentlarda hisoblanadi. Suv turli iflos moddalarga haddan tashqari to'yingan bo'lsa u holda uni tozalash uchun turli mustaqil yoki kompleks usullardan foydalaniladi. Suv ta'minotining yopiq tizimini hosil qilish uchun sanoat oqova suvlari mexanik, kimyoviy, fizik-kimyoviy, biologik va termik tozalash usullari orqali korxona turiga qarab suvning zarur sifatiga qadar tozalanadi. Bundan tashqari,qayd qilingan usullar 419 rekuperatsion va destruktiv usullarga bo'linadi. Rekuperatsion usullar oqova suv tarkibidagi barcha qimmatbaho moddalarni ajratib olib, so'ngra qayta ishlatishga qaratilgan. Destruktiv usulda suvni ifloslantiruvchi moddalardan oksidlash yoki qaytarish usullari yordamida parchalantiriladi. Parchalash mahsulotlari suvdan gaz yoki cho'kma ko'rinishida ajratib olinadi. Tozalash usullarini tanlash quyidagi omillarni hisobga olgan holda olib boriladi:

1) qayta ishlatishni hisobga olgan holda tozalangan suvga qo'yiladigan sanitar va texnologik talablar;

2) oqova suv miqdori; 3) korxonada zararsizlantirish jarayoni uchun zarur bo'lgan energetik va moddiy resurslar miqdori shuningdek, tozalash qurilmasi va inshootlari uchun zarur maydon. Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslangan holda oqova suvlarini tabiiy yo'l bilan tozalab kutilgan natijalarga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

[1]. Razzakov, S. J., S. A. Kholmirzaev, and A. S. Abdurahmonov. "Experimental study of heatresistant reinforced concrete slab." Nauchno-tehnicheskiy journal FerPI 1 (2020): 71-78.

[2]. Ризаев Б. Ш., Абдурахмонов А. С. Особенности физико-механических свойств теплоизоляционных материалов для крыш //Вестник Науки и Творчества. – 2018. – №. 2 (26). – С. 41-44.

[3]. Sultonboevich A. A. et al. THE USE OF NON-CONVENTIONAL ENERGY SOURCES IN URBAN DEVELOPMENT //Conference Zone. – 2022. – С. 95-98.

[4]. Sultonboyevich A. A. BASIC PRINCIPLES OF ECOLOGICAL TERRITORIAL ORGANIZATION OF URBAN PLANNING //INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876. – 2022. – Т. 16. – №. 3. – С. 20-23.

[5]. Abdurakhmonov , A. S. . (2021). Structural Analysis of Heat-Resistant Heat-Resistant Plate from Brick Battle. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology, 1(4), 106–108.

MAKTABGACHA PEDAGOGIKA

Xasanova Gulhayo Faxriddin qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta ’lim fakulteti Maktabgacha ta ’lim yo ‘nalishi 1 bosqich talabasi.

Annotatsiya: *Maktabgacha pedagogika maktabga kirishdan oldingi yoshdagi bolalarning rivojlanish, tarbiyalash va boshlang'ich ta'lim shakllarini o'rganadigan pedagogika sohasi. U umumiy pedagogikaning metodologiyasi va kategoriyaviy apparatiga asoslanadi. Umumiy pedagogika, bolalar sohalari kesishmasida chegaraviy pozitsiyani egallaydi. Psixologiya va yosh fiziologiyasi: ushbu ilmiy ma'lumotlar, fanlar nazariydir. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiyaning maqsadlari, vositalari va usullarini ishlab chiqish uchun asos yoshi. Ushbu maqolada, maktabgacha pedagogika haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta’lim, tarbiya, jarayon, Pedagogika, nazariya, metodlar, bolalar, pedagogik mahorat, mutaxassislar, rivojlantirish.*

Maktabgacha pedagogika pedagogik tushunchalar bilan ishlaydi: tarbiya, ta'lim, ta'lim, pedagogik jarayon, shaxsning yaxlit rivojlanishi, bolalik. Insonni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, xalqimizning azaliy orzusi bo‘lib, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyat qanday qilib yosh avlodga o‘rgatish – ularni komillikka yetaklash yo‘llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. Bu esa pedagogika fanini yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Chunki insonni ma'rifatli va ma'naviy komillikka erishishi pedagogika fanining yetakchiligida amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimida uzoqni ko’zlab olib borilayotgan islohotlar bugun nafaqat jamoatchiligimiz, balki butun jahonda ham katta e'tibor bilan e'tirof etilmoqda. Bugun yangicha qiyofa kasb etgan, zamon talablari darajasida ta'mirlangan, eng so’nggi rusumdagi o’quv jihozlari bilan jihozlangan maktablar orzu emas ayni haqiqatdir.

Maktabgacha ta'lim-bu san'at deyish mumkin. Tasavvur qilsak, birinchi marta qulaylik zonasidan chiqib ketayotgan yosh bolalar guruhiga rahbarlik qilish va ularga asosiy hayotiy ko'nikmalarni o'rgatish. Bir qarashda, ota-onalarga ta'limning dastlabki yillari bolalarga tengdoshlari bilan muloqot qilish va sinfdagi hayotga moslashishga yordam berish imkoniyatini beradigandek tuyulishi mumkin.

Biroq, ko'plab ta'lim mutaxassislari bola hayotining dastlabki besh yili ularning rivojlanishi uchun eng muhim davrlardan biri bo'lib, ularning voyaga etishiga doimiy ta'sir ko'rsatishi mumkin degan xulosaga kelishdi. Ushbu yondashuvda bolalar qiziquvchan va faol o'quvchilar deb hisoblanadilar, ular atrof-muhit tomonidan rag'batlantirilishi va o'z tezligida ko'proq narsalarni kashf etishga undashi kerak. Ular o'z ta'limlari bilan faxrlanishga, sinfda ijobiy tajribaga ega bo'lishga, o'rganish va o'rganishda o'zlarini qulay va ishonchli his qilishga da'vat etiladi.

Sinf o'rganishni osonlashtiradigan materialdan iborat katalizator sifatida ishlaydi. Bolalar musiqa, san'at, raqs, yozish va boshqa tadbirlar orqali muloqot qilishga da'vat etiladi. Ushbu yondashuvdan foydalanadigan muassasalar odatda bolalarga o'zini namoyon qilish va ijodkorlik orqali jamiyatda o'z o'rnini egallashga imkon beradigan faoliyatni ta'minlaydi. O'qituvchilar odatda talabalarning o'sishini kuzatadilar, chunki ular o'zlarining bilimlarini aks ettiradilar.

O'yin usuli maktabgacha ta'limning mashhur usuli hisoblanadi. Ushbu yondashuv bolani o'qitishning eng yaxshi usuli bu faoliyat bilan shug'ullanish degan fikrdan kelib chiqadi. Maktablar yosh bolalarni o'rgatish uchun rolli o'yinlar, virtual o'yinlar, qo'shiq aytish, bepul o'yin va boshqa ko'p narsalarga tayanadi. Odatda, bunday o'rganish usuli bolaga do'stona muhitda hech qanday bosim o'tkazmasdan ta'sir qiladi, deb ishoniladi. Ushbu usuldan foydalanadigan maktablar ongli ravishda bolaning ehtiyojlariga e'tibor qaratadilar va bunday ehtiyojlarni qondirish atrofida aylanadigan tadbirlarni o'tkazadilar.

O'yin yo'li usuli 3-5 yoshdagi bolalarni o'qitadigan ta'lim muassasalari tomonidan keng qabul qilinadi. Ushbu yosh bolalar hali ham o'z dunyosi uchun nisbatan yangi ekanligini hisobga olsak, bu usul har kuni bir qator amaliy vazifalarni yoqtiradigan bolalar uchun juda mos keladi.

Maktabgacha pedagogikaning ijtimoiy funktsiyasi zamonaviy jamiyatning yosh avlodni tarbiyalash sohasidagi talablari bilan bog'liq. Maktabgacha pedagogikaning amaliy vazifasi maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va o'qitishning yangi ilg'or dasturlari va usullarini ishlab chiqishdan iborat. Maktabgacha pedagogikaning bashoratli roli - maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish tendentsiyalari va istiqbollarini o'rganish, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashni tashkil etish.

Ilmiy prognoz asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning yangi kontseptsiyalari yaratiladi, maktabgacha ta'lim standartlari ishlab chiqiladi, oilada va maktabgacha ta'lim muassasalarida maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning nazariy asoslari va texnologiyalari, ta'lim jarayonining xususiyatlari o'rganiladi. maktabgacha ta'lim muassasalarida har xil turdagi va turlari o'rganiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasidan tadqiqotlar kuzatish, pedagogik tajriba, suhbat, hujjatlarni o‘rganish, bolalar faoliyati mahsulini taviil qilish metodlari orqali amalga oshiriladi. Bu metodlar asosida tadqiqotlar mazkur soha bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchi va tarbiyachilar tomonidan olib boriladi. Har bir kuzatish jarayoni batafsil yoziladi va ilmiy jihatdan taxlil qilinadi. Pedagogik tajribada birinchi navbatda bola, uning rivojlanishi uchun yaratiladigan pedagogik shart-sharoitlar nazarda tutiladi. Pedagogik tajriba ehtiyotkorlik bilan obyektiv ravishla olib borilganlagina amalga oshiriladigan tadqiqot natijalarining ob’yektivligini ta’minlash imkoniyati tug‘iladi. Suhbat metodi u yoki bu bolani, yoki bir gurux. bolalarni yaxshiroq o‘rganish imkonini yaratadi, ta’limtarbiya jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatolar aniqlanadi.

Xulosa. Bolalar bilan suhbat ularning qiziqishlarini, nutqidagi o‘ziga xoslikni, atrof muhit hamda kishilarga munosabatini aniqlashga yordam beradi. Hujjatlar, ya’ni bog‘cha va aloqida tarbiyachilarning reja va hisobotlarini o‘rganish ham nazariy xulosalar

chiqariisha muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga mazkur hujjatlar maktabgacha ta’lim muassasalaridagi tashkiliy ishlar haqida aniq xulosalar chiqarish imkonini yaratadi. Ushbu xulosalar o‘z navbatida tarbiya usullarini kashf etishga yordam beradi. Bolalar faoliyati mahsulini tahlil qilish metodi Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasining muhim tadqiqot usulidir. Bolalar faoliyati taxlili ularni shakllantirishda juda yangi natijalar beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Kozlova S.A., Kulikova T.A. Maktabgacha pedagogika. M., 2018 yil.
2. Jo’rayev R. H., Safarova R. G’., Ibragimov X. I., Musayev U. Q. Pedagogika fani Konsepsiyasi. Xalq ta’limi, 2004, № 5, 8-31-b.
3. Asqar Zunnunov. O’zbek pedagogikasi tarixi.-T.: «O’qituvchi»,1997.- 271 b.
4. Asqar Zunnunov. Pedagogika nazariyasi. .-T.: «Aloqachi»,2006.- 163 b.
5. Ibragimov X. I., Abdullayeva SH. A. Pedagogika. O’quv qo’llanma.-T.: «Fan», 2014. 182 b.
6. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika. 2021. 211 b.

O‘RMON XO‘JALIGI SOHASINING AHAMIYATI VA BUGUNGI KUNDAGI O‘RNI

Xushvaqtov Jamshid Eshmurod o‘g‘li
Anvarbekov Islombek Anvarbek o‘g‘li
Umarova Fotima Faxriddin qizi

Annotatsiya: *O‘rmonlar - odamlar uchun dam olish maskanidir, ular zararli gaz, changlarni ushlab qolishadi, mikroiqlimni vujudga keltiradi, tuproqni eroziyadan saqlaydi. Tuproqning ustidan yog‘ib kelayotgan yog‘in-sochinning suvi o‘rmonning ichidan o‘tayotib mikroorganizmlardan tozalanadi. Shu ma’lum bo`lganki o‘rmon ichidan oqib o‘tgan suvning 1 litrida 9 ta oshqozon chuvalchangi bo‘lib, o‘rmondan o‘tmagan suvda esa 18 ta bo‘lgan, ya’ni 2 marotaba ortiq.*

Kalit so‘zlar: *o‘rmon, qurulish, zamonaviy texnologiya, namlik, tuproq, rivojlanish, daraxtzorlar.*

Аннотация: *Леса являются местом отдыха людей, они задерживают вредные газы и пыль, создают микроклимат, защищают почву от эрозии. Дождевая вода, попадая на почву, очищается от микроорганизмов по мере прохождения через лес. Было известно, что в 1 л воды, протекавшей по лесу, было 9 желудочных червей, а в воде, не прошедшей через лес, 18, т. е. в 2 раза больше.*

Ключевые слова: *лес, строительство, современная технология, влага, почва, развитие, древесные рощи.*

Abstract: *Forests are a place of recreation for people, they trap harmful gases and dust, create a microclimate, and protect the soil from erosion. Rainwater falling on the soil is cleaned of microorganisms as it passes through the forest. It was known that there were 9 stomach worms in 1 liter of water that flowed through the forest, and 18 in the water that did not pass through the forest, that is, 2 times more.*

Key words: forest, construction, modern technology, moisture, soil, development, tree groves.

KIRISH

O‘rmon xo‘jaligi sohasi bo‘yicha mutaxassis bo‘lish uchun o‘rmonning hayot qonunlarini bilish kerak, uning rivojlanishi, qayta tiklanishi (ko‘payishi), yetishtirish, o‘rmonni parvarish qilish, o‘rmonning hosildorligini oshirish va boshqalar. Yuqorida ko‘rsatilgan muhim savollarga o‘rmonchilik fani javob beradi. Fan ikki qismga bo‘`linadi. Birinchi qismi o‘rmonshunoslik deb ataladi yoki o‘rmonning biologiyasi, bunda o‘rmon hayotning qonunlari o‘rganiladi, ya’ni o‘rmon bilan atrof-muhit orasidagi o‘zaro aloqa. Ikkinchi qismi amaliy o‘rmonchilik o‘rmonni kesish usuli bilan parvarishlashni va boshqa kesishlarni yoritadi, undan tashqari o‘rmonning yog‘ochdan tashqari bo‘lgan mahsuloti. Ikkala qismi bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bir-birini to‘lg‘azadilar.

O‘rmonlar yog‘och ishlab chiqaruvchi asosiy manba sifatida xalq xo‘jaligining hamma sohalarida keng qo‘llaniladi. Bu - qurilish. Qog‘oz, mebel sanoati yog‘ochdan 2000 gacha har xil materiallar ularning asosiylari 1 sxemada keltirilgan. Yog‘ochga bo‘lgan talab yildan-yilga

ortib boryapti. Dunyo miqyosida yog‘ochga bo‘lgan talab 2005 yilga borib 2-3 marotaba oshadi. Yog‘ochdan tashqari o‘rmonlar oziq-ovqat olish uchun ham xizmat qiladi. (Yong‘oq, xandon pista, Sivers olmasi va boshqalar) va shifobaxsh xom ashyo sifatida xizmat qiladi (na’matak, chirg‘an oq, eman, sofora va boshqalar). Undan tashqari 500 ga yaqin shifobaxsh o‘tlar bizning tog‘ mintaqamizdagi o‘rmonlarda o‘sadi va ulardan foydalaniladi.

O‘rmonlar - odamlar uchun dam olish maskanidir, ular zararli gaz, changlarni ushlab qolishadi, mikroiqlimni vujudga keltiradi, tuproqni eroziyadan saqlaydi. Tuproqning ustidan yog‘ib kelayotgan yog‘in-sochinning suvi o‘rmonning ichidan o‘tayotib mikroorganizmlardan tozalanadi. Shu ma’lum bo`lganki o‘rmon ichidan oqib o‘tgan suvning 1 litrida 9 ta oshqozon chuvalchangi bo‘lib, o‘rmondan o‘tmagan suvda esa 18 ta bo‘lgan, ya’ni 2 marotaba ortiq. Nihoyat o‘rmon - bu ov qiladigan joydir, undan tashqari ularda asalarichilikni rivojlantirish mumkin (zarang, tol, oq akatsiya, sofora va butalar). O‘zbekistonda o‘rmonning katta ahamiyatga ega ekanligini e’tiborga olib, Oliy Majlisning 14 sessiyasida (aprel, 1999 y) «O‘rmon to‘g‘risida Qonun» qabul qilindi. Unda o‘rmon xodimlarining asosiy vazifalari ko‘rsatilgan.

Yer kurrasida o‘rmonlar bir tekisda joylashgan emas. O‘rmon maydonlarining yarmi tropik mintaqaga to‘g‘ri keladi, qolganlari o‘rta mintaqa, shimoliy yarim sharda joylashgan (Rossiya, Kanada, AQSh va boshqalar). 1 kishi hisobiga olganda Rossiyaga 5-8 ga, Lotin Amerikasida 5, Kanadada- 4 ga, Afrikada - 2,4 ga maydon to‘g‘ri keladi.

O‘zbekistondagi o‘rmonlarni tashkil etuvchi asosiy tur bo‘lib, archa kiradi. Archazorlar - tuproqni muxofaza qiladi, suvni himoya qiladi va uni tartibga soladi.

Bizning tog‘ mintaqamizda archaning turi uchraydi: Qora archa (zarafshon archasi), saurarcha (yarimsharsimon archa), o‘rik archa (turkiston archasi). Ular bir-birlaridan tashqi ko‘rinishi, vertikal tuzilishi bilan farq qiladilar. Archadan keyin tog`larda tabiiy ravishda yong`oqzorlar o`sadi: xandon pista 600-1700 m balandlikda, grek yong‘og‘i 1000-1500 m, bodom 800-1600 m va mevali daraxtzorlar (olma, olxo‘ri, do‘lana, nok va boshqalar). Tog‘larda kichik guruh bo‘lib (karkas) uchraydi, daryolar yonida - xurmo, zarang, olcha uchraydi.

O‘zbekistonda tabiiy - o‘rmonlarlan tashqari kichik o‘rmonzorlar ko‘rinishida, qishloq xo‘jalik ekinlari atrofida o‘rmon ixotazorlari, kanallar, suv omborlari, avtomobil, gaz quvurlari 10 mln ga sun’iy daraxtzorlar mavjud. Bu yerda har xil daraxt, buta o‘simliklari uchraydi, bizning sharoitimizga moslashib qolgan introduktsiya qilingan turlar o‘sadi. Ularning ko‘pchiligi (eman, qayrag‘och, oq akasiya, sofora, daraxlarning ayrim turlari) bizda tezroq o‘sadi (o‘z vataniga nisbatan), issiq iqlim va havoning quruqligiga yaxshi chidaydi.

Qumli-cho‘l mintaqasida qora va oq saksavul o‘sadi, ulardan tashqari sho‘ra, qandim, cherkez, daryolar cherkez, daryolar chetida yulg‘un, turangil o‘sadi. Bu o‘rmonlar O‘zbekiston o‘rmonzorlarining 70% ni tashkil etadilar va qumni mahkamlovchi sifatida ishlatiladi va mollar uchun yem-xashak rolini o‘taydilar.

O‘zbekistonning uchinchi o‘rmon-tashkil etuvchi mintaqasi bu to‘qayzorlardir. Ular daryolarga yaqin joylashgandir, qirg’oqni yuvilib ketishdan himoya qiladilar, suvni tartibga soladilar. Ularga turangil, tol, jiyda turlari kiradi, tog‘larda kamroq ravishda qayin, so‘gdiana, shumtoli uchraydi.

O‘zUXITI, Botanika bog‘i, ToshDAU ning o‘rmonchilik va o‘rmon melioratsiya kafedrasi olimlari introduktsiya qilingan turlari bizning sharoitimizda o‘stirish usullari to‘g‘risida tavsiyalar ishlab chiqishgan.

O‘zbekiston o‘rmonlar maydoni respublikaning umumiy maydonining 4% ni tashkil etadi. O‘rmonchiliklarning asosiy vazifasi o‘rmonlarni barpo qilish, o‘rmonlarni o‘stirish va shu o‘rmonlarni himoya qilishdir. O‘rmon to‘g‘risida to‘g‘ri tushunchaga ega bo‘lmasdan turib o‘rmonda xo‘jalikni samarali ravishda olib borish mumkin emas. Ko‘pincha odamlar o‘rmon-daraxtlarning majmuasidan iborat deb tushuniladi. Bu noto‘g‘ridir. Daraxtlari ko‘p bo‘lgan parkni o‘rmon deb bo‘lmaydi, alleya va dashtni alohida daraxt deb bo‘lmaydi.

Daraxtlar majmuasi o‘rmonni tashkil qilishi uchun daraxtning soni emas balki sifatli belgilari ham bo‘lishi kerak. Masalan, o‘rmonda va o‘rmondan tashqari o‘sib turgan daraxtning shakli va ko‘rinishi. Sifatli belgilar daraxtlarning bir-biriga ta’siridan paydo bo‘ladi, ya’ni shu natija o‘rmonda harorat, namlik, yorug‘lik va boshqa faktorlar o‘zgaradi. O‘rmonda daraxtlar bir-biriga ta’sir qilibgina qolmay, tashqi muhitga ham ta’sir ko‘rsatadi. O‘rmonda daraxtlar va hayvonot dunyosi orasida o‘zaro bog‘liqlik paydo bo‘ladi, natijada o‘rmon o‘zining shaxsiy muhitini barpo etadi. Juda katta va yirik daraxtlar, shox-shabbalari rivojlangan. Bundaylar 5% uchraydi. Yirik shox-shabbalari rivojlangan daraxtlar 30-40 %. O‘rtachalari, balandligi kichikroq, shox-shabbalari ensizroq 20-40 %. O‘sishdan qolganlari , shox-shabbalari, kichik 10-20 %. Shox-shabbalari bir tekisli. Bir tomonlama shox-shabbalari. Qurib borayotgan va quriganlari (10 % gacha). Shox-shabbasi hali tirik. Shox-shabbasi quruq.

O‘rmonlarni kesib paravarish qilish ishlarida bu klassifikatsiya hozir ham qo‘llaniladi. Andoza (GOST) bo‘yicha boshqa klassifikatsiyalar ham mavjud.

Hamma daraxtlar bir xildagi tuproq iqlim sharoitida o‘sib, yoshi bir xil bo‘la turib nima uchun bunday sinflarga bo‘lish qo‘llaniladi? degan savol tug‘ilishi mumkin. Tadqiqotchilarning ma’lumotiga ko‘ra asosiy sabab bu ularning irsiyati, genetik belgilaridir. Undan tashqari, urug‘lar har xil sharoitga tushib qoladi, bir sharoitda tuprog‘i sernam, boshqalari namligi ozroq joyga tushib qoladi. Undan tashqari har xil miqdorda yorug‘lik, harorat, tuproqning unumdorligi, changni va zararli gazlarni ta’siri va hokazo faktorlar bo‘lishi mumkin.

Kuzatuvlar natijasida shular aniqlandiki, tuproqda ozuqa moddasi va namligi oz bo‘lsa daraxtlarning deferentsiyasi (tabaqalanishi bo‘linishi) kuchsizroq kechadi, chunki hamma daraxtlar noqulay bo‘lib sekin o‘sishadi. Tuprog‘i ozuqa moddalarga boyroq, sernam bo‘lgan joylarda daraxtlarning balandligi bo‘yicha tabaqalanishi kuchliroq bo‘ladi. Bu yerda daraxtlar tezroq o‘sishadi, bir-biriga ta’siri ham kuchliroq bo‘lib, ayrim hollarda ular orasida qarama qarshilik paydo bo‘ladi.

O‘rmon daraxtzorlardan (daraxtlar), yosh daraxtlardan (podrost), butalar (podlesok), tuproqning ustki qismini qoplagan o‘simliklar (jivoy napochvenniy pokrov), o‘rmon tuproq ustidagi barglar, mayda shoxlar va to‘shama qoldiqlardan iborat qatlam (lesnaya podstilka) va tuproq (ildiz tarmoqlari) dan iborat.

Tirik qoplam - tuproqning ustki qismini yopib turuvchi o‘t o‘lanlar. Ularning turlari daraxt turlarining tarkibiga bog‘liqdir. O‘rmon tuprog‘i ustidagi barglar, shoxlar va poya qoldiqlaridan iborat qatlam yoki to‘shama. Bu to‘shama bir tomondan tuproqni eroziyadan saqlaydi, Ikkinchi tomondan o‘rmonni qayta tiklanishiga xalaqit beradi. Rizosfera - daraxtlar tikka turish uchun sharoit yaratadi, ularga namlik va ozuqani beradi. Ularning chuqurligi daraxtlari va tuproq sharoitda bog`liqdir.

To‘liqlik (polnota) - daraxt shox-shabbalarining bir-biriga tegib turishligi. Agar daraxtlarning shox-shabbalari orasida bo‘shliq bo‘lmasa unga to‘liqlik 1 ga bo‘ladi, agar bo‘shliq 50 % ni tashkil etsa to‘liqligi 0,5 ga teng bo‘ladi va hokazo. Zichligi bir gektar o‘rmondagi daraxtlarning soni.

Bonitet - daraxtzorlarning mahsuldorligi, daraxtlarning o‘rtacha balandligi va yoshini hisobga olib aniqlanadi. Masalan, 50 yashar chinor daraxtlari bir sharoitda balandligi 25-30 m ga, boshqa tuproq iqlim sharoitida 10-15 mga yetadi. Sharoit qancha yaxshi bo‘lsa, mahsuldorlik shunchalik yuqori bo‘ladi, ya’ni o‘rmonning boniteti yuqori bo‘ladi. Hozirgi davrda bonitet 5 klassga bo‘linadi -I,II,III,VI V- klasslar, qo‘shimcha ko‘rsatkichlar ham bor Ia, Ib, Iv. Tabiatda o‘rmon bir bonitetdan ikkinchi bonitetga o‘tishi kuzatilgan. Bonitetni prof. M.M.Orlov jadvalidan aniqlashadi, ammo hamma turlar uchun jadval tuzilmagan.

Tovarligi - qurilishi uchun yog‘och qismining yog‘och miqdori, I klassli tovarlikda yog‘ochning yog‘och miqdori 90% dan yuqori, bu ignabargli daraxtlar uchun, keng bargliklar uchun esa 70% dan yuqori. II klass- igna bargliklar uchun 70-90 % va keng barglilar uchun 45-70%. III klass ignabarglilar uchun 70% dan kamroq va keng barglilar uchun 45 % dan oz.

O‘rmonning belgisiga uning turi kiradi. Bu masala biroz murakkabroqdir, shuning uchun u alohida ko`riladi, ya'ni mustaqil mavzu sifatida ko‘riladi. O‘rmon maydoniga o‘rmon ichidagi ochiq (sayxon) yer, yalanglik harakterlidir, u yerda o`rmon bo‘lmaydi; siyrak daraxtzor - to‘liqligi 0,3 dan past bo‘lgan o‘rmon, yalanglik - o‘rmon ichidagi o‘t bilan qoplangan yer uchastkasi.

XULOSA

Daraxtzor - asosiy komponentdir, u ikki - uch pog‘ona (yarus) dan iborat bo‘lishi mumkin, yoki bir turdan tashkil topgan bo‘ladi. Shakli bo‘yicha o‘rmon murakkab va oddiy bo‘lishi mumkin. Oddiy o‘rmonda hamma daraxtlar bir pog‘onada joylashgan, murakkab o‘rmonda 2, 3, 4, pog‘ona bo‘lishi mumkin. Yosh daraxtzor (podrost) - yosh avlod, pastki pog‘onani (yarusni) egallaydi, ona daraxtlar kesilgandan so‘ng ularni o‘rnini egallaydilar. Yosh daraxtzorning yoshi 3-5 yil. U o‘ziga nisbatan alohida e’tiborni talab qiladi – ya’ni himoya qilish, mollardan himoya qilish va mexanik zararlanishdan saqlanish kerak. Butalar (podlesok) - butalar yoki ikki darajali daraxtlar turlari. Vazifasi - tuproqni qurib qolishdan

saqlash, eroziyadan himoya qilish begona o‘t -o‘lanlarni o‘sishiga xalaqit berish. Ularning ko‘pchiligi tuproqning unumdorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nigmatov U. «Mero` sodeystviya estestvennomu vozobnovleniyu v archovnikax Uzbekistana». T: 1960.

2. Ablayev S.M, Dosaxmetov A.O, Yuldashev Ya.X. «O‘zbekiston sharoitida terak yetishtirish». T.: 1995.

3. Ablayev S.M. «Fistashka», Agropromizdat, M: 1987.

4. Bog`danov P.L. «Dendrologiya». M.: 1974.

5. Bulgin N.Ch. «Dendrologiya». M.: 1985.

6. Gorshenin N.M, Shvidenko A.I. «Lesovodstvo». Lvov. 1977.

7. Nigmatov U. «Mero` sodeystviya estestvennomu vozobnovleniyu v archovnikax Uzbekistana». T: 1960.

8. Usmanov K. «Dendrologiya». T: 1980.

ПЕДАГОГЛАРНИ УЗЛУКСИЗ КАСБИЙ РИВОЖЛАНТИРИШ ЖАРАЁНИДА ИНДИВИДУАЛЛАШТИРИШ МАЗМУНИ

Худойбердиева Жанона Рустамовна
ЎзПФИТИ мустақил изланувчиси

Таълим ислоҳотларининг замонавий боскичи жамиятда юз бераётган янгиланишларнинг тезкорлиги, таълим ташкилотларига қўйилаётган янги, янада юкори талабларга тезрок мослашиш билан боғлиқ долзарб вазифаларни илгари сурмокда

Малака ошириш таълими муассасаларининг амалий фаолияти, ўқув режа ва дастурларининг таҳлили ҳамда бир неча йиллик кузатишлар курсларда асосий эътибор педагог ходимларнинг умумий тайёргарлигини, касбий компетентлилигини такомиллаштирилишиги қаратилишини, барча учун бир хилдаги усул, методларнинг қўлланилаётганлигини, уларнинг касбий хусусиятлари индивидуализми, маҳорат даражаси ва эҳтиёжлари етарлича инобатга олинмаётганлигини кўрсатди. Шу нуқтаи назардан педагогларни узлуксиз касбий ривожлантриш тизими олдида кечиктирмасдан ҳал этилиши лозим бўлган муҳим вазифалар турибди. Улардан бири педагогни суст объектдан фаол, мустақил, интилувчан, рақобатбардош, яъни фаолиятидан кўзлаган мақсад, вазифаларини тушунадиган, қандай ва қай даражада касбий маҳоратга эга бўлиши лозимлиги, имконияти ҳамда қобилиятларини биладиган субъектга айлантиришдир. Мазкур ҳолатда муаммонинг самарали ечимига жараённи педагогларга ўз ички салоҳиятидан мумкин қадар фаол фойдаланиш, касбий эҳтиёжларини англаш ва уни коррекциялашга шароит яратувчи индивидуаллаштириш орқали эришиш мумкин.

Педагогик энциклопедияда кўрсатилишича, индивидуаллаштириш деганда ҳар бир таълим олувчининг индивидуал-психологик хусусиятлари ҳисобга олинадиган, уларнинг ўқув-билув фаолиятини бошқариш тизими тушунилади. Индивидуаллаштирилган ўқитиш эса ўқув жараёнини ташкил этишда индивидуал ёндашиш асосида танланган ўқитиш йўллари ва турли ўқув-услубий, психологик-педагогик ҳамда ташкилий бошқарув тадбирлари орқали таъминланишидир [9; 83-84-б.]. Шунингдек, жараёнда ўқитиш усули ва суръати таълим олувчиларнинг индивидуал фарқлари, ўқишга бўлган қобилиятларининг ривожланиш даражасига кўра танланиши инобатга олинади [10; 201-б.].

Узлуксиз касбий ривожлантириш жараёнини индивидуаллаштириш қуйидаги йўналишларда татбиқ этилиши мумкин:

- мазмунига кўра, тингловчиларга узлуксиз касбий ривожлантириш курслари ўқув режа ва дастурларини тузиш жараёнида иштирок этиши ҳамда белгиланадиган таълим йўналишига ўзгартиришлар киритишига имконият берилиши;

- ҳажмига кўра, тингловчиларнинг лаёқати, қобилияти, ўзлаштириш суръати, педагогик тажрибасини инобатга олган ҳолда эҳтиёж ва қизиқишларига кўра фанини чуқурроқ ўрганишига шароит яратилиши;

- вақти ва муддатига кўра, узлуксиз касбий ривожлантириш жараёни мазмунининг маълум ҳажмини ўрганиш тингловчиларнинг индивидуал-психологик хусусиятлари ҳамда тайёргарлик даражаларига кўра белгиланиши.

Кейинги даврлардаги илмий адабиётларда педагоглар касбий ривожланиши ва узлуксиз касбий ривожлантириш жараёнини индивидуаллаштиришни тавсифловчи турли хил атамалар қўлланилмоқда. Тадқиқотимиз нуқтаи назаридан уларнинг таҳлили алоҳида эътиборга молик.

Индивидуал таълим дастури – таълим олувчининг шахсий, ўқув, касбий қизиқишлари, эҳтиёжлари, талаблари асосида мустақил ишлаб чиқиладиган, шахсий ва касбий ривожланишига йўналтирилган ўқиш ёки бошқа фаолиятининг дастлабки дастуридир [6; 228-б.; 14; 43-б.]. Шунингдек, таълим олувчининг келгусидаги фаолияти, мақсади, мазмуни, натижалари, вақти, жойи, воситалари ва педагоглар ҳамда бошқа таълим олувчи субъектлар билан ўзаро таъсири ҳақида тушунчаси (тасаввури) сифатида ҳам талқин этилади [12; 42-б.].

